

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
FARMATSIYA FAKUL’TETI**



«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI

**“YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI”
fani bo‘yicha**

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 500000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot

Ta‘lim sohasi: 510000 – Sog‘liqni saqlash

Ta‘lim yo‘nalishi: 5111000 – Kasb ta‘lim (Farmatsiya ishi)

Toshkent -2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
FARMATSIYA FAKUL‘TETI**

«IJTIMOIY FANLAR » KAFEDRASI

**“YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI”
fani bo‘yicha**

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 500000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot

Ta‘lim sohasi: 510000 – Sog‘liqni saqlash

Ta‘lim yo‘nalishi: 5111000 – Kasb ta‘lim (Farmatsiya ishi)

Toshkent -2021

Yosh davrlar psixologiyasi fanining o'quv uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2019 yil 12.09dagi 231-sonli buyrug'i (1-ilovasi bilan) tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

L.Sultonova – Ijtimoiy fanlar kafedasi katta o'qituvchisi


Taqrizchilar:

D.I.Ilhomova – O'zMU, ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya kafedrasida dotsenti

S.M.Tuychieva – TFI "Tillar" kafedrasida mudiri, dotsent

Fanning O'quv uslubiy majmuasi ijtimoiy fanlar soha – uslubiy kengashning 2021 yil "18.06" dagi 11-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengash raisi

 K.K. ismailov


Fanning o'quv uslubiy majmuasi markaziy uslubiy kengashning 2021 yil "28.06" dagi 11-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi

 Z.A. Yuldashev

Fanning o'quv – uslubiy majmuasi institut uslubiy kengashining 2021 yil "29/06" dagi 11-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Kengash ilmiy kotibi

 V.R. Xaydarov

Mundarija

1. Nazariy materiallar

1 mavzu. Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari.....	7
2 mavzu. Yosh davrlar psixologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi.....	11
3 mavzu. Yosh davrlar psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish.....	18
4 mavzu. Psixik rivojlanish va ta'lim. Yosh davrlarini tabaqalash muammolari.....	27
5 mavzu. Go'daklik va maktabgacha yoshning psixologik xususiyatlari. Kichik maktab yoshida psixik rivojlanish	49
6 mavzu. O'smirlarning psixik xususiyatlari.....	57
7 mavzu. O'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari.....	65
8 mavzu. Ta'lim jarayonini boshqarish.....	76
9 mavzu. Tarbiya psixologiyasi. O'qituvchi psixologiyasi.....	82

2. Amaliy mashg'ulotlar.

1 mavzu. Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari.....	94
2 mavzu. Yosh davrlar psixologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi.....	98
3 mavzu. Yosh davrlar psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish.....	105
4 mavzu. Psixik rivojlanish va ta'lim. Yosh davrlarini tabaqalash muammolari.....	109
5 mavzu. Go'daklik va maktabgacha yoshning psixologik xususiyatlari.....	110
6 mavzu. Kichik maktab yoshida psixik rivojlanish.....	112
7 mavzu. O'smirlarning psixik xususiyatlari.....	113
8 mavzu. O'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari.....	117
9 mavzu. Ta'lim jarayonini boshqarish.....	125
10 mavzu. Tarbiya psixologiyasi. O'qituvchi psixologiyasi.....	130

3. Keys banki.....

4. Mustaqil ta'lim mavzulari.....

5. Test.....

6. Glossary.....

7. Adabiyotlar ro'yhati.....

Кириш

Ижодкор ўқитувчи жамият томонидан ёш авлод таълим-тарбиясига қўйилган ижтимоий буюртманинг муваффақиятли бажарилишини таъминловчи асосий ижрочилар ҳисобланади. Мазкур маъруза матнида ёш даврининг психологик хусусиятлари ва инсоннинг психик тараққиёти, таълим-тарбиянинг психологик моҳияти ҳақида сўз юритилади. Чунончи, ёш психологияси таълим-тарбия беришнинг психологик қонуниятларини ўрганишни ўз предмети деб билади. У ўқувчиларда тафаккурнинг шаклланишини тадқиқ қилади, ақлий фаолият усуллари ва кўникмаларини ўзлаштириш жараёнининг муваффақиятлилигига, педагог билан ўқувчилар ўртасидаги ўзаро муносабатларига таъсир қилувчи психологик омилларни, ўқувчилардаги индивидуал-психологик ўзига хос хусусиятларини ўрганайди. Мазкур ишлаб чиқилган маъруза матнида шу билан бирга ҳар бир ёш даврларини шахс комолотига уйғунлашуви ҳамда ёш босқичларида характернинг шаклланишида психологик хусусиятларни татбиқ этишга оид ёндошувлар келтирилиб ўтилган. Ўқувчиларда ақлий фаолият усуллари ва кўникмаларини ўзлаштириш жараёнининг муваффақияти, педагог билан ўқувчилар ўртасидаги ўзаро муносабатларига таъсир қилувчи психологик омиллар, ёш хусусиятлари, ўқувчилардаги индивидуал-психологик фарқларини, таълим-тарбия ишларининг ўзига хос жиҳатлари ҳақида тушунча беришдан иборат. Мазкур “Ёш психологияси” фанидан маъруза матни 14 соатга мўлжалланган бўлиб, назарий, амалий, мустақил ишлар кесимида ёш даврлар, ўзига хос шахснинг индивидуал психологик хусусиятлар (темперамент, ҳарактер, қобилиятлар), шахснинг билиш жараёнлари, онг ва фаолият, мулоқот ва ахборотларни қамраб олади. Бу эса бўлғуси педагоглардан ёшларни билимдон, маънавий жиҳатдан баркамол авлод бўлиб шакллантиришда ёшга хос психологик хусусиятларини татбиқ этиш ҳамда ўқувчи шахси билан индивидуал ва гуруҳий психологик-педагогик ёндошишларига имкон яратади. Ўқувчи психикаси тараққиётида турли нохуш ҳолатларнинг олдини ола билишга, ота-оналар, ўз ҳамкасблари ва ўқувчилар билан маданиятли муомалада бўлишга, психологик назокатни тўғри шакллантириш каби жараёнлар юзасидан билимга эга бўладилар.

1-Мавзу: Ёш даврлар психологияси фанининг предмети ва вазифалари

Режа

1. Ёш даврлари психологияси фани предмети ва мақсади.
2. Ёш даврлари психологиясининг асосий вазифаси
3. Ёш даврлари психологиясининг бошқа фанлар билан боғлиқлиги.

Таянч сўз ва иборалар:

Ёш даврлари, ёш психологияси ёш босқичлари, психик тараққиёт, ижтимоий мухит, таълим-тарбия, психика, психологик хусусиятлар,

1. Мамлакатимизда қабул қилинган «Таълим ҳақидаги қонун», ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури», мактабда таълим-тарбия жараёни самарадорлигини оширишга, баркамол шахсни камол топтиришга қаратилган. Бу долзарб вазифани амалга ошириш, мактабда таълим тарбия жараёнини тўғри илмий асосда ташкил этишни талаб қилади. Бунинг учун эса талаб жараёнини ва бола шахсини тараққиётнинг ўзига хос психологик қонуниятларини яхши билиш керак бўлади. Бола жамиятнинг аъзоси, мукамал шахс сифатида муайян ижтимоий мухитда камол топар экан, бутун билиш жараёнлари ўзига хос хусусиятлари ва рухий ҳолатлари, онги ҳам ривожланади. Ана шу ривожланиш натижасида унинг психологик онги гўдакнинг дастлабки оддий акс эттириш (инъикос) тарзидаги содда онгидан балоғатга етган инсонларга хос теварак-атрофни, борликни, одамларни аниқ, яққол тўла ва англаб акс эттириш даражасигача ривожланади. Хар бир фаннинг ўз предмети бўлгани сингари педагогик ва ёш даврлар психологияси фанининг ҳам ўз предмети бор. Агар умумий психология психика ҳақидаги психиканинг зохир бўлиши ва тарққиёт қонуниятлари ҳақидаги фан бўлса, ёш даврлар психологияси турли ёшдаги болаларнинг психик тараққиёти ва психологик хусусиятлари ҳақидаги фан ёш психологияси болаларнинг феъл-атворларини ва умуман уларнинг шахсини камол топтирадиган шарт-шароитларини ҳам ўрганadi. Ёш даврлари психологияси фани предмети тўғрисида фикр юритилаётганда инсон умрининг турли ёш босқичларида кечиши, ёш ўсишига ва психик тараққиётга таъсир кўрсатувчи омиллар, турли таъсирлар туфайли турлича тарзда рўй берадиган психик ривожланиш характеристикаси назарда тутилади. Демак, ёш даврлари психологияси фанининг мавзу баҳси турли

ёшдаги одамларнинг (болалар, ўқувчилар, катталар, эркаклар, аёлларнинг (онтогенезда) туғилгандан умрининг охиригача) психик ривожланиш жараёнини, шахснинг шаклланиши ҳамда ўзаро муносабати қонуниятларини ўрганишдан иборатдир. Ёш даврлари психологияси инсонда турли психик жараёнлар ривожланишининг ўзига хос хусусиятларини, унинг ҳар хил фаолиятини, эр ва аёлнинг жинс тафовутларини, шунингдек инсон шахсининг таркиб топишини илмий жиҳатдан тадқиқ қилади. Ёш даврлари психологияси турли ёшдаги инсонларнинг психик ривожланиши, психик хусусиятлари ва уларнинг ўзига хос омиллари, мезонлари ҳамда механизмлари ҳақидаги фандир. Шунингдек у муайян ёшдаги инсонларнинг ёш ўзгариши билан боғлиқ бўлган ўзига хос хусусиятларини ҳам ўрганади. Шунинг учун ижтимоий ҳаётда, таълимтарбия жараёнида, гуруҳлар ҳамда жамоаларда, ишлаб чиқариш ва оилавий муносабатларда ёш даврлари психологияси алоҳида ўрин тутаети. Инсон шахсининг таркиб топиши ва билиш жараёнларининг ривожланиши муаммосини инсон психикасининг ривожланиши қонуниятларини ҳисобга олмай туриб оқилона ҳал этиб бўлмайди. Шунинг учун ҳозирги кунда «инсон омили» масаласи долзарб мавзуга айланди. Ёш даврлари психологияси инсон психикасининг ривожланиш қонуниятлари ва хусусиятлари ҳамда шу ривожланишнинг босқичларини назарий ва амалий жиҳатдан тадқиқ этади.

2. Ёш даврларига оид қонуниятлар, омиллар ҳамда сабаблар, уларнинг ривожланиш ва шаклланишининг моҳияти ҳамда тузилишини аниқлаш. Ёш даврининг шакллари ва типлари, муаммога оид биологик, психологик ва назарий ёндошувларнинг таҳлили, унинг профилактикаси, психодиагностикаси ҳамда психокоррекцияси хусусиятларининг ўзига хослиги ҳақидаги назарий ва амалий билимлар билан қуроллантириш. Статистик адаптацион ёндошув, норманинг негатив мезонлари, маданий релетивизм, расмий ёндошувни шакллантиришдан иборат. Фаннинг вазифалари – талабаларни ёшга оид психология фанининг назарий асослари ва инсон тараққиёти қонуниятларини тадқиқ этиш учун амалий материаллар билан қуроллантириш. Тараққиёт психологиясининг назарий асосларининг талабалар томонидан онгли равишда ўзлаштирилиши; мазкур фан амалиёти билан танишиш; мустақил билим олиш муҳимлигини англаш. Ёш даврлари психологиясининг асосий вазифаси шахснинг камол топиши қонуниятлари ва турли ёш давридаги одамларда вужудга келадиган психик фаолият, ҳолат ва шарт шароитларнинг ўзаро таъсири хусусиятларини аниқлашдан иборатдир. Ёш даврлари психологияси ана шу вазифаларни ҳал қилиш билан амалий мақсадларни руёбга чиқаради. Таълим-тарбия ишларини такомиллаштиришга ёрдам беради. Моддий неъматлар ишлаб чиқаришнинг самарадорлигини оширишга, миллатлараро муносабатларни яхшилашга, шахслараро мулоқотни тўғри йўналтиришга, жамоада ижобий психологик иқлим яратишга, узок умр кўриш сирларини очишга, оилавий муносабатларни мустаҳкамлашга ажралишларнинг олдини

олишга хизмат қилади. 3. Ёш даврлар психологиясининг бошқа фанлар билан алоқаси. Ёш психологияси кўплаб фанлар билан узвий боғлиқ ҳолда ривожланиб бормоқда. Фанлар орасидаги боғлиқликлар психологиянинг фанлар тизимидаги ўрнини белгилаб беради. Бизга маълумки, мавжуд фанлар гуманитар, табиий ва фалсафий турларга бўлинади. Бир қатор бир-бири билан ёндош бўлган фанлар мазкур таснифлашга киритилади, лекин психология мустақил фан сифатида намоён бўлади. У инсон руҳий фаолиятининг табиий, тарихий ва ижтимоий томонини ўрганadi. Психология барча турдаги фанлар орасида муҳим ўринни эгаллайди. Психология фалсафа, тарих, санъатшунослик, техника, педагогика фанлари билан узвий боғлиқ. Психология фалсафа фани билан чамбарчас боғланган. Бу боғлиқлик иккала фаннинг инсон ва унинг ҳаёти моҳиятини тўла англаш ва ривожлантириш анъаналарини белгилашдаги ўрни ва аҳамиятидан келиб чиқади. Социология фани ҳам янгича муносабатлар шароитида ўз тараққиётининг муҳим босқичига эришар экан, психология ушбу фан томонидан қўлга киритилган ютуқлардан фойдаланади ҳамда уларнинг қўлланилишига, оммалашishiга баҳоли қудрат хизмат қилади. Айниқса, психологиядан мустақил равишда ривожланиб, ажралиб чиққан бугунги тараққиёт давримизда алоҳида аҳамият касб этган ижтимоий психологиянинг социология билан алоқаси узвий бўлиб, улар жамиятда ижтимоий тараққиёт ва ривожланишни таъминлаш ишига хизмат қилади. Педагогика билан психологиянинг ўзаро ҳамкорлиги ва алоқаси анъанавий ва азалий бўлиб, уларни ёш авлод тарбиясининг замон талаблари руҳида амалга оширишдаги роли ва нуфузига хосдир. Ўз-ўзидан равшанки, бундай алоқа ҳамisha ҳам мавжуд бўлиб келган ва буни илғор психологлар ва педагоглар тушунтириб беришга ҳаракат қилишган. Рус педагоги ва психологи К.Д.Ушинский педагогика учун ўз аҳамиятига кўра психология барча фанлар ичида биринчи ўринда туради, деб таъкидлаган эди. Кишини ҳар жиҳатдан тарбияламоқ учун, - деб қайд этган эди К.Д.Ушинский, уни ҳар жиҳатдан ўрганмоқ даркор. Табиий фанлар – биология, физиология, химия, физика ва бошқалар психик жараёнларнинг табиий физиологик механизмларини тушуниш ва шу орқали уларнинг кечиш қонуниятларини объектив ўрганиш учун материаллар беради. Айниқса, бош миyaning ҳамда марказий асаб тизи-мининг психик фаолиятларини бошқаришда ва уларни мувофиқлаш-тиришдаги родини эътироф этган ҳолда психология фани табиий фанлар эришган ютуқлар ва улардаги тадқиқот усуларидан омилкорона фойдаланади.

Назорат саволлари

1. Ёш даврлари психологиясининг предмети ва мақсади.
2. Ёш даврлари психологиясининг вазифалари нимадан иборат.

4. Ёш даврлари психологиясининг вужудга келишига қандай омиллар туртки бўлган.

5. Ёш даврлари психологиясининг бошқа фанлар билан боғлиқлиги.

Адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Т, «Ўзбекистон» 1997 й

2. Каримов И.А. Юксак маънавият –енгилмас куч. Тошкент, Маънавият 2008.

3. Шавкат Мирзиёев “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биркаликда барпо этамиз.” Тошкент “Ўзбекистон” 2016 йил.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимга бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқи. Шавкат Мирзиёев “Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови” 2016 йил 7 декабр. Тошкент,

5. Шербаков А.И. Ёш психологияси ва педагогик психология Т.: 1991 й

6. Давлетшин М.Г., Тўйчиева С.М. Умумий психология Т.: 2002 й

7. Тўйчиева С.М. «Мактаб битирувчиларининг маънавий қиёфаси» Тошкент, 2000 й

8. Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма. Тошкент, 2004..

9. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология: дарслик. 1-2-китоб. Тошкент, 2002.

10. Ғозиев Э.Ғ. “Онтогенез психологияси” “Ворис”, Тошкент. 2006.

11. Ғозиев Э.Ғ. “Умумий психологияси” дарслик “Университет”, 2006

12. Нишонова.З, Қурбонова.З, Абдиев.Ф ”Психодиагностика ва экспериментал психология” “Тафаккур бўстони”. 2011.

13. Умаров.Б “Психология” дарслик “Ворис”, 2012

Электрон таълим ресурслари

1. www.expert.psychology.ru

2. www.psychology.all.ru

3. www.psychology.net.r

2- Мавзу: Ёш даврлар психологиясининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихи.

Режа:

1. Шарқ алломаларининг ёш даврлар борасидаги фикрлари
2. Хориж психологларининг даврлаштириш муаммосига доир қарашлари
3. Рус психологларининг тадқиқотларида даврлаштириш муаммоси
4. Рус психологларининг ёш даврлар борасидаги назариялар

Таянч сўз ва иборалар:

“Одоб ҳақида” рисола, Идеал шаҳар аҳолисининг фикрлари, Биогенетик назария, Биогенетик қонун, биологик етилиш, эмоционал мулоқат, шахсининг интим мулоқоти

1. Ўтган аждодларимиз ёш психологиясининг муаммоларини изчил ва атрофлича, муайян йўналишда, маълум концепция асосида ўрганмаган бўлсалар ҳам, алломаларнинг асарларида мазкур ҳолатларнинг акс этиши, намоён бўлиши, ривожланиши ва ўзгаришлари тўғрисида қимматли фикрлар билдирганлар. Булар тўрт хил манбаларда учрайди. Уларнинг бири – халқ ижодиёти; ривоятлар, мақоллар, маталлар ва масаллар; иккинчиси – махсус ижодкор кишилар (ҳатто, хукмдорлар) муайян шахсга бағишлаб ёзган ўғитнасиҳат ва ҳикоялар, учинчиси - қомусий, ўрта Осиё мутафаккирларининг илмий-назарий қарашлари; тўртинчиси - турли даврларда ижод қилган шоир ва ёзувчилар ижодининг маҳсуллари, яъни бадий асарлардир Абу Наср Форобийнинг инсон ва унинг психикаси ҳақидаги ахлоқий-фалсафий мушоҳадалари “Идеал шаҳар аҳолисининг фикрлари”, “Масалалар моҳияти”, “Фалсафий саволлар ва уларга жавоблар”, “Жисм ва акциденцияларнинг шаклларига қараб бўлиниши”, “Шарҳлардан”, “Хикмат маънолари”, “Ақл маънолари тўғрисида” каби қатор асарларида баён этилган. Абу Райҳон Беруний ўзининг “ўтмиш ёдгорликлари” китобида инсон ҳаётига доир хилмахил маълумотларни келтиради. Шу жумладан, олим кишиларнинг жисмоний тузилиши, умрларнинг узун-қисқалиги тўғрисида билдирган мулоҳазалар диққатга сазовордир. Беруний одам узоқ вақт яшашининг сабабини биологик ва ирсий омиллар билан боғлайди. Бу жиҳатдан унинг

“Ҳиндистон”, “Минералогия” асарлари, Ибн Сино билан ёзишмалари алоҳида аҳамиятга эга. Юсуф Хос Хожиб ижодининг бош масалаларидан бири-комил инсонни тарбиялашдир. Адиб ўз асарларида энг комил, жамиятнинг ўша даврдаги талабларига жавоб бера оладиган инсонни қандай тасаввур қилган бўлса, шу асосда у ўз тамойилларини изчил баён этади. «кутадғу билиг»

(«Саодат йўлловчи») асари таълим ва тарбия, маънавий камолотнинг йўлйўриқларини, усулларини, чора тадбирларини ўзида мужассам- лаштирган, ахлоқ ва одобга доир маънавий манбадир. Абдурахмон Жомийнинг «Бахористон», «Хирондномаи Искандари», «Тухфатул ахрор» ва бошқа асарларида илм-маърифат, таълим-тарбия, касбхунар ўрганиш, инсон ижобий фазилатлари ҳақидаги фикрлари ифодаланган. Алишер Навоийнинг «Ҳазойинул маоний», «Махбубул-қулуб» ва бошқа шу сингари асарларида, етук, баркамол инсоннинг ахлоқи, маънавияти, ўзгаларга муносабати, истеъдоди ва қобилияти тўғрисида қимматли мулоҳазалар юритилган. Ана шу психологик мезонлар ижтимоий адолатнинг қарор топиши учун муҳим аҳамиятга эга экани таъкидланган. Шунингдек, Навоий асарларида ёш авлодни баркамол инсон сифатида шаклланишида ота-онанинг роли, аёлларнинг ифбатлилиги, кишиларнинг камтарлиги ҳақидаги фикр-мулоҳазалари алоҳида ўрин эгаллайди. Навоий «Ҳамса»сида инсонпарварлик туйғулари, ижодий ҳаёлот, инсоннинг мураккаб ички кечинмалари моҳирона ёритилган. Шунингдек, бу борада Махмуд

қошғарий, Улуғбек, Нақшбандий, Огаҳий сингари буюк шарқ мутафаккирларининг ёшлар тарбиясига, ўқитувчи, тарбиячининг жамиятдан ўрни, ахлоқ-одоб, феъл-атвор, оилавий ҳаёт, кишилараро муносабатларга доир қарашлари уларнинг асарларида раво ва ихчам баён этилганлигини таъкидлаш мумкин. 2.Хориж психологларининг даврлаштириш муаммосига доир қарашлари Илмий психологик адабиётларда қайд этилишига кўра ёш даврлари психологияси фани 19-асрнинг бошларида вужудга келган, лекин дастлабки илдизи қадимги Юнон маданиятига бориб тақалади. Унинг предмети ва қонуниятлари тўғрисида жаҳон психологияси оламида турли қарашлар ва назариялар мавжуд. Уларнинг жуда кенг тарқалганлари биогенетик (В.Штерн), социогенетик (К.Левин) бихевиористик (Е.Торндайк) психоаналитик (З.Фрейд) назарияларидир. АҚШлик психолог Дж. Брунер (1915) шахснинг таркиб топиши билан таълим ўртасида иккиёқлама алоқа мавжудлигини айтиб, инсоннинг камолот сари интилиши билан билим олиш самарадорлигини оширса, ўқитишнинг такомиллашуви унинг ижтимоийлашуви жараёнини тезлаштиради, деб уқтиради. Шу тариқа ёш психологияси фани қатор ривожланиш босқичларидан ўтиб, бугунги даражасига эришди. Унинг ривожланишига ўрта Осиё алломалари, рус ва чет эл психологлари муносиб ҳиссаларини қўшдилар. Юқорида айтилган назариялар, амалий ва илмий маълумотлар, тадқиқотчилар яратган методикаларнинг ўз аҳамиятини сақлаб келмоқда. Психология фанида ёш

даврларини табақалаш бўйича қатор мустақил назариялар мавжуд, улар инсон шахсини тадқиқ қилишга ҳар хил нуқтаи назардан ёндашади ва муаммонинг моҳияти турлича ёритилади. Уларга биогенетик, социогенетик, психогенетик, когнитивистик, психо-аналитик, бихевиористик назарияларни киритиш мумкин. Биогенетик назарияда инсоннинг биологик етилиши бош омил сифатида қабул қилинган, қолган жараёнларнинг ривожланиши ихтиёрий бўлиб, ана шу омил билан ўзаро боғлиқдир. Мазкур назарияга биноан, ривожлантириш бош мақсади биологик детерминантларга (аниқловчиларга) қаратилади ва улардан ижтимоий-психологик хусусиятлар келиб чиқади. Ривожланиш жараёнининг ўзи, даставвал биологик универсал босқич сифатида талқин қилинади. Биогенетик назарияда инсоннинг биологик етилиши бош омил сифатида қабул қилинган, қолган жараёнларнинг ривожланиши ихтиёрий бўлиб, ана шу омил билан ўзаро боғлиқдир. Мазкур назарияга биноан, ривожлантириш бош мақсади биологик детерминантларга (аниқловчиларга) қаратилади ва улардан ижтимоий-психологик хусусиятлар келиб чиқади. Ривожланиш жараёнининг ўзи, даставвал биологик универсал босқич сифатида талқин қилинади. Биогенетик қонун Ф.Мюллер ва Э.Геккел кашф қилган. Биогенетик қонун органнинг ривожланиши назариясини ташвиқ қилишда ҳамда антидарвинчиларга қарши курашда муайян даражада тарихий роль ўйнаган. Бироқ унда органнинг индивидуал ва тарихий ривожланиши муносабатларини тушунтиришда кўпол хатоларга йўл қўйилган. Жумладан, биогенетик қонунларга кўра, шахс психологиясининг индивидуал ривожланиши (онтогенез) бутун инсониятнинг тарихий ривожининг (филогенез) асосий босқичларини қисқача такрорлайди. Биогенетик қонун Ф.Мюллер ва Э.Геккел кашф қилган. Биогенетик қонун органнинг ривожланиши назариясини ташвиқ қилишда ҳамда антидарвинчиларга қарши курашда муайян даражада тарихий роль ўйнаган. Бироқ унда органнинг индивидуал ва тарихий ривожланиши муносабатларини тушунтиришда кўпол хатоларга йўл қўйилган. Жумладан, биогенетик қонунларга кўра, шахс психологиясининг индивидуал ривожланиши (онтогенез) бутун инсониятнинг тарихий ривожининг (филогенез) асосий босқичларини қисқача такрорлайди. Биогенетик назариянинг қарама-қарши кўриниши социогенетик назариядир. Бу назарияда шахсда рўй берадиган ўзгаришларни жамиятнинг структураси, ижтимоийлашиш (социализация) усуллари, атрофдаги одамлар билан ўзаро муносабат воситалари асосида тушунтирилади. Ижтимоийлашиш назариясига кўра инсон биологик тур сифатида туғилиб, ҳаётдаги ижтимоий шарт-шароитларнинг бевосита таъсири остида шахсга айланади. Ғарбнинг энг муҳим назарияларидан бири – роллар назариясидир. Бу назарияга кўра жамият ўзининг ҳар бир аъзосига статус (ҳақ-ҳуқуқ) деб номланган хаттихаракатнинг барқарор усуллари мажмуасини яратади. Инсон ижтимоий муҳитда бажариши шарт бўлган махсус роллар унинг хулқ-атворида, бошқалар билан муносабатида сезиларли из қолдиради. АҚШда

индивидуал тажриба ва билимларни ўзлаштириш (кўникиш) назарияси кенг тарқалган. Мазкур назарияга биноан, шахснинг ҳаёти ва воқеликка муносабати, кўникмаларни эгаллаши ва билимларни ўзлаштириши кўзғатувчининг барқарорлигига боғлиқдир. К.Левин тавсия қилган “фазовий зарурат майдони” назарияси ўз даврида муҳим аҳамият касб этган. К.Левин назариясига кўра шахснинг хулқи (хаттихаракати) психологик куч вазифасини ўтовчи иштиёқ (интилиш), мақсад (ният) билан бошқарилиб турилади, бу кучли фазовий зарурат майдоннинг кўлами ва таянч нуқтасига йўналган бўладилар. Юқорида ифодаланган ҳар бир назария шахснинг ижтимоий хулқини ўзгалар учун ёпиқ ва махфий мухитнинг хуссиятларидан келиб чиққан холда тушунтиради, бунда у одам хоҳшини ёки хохламаслигидан қаътий назар, мазкур шароитга мосланмоғи (кўникмоғи) зарур, деган қоидага амал қилади. Психологияда психологик ёндашиш ҳам мавжуд бўлиб, у биогенетик ва социогентик омилларнинг қимматини камситмайди, балки психик жараёнларнинг ривожланиши биринчи даражали аҳамиятга эга деб ҳисоблайди. Мазкур ёндашишни учта мустақил йўналишга ажратиб таҳлил қилиш мумкин ва бу йўналишлар ўз моҳияти, кечиши ва маҳсули жихатидан кескин фарқланади.

3. Рус психологларининг тадқиқотларида даврлаштириш муаммо Рус психологиясидаги ёш даврларини табақалаш муаммоси дастлаб Л.С.Виготский, П.П.Блонский, Б.Г.Ананьев сингари йирик психологларнинг асарларида ўз аксини топа бошлаган. Кейинчалик бу муаммо билан шуғулланувчилар сафи кенгайиб борди, шу боисдан табақаланиш келиб чиқиши, илмий манбаи, ривожланиш жараёнларига ёндашилиши нуқтаи назаридан ўзаро кескин фарқланади. ҳозир ёш даврларини табақалаш юзасидан мулоҳаза юритишда олимларнинг илмий қарашларин муайян гуруҳларга ажратиш ва уларнинг моҳиятини очиш мақсадга мувофиқдир. Л.С.Виготский психологларнинг ёш даврларини табақалаш назарияларини танқидий таҳлил қилиб, муайян ривожланишни вужудга келтирувчи руҳий янгиланишларга таяниб ёш даврларин қўйидаги босқичларга ажратади:

- Чақалоқлик даври инқирози.
- Гўдақлик даври – 2 ойликдан 1 ёшгача. Бир ёшдаги инқироз.
- Илк болалик даври – 1 ёшдан 3 ёшгача. 3 ёшдаги инқироз.
- Мактабгача давр – 3 ёшдан 7 ёшгача. 7 ёшдаги инқироз.
- Мактаб ёши даври – 8 ёшдан 12 ёшгача. 13 ёшдаги инқироз.
- Пубертат (жинсий етилиш) даври – 14 ёшдан 18 ёшгача. 17 ёшдаги инқироз.

Л.С.Виготский шогирди Л.И.Божович инсоннинг камол топишини ёш даврларига бўлишда мотивларни асос қилиб олиди, шунинг учун бу бўлишни мотивацион ёндашиш, деб аташ мумкин. Л.И.Божовичнинг мулоҳазасига кўра ёш даврлари қўйидаги босқичлардан иборат:

- Биринчи босқич – чақалоқлик; туғилгандан 1 ёшгача;
- иккинчи босқич – мотивацион тасаввур; 1 ёшдан 3 ёшгача;
- учинчи босқич – “мен” ни англаш даври; 3 ёшдан 7 ёшгача;
- тўртинчи босқич – ижтимоий жонзотликни англаш даври; 7 ёшдан 13 ёшгача;
- бешинчи босқич – а) ўз-ўзини англаш даври; 12 ёшдан 14 ёшгача; б) ўз ўрнини белгилаш (топиш) даври; 15

ёшдан 17 ёшгача. • Л.И.Божович ҳар бир босқични психологик тавсиялашда унда намоён бўладиган ўзгаришларни, бу ўзгаришларнинг сабаблари, омиллари, манбалари, турткилари, механизмларини ҳам баён қилади. Д.Б.Элькониннинг таснифи етакчи фаолият (А.Н.Леонтьев) назариясига, ҳар қайси ривожланиш палласида фаолиятнинг бирор устунлик қилиши мумкинлигига асосланади. Етакчи фаолиятнинг инсон шахс сифатида камол топишидаги роли назариянинг негизини ташкил қилади. Д.Б.Эльконин ёш давларини қуйидаги босқичларга ажратишни лозим топади: • гўдаклик даври – туғилгандан 1 ёшгача; асосий фаолият – бевосита эмоционал мулоқат; • илк болалик даври – 1 ёшдан 3 ёшгача; асосий фаолият – предмет билан нозик ҳаракатлар қилишмактабгача давр – 3 ёшдан 7 ёшгача; асосий фаолият – ролли ўйинлар; • кичик мактаб ёши даври – 7 ёшдан 10 ёшгача; асосий фаолият – ўқиш. • Кичик ўсмирлик даври – 10 ёшдан 15 ёшгача; асосий фаолият – шахснинг интим мулоқоти; • Катта ўсмирлик ёши ёки илк ўспиринлик даври – 17 ёшдан 17 ёшгача; асосий фаолият – ўқиш, касб танлаш. 4. Д.Б.Эльконин таснифини, кўпчилик психологлар маъқуллашишига қарамай, унда айрим мунозарали жиҳатлар ҳам бор. Умуман эса Д.Б.Элькониннинг мазкур назарияси психология фанида, айниқса ёш давлари психологиясида муҳим ўрин

тутади Л.С.Виготский (1896-1934) энг машҳур рус психологи ва файласуфларидан биридир. Олим уз илмий қарашларида илгари сурган кўплаб ғоялар бевосита болаларнинг психик тараққиётига оиддир. Л.С.Виготскийнинг олий психик функциялар шаклланиши ҳақидаги қонуни болалар тарбияси ва таълимини амалга оширишда катта аҳамиятга эга. Психолог илмий қизиқишларининг марказида боланинг ижтимоий-маданий тараққиёти масаласи туради. Л.С.Виготскийнинг изланишлари олий психик функциялар, яъни ихтиёрий хотира ва диққат, тафаккур, иродавий ҳаракатларни бевосита мианинг фаолияти билан тушунтириб бўлмаслигини, ушбу функцияларнинг моҳиятини тушуниш учун уларнинг илдизларини организмдан ташқаридаги ижтимоий муҳитдан излаш лозимлигини кўрсатди. Айнан Л.С.Виготскийнинг илмий қарашлари ижтимоий муҳит аҳамиятини аниқлаштиришда муҳим пойдевор бўлиб

хизмат қилади. Л.С.Виготскийнинг изланишлари олий психик функциялар, яъни ихтиёрий хотира ва диққат, тафаккур, иродавий ҳаракатларни бевосита мианинг фаолияти билан тушунтириб бўлмаслигини, ушбу функцияларнинг моҳиятини тушуниш учун уларнинг илдизларини организмдан ташқаридаги ижтимоий муҳитдан излаш лозимлигини кўрсатди. Айнан Л.С.Виготскийнинг илмий қарашлари ижтимоий муҳит аҳамиятини аниқлаштиришда муҳим пойдевор бўлиб хизмат қилади. Л.С.Виготский уз концепциясида бола психик тараққиётининг 4 асосий қонунининг таърифлаб берди. Бу қонунлар қуйидагилардан иборат: 1. Бола тараққиёт ритмларининг фарқланиш. Бу қонунга кўра боланинг ривожланиши ўз суръатларига эга, бу суръатлар вақт ритмига тўғри келмайди. Шунинг учун чақалоқликдаги ҳаётининг 1 йили ўсмирликдаги 1

йилга тенг бўлмайди; 2. Бола тараққиётидаги метаморфоза қонуни. Бу қонунга кўра ривожланиш сифат ўзгаришларининг занжиридан иборат. Бола камроқ биладиган, кўлидан камроқ нарса келадиган одам эмас, балки психикаси сифат жиҳатидан катталар психикасидан фарқланувчи мавжудотдир; 3. Бола тараққиётининг нотекислик қонуни. Бу қонунга кўра, бола психикасининг ҳар бир томони ўз тараққиётининг оптимал даврига эга бўлади, ҳар хил психик функциялар нотекис, нопропорционал ривожланади. 4. Олий психик функцияларнинг шаклланиш қонуни. Бу қонунга кўра, ҳар қандай олий психик функция аввал боланинг атрофдагилар билан бўлган муносабатида намоён бўлади, кейинчалик, у индивидуал соҳага кучади. Шунингдек, Л.С.Виготскийнинг таъкидлашича, бола тараққиётида барқарор даврлар инқирозли даврлар билан алмашади. Инқирозлар икки ёш даври туташган жойда, бола психикаси ва ҳулқ атворидаги эски хусусиятларнинг йўқолиб, янгилари шаклланиши даврида рўй беради. Демак, Л.С.Виготский психологияда маданий-тарихий ёндашувга асос солган. - А.Н.Леонтьев (1903-1979) - машҳур рус психологияда фаолият назариясининг асосчиларидан бири. Фаолият назарияси онг ва фаолият бирлиги тамойили билан боғлиқ. Ушбу назарияга кўра, фаолият субъектнинг предметли олам билан бўлган таъсирлашиш жараёни бўлиб, бу жараён унга ўз эҳтиёжларини қондириши учун имконият беради. Фаолият - бу фаол мақсадга йўналтирилган жараёндир. Предметлилик фаолият билан боғлиқ эҳтиёж - индивиддан ташқарида бўлган, аммо индивид нормал ҳаёт кечириши шахснинг ривожланиши учун керак булган нарсаларга нисбатан заруратни ҳис этиш ҳолати. - В.Н.Мясищев (1892-1973)-рус психологи, шахс муносабатлари концепциясининг ижодкори. Мазкур концепцияга кўра, шахснинг асосини унинг атроф оламга ва ўз-ўзига бўлган муносабатлар тизими ташкил этади.

Муносабатлар тизими инсон онгида атроф воқеликнинг акс эттирилиши натижасида пайдо бўлади, унинг ўзи ҳам воқеликни акс эттиришнинг шакллари билан бирдир. В.Н.Мясищев инсоннинг ривожланишида фаолиятнинг ролини камситмаган ҳолда одамлар ўртасида ҳамкорлик, ўзаро ёрдамни талаб қилувчи муносабатлар таркиб топмаган тақдирда фаолиятнинг ўзи асосий психик сифатларининг шаклланишида нейтрал жараён бўлиб қолиши мумкин, деган хулосага келади. Психологлар ўртасидаги баҳсмунозаралар натижасида шу нарса маълум бўлдики, муносабатни фаолият ёки ҳаракат сифатида талқин этиб бўлмайди, ҳатто, муносабат кўп жиҳатдан ҳаракатга тесқаридир. - Биринчидан, муносабат мақсадга эга бўлмайди ва у ихтиёрий бўлиши мумкин эмас; иккинчидан, муносабат жараён эмас, у фазо ва вақтга чегараланмаган; учинчидан, муносабат махсус ташқи маданий воситалар билан амалга оширилмайди, у умумлашмашаклда ўзлаштирилиши мумкин эмас. Муносабат ҳар доим индивидуалдир. Бироқ муносабат ҳаракат билан чамбарчас боғлиқдир. У ҳаракатни келтириб чиқаради, ўзи ҳам ҳаракат давомида шаклланиши ва

ўзгариши мумкин. Муносабат ҳаракат манбаи ҳам, натижаси ҳам бўлиши мумкин, аммо бўлмаслиги ҳам мумкин. Чунки муносабат ҳар доим ҳам ташқи фаолликда намоён булмайди. Қолаверса, инсон айна дамда ёки умуман мавжуд бўлмаган фақат унинг ўз онгида мавжуд нарсаларга ҳам қандайдир муносабатда бўлиши мумкин.

Назорат саволлари

1.Марказий Осиё мутафаккирларининг ёш даврлар психологияси мавзусига доир қарашлари. 2.Ибн Синонинг “Одоб ҳақида” рисоласида психик тараққиёт баён қилганлигини изоҳланг.

3. Абу Наср Форобийнинг“Идеал шаҳар аҳолисининг фикрлари”асарида инсон ва унинг психикаси ҳақидаги ахлоқий-фалсафий мушоҳадалари баён этилган.

4. Биогенетик назарияда инсоннинг биологик етилиши бош омил сифатида қабул қилинган.

5.Социогенетик назарияда шахсда рўй берадиган ўзгаришларни жамиятнинг структураси, ижтимоийлашиш (социализация) усуллари, атрофдаги одамлар билан ўзаро муносабат воситалари асосида тушунтирилади.

6. Гўдаклик даври – туғилгандан 1 ёшгача; асосий фаолият – бевосита эмоционал мулоқат.

7. Кичик ўсмирлик даври – 10 ёшдан 15 ёшгача; асосий фаолият – шахснинг интим мулоқоти.

8.В.Н.Мясищев рус психологи, шахс муносабатлари концепциясининг ижодкори.

Адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Т, «Ўзбекистон» 1997 й

2. Каримов И.А.Юксак маънавият –енгилмас куч.Тошкент, Маънавият 2008.

3. Шавкат Мирзиёев “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биркаликда барпо этамиз.” Тошкент “Ўзбекистон” 2016 йил.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимга бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқи.Шавкат Мирзиёев “Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови” 2016 йил 7 декабр .Тошкент,

5. Шербаков А.И. Ёш психологияси ва педагогик психология Т.: 1991 й

6. Давлетшин М.Г., Тўйчиева С.М. Умумий психология Т.: 2002 й
7. Тўйчиева С.М.«Мактаб битирувчиларининг маънавий қиёфаси» Тошкент,2000 й
8. Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма.Тошкент,2004..
9. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология:дарслик.1-2-китоб. Тошкент, 2002.
10. Ғозиев Э.Ғ. “Онтогенез психологияси” “Ворис”, Тошкент.2006.
11. Ғозиев Э.Ғ. “Умумий психологияси” дарслик “Университет”, 2006
12. Нишонова.З, Курбонова.З, Абдиев.Ф ”Психодиагностика ва экспериментал психология” “Тафаккур бўстони”. 2011.
13. Умаров.Б “Психология” дарслик “Ворис”, 2012

Электрон таълим ресурслари

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psychology.all.ru
3. www.psychology.net.ru
4. www.psy.piter.com

3- Мавзу: Ёш даврлар психологиясининг илмий тадқиқот методлари.

Режа:

1. Ёш даврлар психологиясида қўлланиладиган методлар.
2. Ёш даврлар психологиясида психологик қонуниятларни текшириш
3. Сухбат методи ва бошқа ёрдамчи методлар.
4. Социометрия методи

Таянч сўз ва иборалар:

Ёш даврлари, ёш босқичлари, онтогенез, филогенез, ёш ўсиши, метод, методика, ташкилий, эмперик, натижаларни қайта ишлаш, кузатиш, тест,анкета, биография,социометрия методи.ёш даврларини табақалаш, шахс тараққиётининг даврларга бўлиниши.

Назорат саволлари

1. Ёш даврлар психологиясида психологик қонуниятларни текшириш қандай босқичларда олиб борилади.
2. Ёш даврлар психологиясининг махсус методлари қайсилар.
3. Психик ривожланишнинг умумий тенденциялари, қонуниятларига нималар киради.
4. Психик тараққиётда табиий хусусиятларнинг ўрни қандай.
5. Шахс тараққиёти қандай даврларга бўлинади.
6. Ёш даврлар инқирозлари.

7. Ақлий қобилиятнинг ёшга боғлиқ холда ўзгариши.

Адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Т, «Ўзбекистон» 1997 й
2. Каримов И.А. Юксак маънавият –енгилмас куч. Тошкент, Маънавият 2008.
3. Шавкат Мирзиёев “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биркаликда барпо этамиз.” Тошкент “Ўзбекистон” 2016 йил.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимга бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. Шавкат Мирзиёев “Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови” 2016 йил 7 декабр. Тошкент,
5. Шербаков А.И. Ёш психологияси ва педагогик психология Т.: 1991 й
6. Давлетшин М.Г., Тўйчиева С.М. Умумий психология Т.: 2002 й
7. Тўйчиева С.М. «Мактаб битирувчиларининг маънавий қиёфаси» Тошкент, 2000 й
8. Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма. Тошкент, 2004..
9. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология: дарслик. 1-2-китоб. Тошкент, 2002.
10. Ғозиев Э.Ғ. “Онтогенез психологияси” “Ворис”, Тошкент. 2006.
11. Ғозиев Э.Ғ. “Умумий психологияси” дарслик “Университет”, 2006
12. Нишонова.З, Қурбонова.З, Абдиев.Ф ”Психодиагностика ва экспериментал психология” “Тафаккур бўстони”. 2011.
13. Умаров.Б “Психология” дарслик “Ворис”, 2012

Электрон таълим ресурслари

1. www.expert.psychology.ru

2. www.psychology.all.ru

3. www.psychology.net.ru

4. www.psy.piter.com

4 mavzu. Психик ривожланиш ва таълим. Ёш даврларини табақалаш муаммолари.

Reja:

1. Психик ривожланиш ва таълим.
2. Ёш даврларини табақалаш муаммолари.
3. Шахс тараққиётининг даврларга бўлиниши.

Шахс бу ижтимоий муносабатлар йиғиндиси, яъни индивид сифатида туғилган бола ўз атрофидаги кишиларнинг муносабатлари таъсирида ва ўзини англаш жараёнида шахсга айланади. Юсуф Ҳос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг» асаридаги бош масалалардан бири комил инсонни тарбиялашдир. А.Жомийнинг «Бахористон», «Тухфатул ахрор» ва бошқа асарларида илм, маърифат, таълим-тарбия, касб-хунар ўрганиш ҳақидаги фикрлар ифодаланган. А.Навоийнинг «Хазойинулмаоний», «Махбуб-ул қулуб», ва бошқа асарларида етук, баркамол инсоннинг ахлоқи, қобилияти тўғрисида қимматли мулохазалар юритилган. Юқоридагилардан ташқари Бобур, Фарғоний, Машраб, Гулханий, Нодира, Увайсий, Мукумий, Фурқат, Бедил, Завқий, Ҳамза, Авлоний ва бошқаларнинг ёшлар тарбиясига, феъл-атвор, оилавий ҳаёт масалаларига, шахслараро муносабатларга доир қарашлари ҳам турли жанрлардаги асарларида баён қилинган. Муаммоли савол: Психологияда ривожланиш муаммоси қандай талқин этилади? Таълим-тарбия ишларининг усуллари, воситалари ва ташкилий формаларини ишлаб чиқиш ҳамда педагогик жараённи бошқаришнинг самарадорлиги ривожланиш масаласини ҳал қилиш билан боғлиқдир. Бу инсон психикаси ривожланишида бир томондан табиий, биологик, туғма хусусиятлар ўзаро муносабати муаммоси ривожланишидан ҳамда ташқи ва ички омилларнинг (ирсият ва муҳит) роли ва уларнинг ўзаро муносабати муаммосидан иборат. Одамда туғма равишда ташкил топган хусусиятлар кўриш, эшитиш

сезгиларининг айрим хусусиятлари билан бир қаторда ҳаёт шароитлари ва

фаолиятларининг таълим тарбия таъсири остида ташкил топган ахлоқий сифатлар

мавжуддир. Психологиянинг айрим намоёндалари психик хусусиятлар туғма пайдо бўлади, бола туғилмасдан шаклланади деган позицияда туради.

Англиялик генетик Ш.Аурэбах «Ҳар бир одам худди картабоз қўлига карта олиб ўйнагани каби ўз ҳаётини қўлига генларни олиб бошлайди» дейди. Унинг фикрича «Ақлий тараққиёт даражаси махсус қобилият, шахсий сифатлар буларнинг ҳаммаси генетик факторлар билан муҳит факторлари ўзаро муносабатининг натижасидан иботардир» деган фикрни илгари суради. Австралиялик психолог К.Бюлер - “Болаларнинг фақат ақлий тараққиётигина эмас балки ахлоқий тараққиёти ҳам наслий томонидан белгилангандир” деб таъкидлайди. З.Фрейд ва унинг издошлари инсон фаолиятини бошқарувчи инстинктларни туғма

бўлган ва социал таъсиротга боғлиқ бўлмаган дастлабки онгсиз эҳтиёжларни ҳамда майлларни шахс тараққиётини ҳаракатга келтирувчи кучлар деб билган. Америкалик психолог ва педагог Д.Дьюи инсон табиатини ўзгартириб бўлмайди деб ҳисоблаган. Унинг фикрига кўра ирсият табиатни белгилайди. Айрим психологларнинг фикрига кўра муҳит, таълим тарбия табиат томонидан яратилган хусусиятларнинг намаён бўлиши ва ўз ўзича ривожланиши учун зарур бўлган шароитгина холос. Улар психик тараққиётда наслий факторларнинг ҳал қилувчи рольни бор деган фикрни асослашга интилади. Психологлар В.Н. Колбоновский, А.Р. Лурия, А.Н. Мироновлар тажрибаси бошқа аҳволни кўрсатади. Яъни бир тухумдан бўлган эгизаклардан бир хил табиий шароитда, таълим методларига қараб, ижодий (яъни комбинаторлик) фаолиятининг айрим турларида мутлақо ҳар-хил натижаларни олиш мумкин. Француз психологи Р.Заззо бир тухумдан бўлган эгизаклар устида шунга ўхшаш тажрибалар ўтказиб, психика хусусиятларнинг туғма характери назариясига қаттиқ зарба берди. Психологлар ва педагоглар ихтиёрида бўлган жуда кўп фактлар ҳар иккала йўналишнинг ҳам чекланган ва бир ёқламалигини кўрсатади. Одамнинг генетик хусусиятлари бир маънода унинг психик хусусиятларини белгилайди деб ҳисоблаш хатодир. Аммо бунинг тескариси ҳам яъни психик тараққиётнинг табиий имкониятларидаги индивидуал фарқларни батамом инкор қилиш ва одамлардаги ғоят хилма-хил барча индивидуал психологик хусусиятларни фақат

ташқи таъсиротлар натижасидир, дейиши ҳам нотўғридир. Шундай қилиб ҳар бир айрим кишининг тараққиёти (туғилгандан бошлаб) организмнинг ўсишига боғлиқ ҳолда муҳит, таълим ва тарбиянинг таъсирида, фаол шахсий фаолият натижасида амалга ошади. Инсон ақлий хусусиятлари, иродаси шу йўсинда ривожланади. Шахснинг индивидуал хусусиятлари темперамент, характер, қобилиятлар ва қизиқишлар шу тариқа шаклланади ва тараққий этади. Маммоли савол: Психик ривожланиши шароитлари ва уни ҳаракатга келтирувчи

кучлар нималардан иборат? Психик тараққиётни ҳаракатга келтирувчи кучлар ҳақида сўз кетганда, аввало асосий омилни белгилаб олиш лозим бўлади. Аммо психик тараққиётни таъминловчи омил ягона эмаслигини, улар бир нечта эканлигини, шунингдек бу омиллар ўзаро узвий боғлиқликда мавжудлиги каби фактларни англаб етиш керак бўлади. Психик тараққиётни ҳаракатга келтирувчи кучлар сифатида қуйидаги омилларни эътироф этиш мумкин; ирсий омиллар, ижтимоий омиллар, мақсадга йўналтирилган таълим-тарбия, шахсий фаоллик. Уларнинг ҳар бири алоҳида бир олам бўлишига қарамасдан тараққиётни ўзаро ҳамкорликда таъминлайди. Масалан, агар таълим фаолияти аниқ мақсад асосида амалга оширилиши учун шарт-шароит тўлиқ бўлса-ю, аммо ўқувчида шахсий фаоллик етарли даражада шаклланган бўлмаса у ҳолда психик тараққиётда муаммо вужуда келади ва уни зудлик билан тўғрилаш зарурати

қужудга келади. Психик тараққиёт шароитлари ва психик тараққиётни

харакатга келтирувчи кучлар ҳақидаги масалани тўғри ҳал қилишга шахс тараққиёти ҳақидаги таълимот ёрдам беради. Шахснинг моҳияти ўз табиатидан ижтимоий характерга эгадир. Шахсдаги барча психик хусусиятларнинг, ижодий фаоллигининг ривожланиши манбалари унинг теварак-атрофидаги ижтимоий муҳитга боғлиқ ҳисобланади. Инсон шахси детерминлашган бўлиб, унинг ижтимоий турмуши билан белгиланади. Мана шу маънода шахснинг тараққиёти одамлар билан муносабатида юзага келадиган ижтимоий тажрибани эгаллаш жараёнидан иборатдир деган хулоса чиқариш мумкин. Бунинг натижасида инсоннинг психик хусусиятлари, характери, иродавий хислатлари, қизиқишлари, майллари ва қобилиятлари таркиб топади. Юқорида баён этилганларга асосланиб психологияда одамнинг психик хусусиятлари унинг ҳаёти давомида яъни онтегенетик тарзда юзага келади деган хулосага келинган. Бу хусусиятларнинг таркиб топиши ва ривожланишида одамнинг ижтимоий тажрибаси унинг ҳаёти ва фаолияти шароитлари, таълим тарбия етакчи, ҳал қилувчи рольга ўйнайди деб ўргатади. Муҳит, маълум мақсадга қаратилган таълим ва тарбия азалдан берилган генетик жихатдан қатъий белгиланган нарсадир. Муҳит психикани номаён қилиш учун шароитгина бўлиб қолмай, балки инсон психик хусусиятларини таркиб топтиради. Шунини алоҳида қайд қилиш лозимки жамият талабларига жавоб берадиган муайян шахсий сифатларни таркиб топтириш мақсадида катта авлоднинг ёш авлодга онгли, мақсадга мувофиқ таъсир кўрсатиш жараёни сифатида таълим ва тарбия ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир. Биринчидан, одам муҳит таъсири остидаги пассив объект бўлмай, балки фаол мавжудотдир. Шунинг учун ташқи ҳаёт таъсири инсон психикасини тўғридан тўғри белгиламайди, балки одамнинг муҳит билан бўлган ўзаро таъсири орқали, унинг муҳитдаги фаолияти орқали белгилайди. Иккинчидан, психиканинг ривожланиш оқибати, натижаси ташқи шароитларга боғлиқдир. Лекин бу ривожланишни бевосита ташқи шароитдан ва ташқи вазиятдан келтириб чиқариб бўлмайди. Бу шароитлар ҳамда вазиятлар ҳамини одамнинг ҳаётий тажрибаси унинг шахси индивидуал психологик хусусиятлари ва психик қиёфаси орқали таъсир қилади. Мана шу маънода индивид ўзига хос психикаси ва шахсий тажрибасини ўз ички муҳити хусусиятлари орқали билвосита таъсир қилади. Ўз даврида И.М. Сеченов одамнинг ҳатти-ҳаракатлари ташқи таассуротлар орқали детерминлашгани ҳақидаги тезисни илгари сурганида ташқи таассуротларни фақат муайян пайтда таъсир этиб турган мавжуд таассуротлар каби содда равишда тушунмасликни, балки аслини олганда мазкур одамнинг ҳаётий тажрибасида мужассамлашган барча аввалги таассуротлар йигиндисини назарда тутиш кераклигини уқтириб ўтган эди. Учинчидан, одам фаол мавжудот сифатида ўзи ҳам онгли равишда ўз шахсини ўзгартириши, яъни ўз-ўзини тарбиялаш жараёни теварак-атрофдаги муҳитдан ажралган ҳолда бормайди. Ўз-ўзини тарбиялаш муҳит билан мослашган ҳолда ва муҳит билан

фаол ўзаро муносабатда содир бўлади. Шунинг учун ўзини-ўзи тарбиялашда ҳам муҳитнинг таъсири кўриниб турибди. Келтирилган фикрлардан шундай хулоса чиқариш мумкинки, бир хил ташқи шароит, бир хил муҳит турли болаларга, ўсмирларга, йигит ва қизларга турлича таъсир кўрсатиши мумкин. Мактаб ўқувчиларининг психик тараққиёти қонунлари шунинг учун ҳам мураккабки, психик тараққиётнинг ўзи мураккаб ва қарама-қарши ўзгаришлардан иборат жараённинг омиллари, шу жумладан таълим ва тарбия шароитлари хилма-хил ва кўп қирралидир. . Охирида шундай хулоса чиқариш мумкинки, одамнинг ташкил топган ва системалаштирилган фаолияти унинг воситаси ҳамда шартидир.

Шу пайтгача одамга мавжудот сифатида қараб келинди, лекин одамнинг биологик моҳиятини инкор қилиб бўлмайди. Чунки одам бевосита табиий мавжудотдир. Ўз-ўзидан равшанки одамнинг психик ривожланиши учун табиий, биологик имкониятлар ниҳоятда зарурдир. Инсоннинг психик хусусиятлари нормал таркиб топиши учун муайян даражадаги биологик тузилишга эга бўлган инсон мияси, инсон нерв системаси бўлиши шарт. Инсоннинг табиий хусусиятлари психик ривожланишнинг ҳаракатга келтирувчи омиллар эмас, балки дастлабки шартларидир. Мия биологик тарзда ташкил топган орган сифатида онгнинг юзага келиши учун дастлабки шартдир. Онг эса инсон ижтимоий турмушининг маҳсулидир. Нерв системаси теварак-атрофдаги оламни акс эттириш учун дастлабки шартдир. Онг эса инсон ижтимоий турмушининг маҳсули бўлиб, жуда катта имкониятларига эга. Лекин тегишли қобилият фақат ижтимоий шароитдаги фаолиятда таркиб топади. Қобилият куртакларининг янги нерв системаси ва мияда баъзи бир туғма анатомик-физиологик хусусиятларининг мавжудлиги қобилиятларнинг ривожланиши учун зарур табиий шарт-шароитдир. Аммо шарт-шароитларнинг мавжудлиги ҳали қобилиятларнинг ривожланишини таъминламайди. Қобилиятлар ҳаёт ва фаолият шароитлари, одамга бериладиган таълим ва тарбия таъсири остида таркиб топади ва ривожланади. Муаммоли савол: Психик тараққиётда табиий хусусиятларнинг ўрни қандай? Табиий хусусиятлар тараққиётни ҳаракатга келтирувчи куч эмаслигига қарамай психик тараққиётга маълум даражада таъсир кўрсатади. Биринчидан, табиий хусусиятлар тараққиётнинг турли йўллари ва усуллари белгилаб беради. Инсон нерв системасининг хусусиятлари ўзўзича шахснинг ҳеч қандай психик хусусиятларини белгиламайди. Ҳеч бир нормал бола дадил ёки кўрқоқ, иродасиз, меҳнатсевар ёки интизомсиз бўлиб туғилмайди. Агарда тарбия тўғри ташкил қилинса, нерв системасининг исталган типи асосида характернинг барча ижтимоий қимматли хислатларини ҳосил қилиш мумкин. Масалан, сабот-матонат ва ўзини тута билиш хислатларини нерв системасининг типи шиддатли бўлган болаларда ҳам тарбиялаш лозим ва тарбияласа бўлади. Лекин биринчи ҳолдаги болаларни тарбиялаш иккинчи ҳолларни тарбиялашга қараганда қийинроқ бўлади. Ҳар иккала ҳолда керакли сифатларни тарбиялаш йўллари ва усуллари

ҳам турлича бўлади. Иккинчи табиий хусусиятлар одамнинг бирон бир соҳада эришган ютуқлари даражасига ҳам таъсир қилиши мумкин. Масалан, қобилият куртакларида туғма индивидуал фарқлар бўлади. Шу сабабли баъзи одамлар бошқа одамлардан маълум бир фаолият имконияти жиҳатидан устун туришлари ва шунинг билан бир пайтда бир фаолиятнинг турини эгаллаш имконияти жиҳатидан эса улардан олислик қилишлари мумкин. Масалан, ўзининг мусиқий қобилияти ривожланиши учун қулай табиий куртакка эга бўлган бола бошқа ҳамма шароитлар бир хил бўлишига қарамай мусиқий қобилиятини ривожлантириши учун табиий куртакка эга бўлмаган боладан нисбатан мусиқа соҳасида тез ривожланади ва нисбатан катта ютуқларга эришади. Мана шу маънода биз машҳур америкалик психолог Д.Брунернинг ҳар бир бола ўз тараққиётининг ҳар қандай материалларини тўла ўзлаштиришга қодирдир, - деган фикрлари билан ҳеч бир келиша олмаймиз. Бизнинг ўйлашимизча масалан, биринчи синф ўқувчисини қандай генеал педагог ва методистлар ўқитмасликлари етти ёшли боланинг мияси бошланғич дифференциал ва интеграл ҳисоблашларини ёки диалектик фалсафа асосларини билишга ҳали чиндан ҳам етилган эмас. Бироқ мия тузилишининг мавқеи маълум муҳитга, таълим тарбияга мутлақо боғланмаган ҳолда ўзининг қатхий асосида содир бўлади деб бўлмайди. Муҳит, таълим тарбия ва тегишли машқ мия тузилишининг органик жиҳатдан етилишини таъминлайди ва муҳитга, таълим-тарбияга мутлақо боғланмаган ҳолда ўзининг қатхий биологик жиҳатдан қонунлари асосида содир бўлади деб бўлмайди. Муаммоли савол: Психик ривожланишнинг умумий тенденциялари,

қонуниятларига нималар қиради? 1. Психик ривожланишнинг нотекислиги. Бу ҳар қандай шароитда ҳатто таълим-тарбиянинг энг қулай шароитларида ҳам шахснинг турли психик белгилари психик функциялари ва психик хусусиятлари ривожланишининг битта даражасида тухтаб турмайди. Болаларнинг ривожланишидаги айрим даврлардаги психиканинг у ёки бу йуналишларида ривожланиш учун ниҳоятда қулай шароит пайдо бўлади ва бу шароитларнинг баъзилари вақтинчалик ўткинчи характерда бўлади. Масалан мактабгача ёшда айникса нутқ, ўсмирликда, илк ўспиринликда мустақил таффакур жадал ривожланади. Психика интеграцияси- инсон психикаси ўз тараққиёти давомида тобора кўпроқ яхлитлик бирлик, мустаҳкамлик ва доимийлик хусусиятларини касб эта боради. Масалан: алоҳида предмет ва ходисаларни тўлиқ идрок қилиш асосида кузатувчанлик шаклланади. Психик ривожланишдаги пластиклик ва компенсация имконияти. Баъзи функциялари камчиликларини бошқа функциялар билан тулдириш. 6. Ёш даврларни табақалаш муаммолари - Бу саволга жавоб топиш инсон психик тараққиёти табиатини тушунишга боғлиқ. Бундай нуқтаи назарлардан бирида ёш даврининг ўзгармаслиги қайд этилади. Ёш ҳақидаги бундай тасаввур психика тараққиётини табиий биологик жараён сифатида тушуниш билан боғлиқ. Қарама қарши нуқтаи назарлардан бири ёш

тушунчаси умуман рад этилади. Бундай холларда тараққиёт билиш ва кўникмаларни тўплашдангина иборат деб қаралади. Ҳар бир ёш даври психик тараққиётнинг махсус босқичидир ва бола тараққиётининг маълум босқичида шахс структурасидаги ўзига хосликлар мажмуини ташкил этадиган ўзгаришлар тўплами билан характерланади. Л.С.Выготский ёшни тараққиётнинг маълум даври деб қараган. Унинг фикрича 1 ёш даврдан бошқасига ўтганда илгари ёш даврида мавжуд бўлмаган янги нарса пайдо бўлади, тараққиётнинг бориши ўзгаради ва қайта қурилади. Ёш хусусиятлари кўп шароитлар мажмуи билан белгиланади. Уларга ҳаётнинг маълум босқичида болага қўйиладиган талаблар системаси ҳам, муносабатлар ҳам, у эгаллайдиган фаолият ва билимлар типи ҳам бу билимларни ўзлаштириш усуллари ҳам киради. Ёшнинг хусусиятини белгилайдиган шароитлар мазмунига бола жисмоний тараққиётининг ҳар хил томонлари хусусиятлари ҳам киради. Шундай қилиб, ёш даври ҳаёт шароитлари ва тараққиётнинг маълум даврида болага қўйиладиган талаблар хусусиятлари ва унинг атрофдагилар билан муносабатлари, бола шахси психологик тузилишидаги тараққиёт даражаси билан унинг тафаккури ва билимлари тараққиёти даражаси

ҳамда маълум физиологик хусусиятлар мажмуи билан характерланади. Ёш даврини атрофдагиларга муносабат тараққиёт даражаси билан билимлар, усуллар, қобилият тараққиёти даражаси ўртасидаги алоқа белгилайди. Д.Б.Элькониннинг таъкидлашича, тараққиёт жараёнининг бу 2 турли томонлар ўртасидаги муносабатнинг ўзгариши кейинги ёш даврларда муҳим ички асосни ташкил этади. Масалан, гўдаклик даврида боланинг ташқи муҳит билан алоқаси унинг катталар билан муносабати орқали амалга оширилади. Бола худди шундай муносабатлар системаси сифатида маълум малакаларни эгаллайди. Унда тасаввурларнинг содда босқичлари шаклланади. Катталар билан мулоқат усуллари кенгайди, нутқи ривожланади ва бошқалар. Буларнинг бари боланинг мустақил ҳаракат қилиш имкониятларининг кенгайиши учун асос яратади. Сўнгра атрофдагилар билан муносабат усуллари ҳам ўзгаради. Бу эса психик тараққиётнинг кейинги бориши шароитини ўзгартиради. Бундай вазият ўсмирлик даврида ҳам вужудга келади. Бунда олдинги тараққиёт ютуқлари мажмуи бола ҳаёт шароитлари ўзгариши боланинг атрофдагилар билан муносабат усуллариининг ўзгаришига олиб келади. Психологлар томонидан ёш даврларнинг табақалашларнинг назарий масалалари ишлаб чиқилган. Улар онтогенетик қонуниятларни ёритишга катта ҳисса бўлиб қўшилади, амалий ва назарий муаммоларнинг ҳал қилишда кенг қўлланилмоқда. Кейинги йилларда болалар ва мактаб ўқувчиларининг жисмоний ва психик ривожланишида акселерация (лотинча - «тезланиш») ходисаси рўй бермоқда. Олимлар акселерация ходисасининг ҳам биологик ҳам ижтимоий сабабларини кўрсатмоқда. 1. Биологик сабаблари оз миқдордаги ионлашган нурларнинг ва радио тўлқинларининг таъсири қишлоқ хўжалиги ва медицинада ўсиш ва ривожланишни, стимуллаштирувчи биологик фаол моддаларнинг

қўлланилиши, инсон озукасида ҳайвон оқсил моддалари миқдорининг ошиши. 2. Ижтимоий сабаблари-ҳаёт типининг кучайиши, ҳаёт тонусининг ортиши, телевидения, радио, кино орқали боланинг ўсмирлик чоғидан бошлаб миясига йиғиладиган ғоя кўп миқдордаги информациялар, маълумот оқимининг таъсиридан иборатдир. Хозиргача балоғатга эришиш ва жинсий етилишнинг жадаллашиши тўғрисида бир бутун илмий назария мавжуд эмас. Шунинг учун ўсишдаги жадаллашиш, яъни акселерация бўйича ҳам муайян назария яратилмаган. Ана шу боисдан ҳар хил илмий асосдаги, бир-биридан фарқли эътирозли қатор назариялар пайдо бўлган. Қўйида психолог Э.Ғ.Ғозиев томонидан санаб ўтилган акселерация муаммосига оид қарашларни келтирамиз: Гелиоген назария. Ушбу назария 1936 йилда чет эл олимлари томонидан яратилган бўлиб, унинг асосий моҳияти акселерация ходисаси қуёш нурининг бевосита бевосита таъсири билан вужудга келади, деган ғоядан иборатдир. Бу ғоя тарафдорларининг фикрича, болалар кўп вақт офтобда бўлиши натижасида уларнинг ўсишида тезлашиш, яъни акселерация рўй беради, чунки қуёш нури организмни зарур элементлар, моддалар, озукалар билан таъминлайди. Аммо ҳозирги даврда акселерация ходисаси жанубий (қуёш нурлари сероб) мамлакатларда ҳам, шимолий географик кенгликка жойлашган мамлакатларда ҳам бир текис рўй бермоқда. Иккинчи томондан, шаҳар муҳитидаги қизлар ва ўғил болалар қишлоқ болаларига қараганда тезроқ вояга етиши кўринмоқда, ваҳоланки, қишлоқ одамлари қуёш нурида кўпроқ тобланадилар. Демак, ҳозирги даврда гелеоген назария зиддиятларга сабаб бўлмоқда. Умуман офтобда товланишни акселерация жараёнининг муҳим жиҳатларидан бири дейиш нотўғридир. Гетерозия назарияси. 19 аср охири 20 аср бошлардан буён ижтимоий ҳаётда, турмушда кескин ўзгаришлар содир бўлгани инсонлар ўртасидаги ижтимоий, диний, миллий, ирқий тафовутларнинг кескин камайишига олиб келди. Турли миллат вакилларининг аралаш никоҳга кира бошлагани бунга ёрқин мисолдир. Диний эътиқодлар, ирқий фарқлар, этник ва миллий хусусиятлар, характер, урф-одатлар ва хокозолар аралаш никоҳга ҳеч қандай тўсиқ бўлолмади. Ҳаёт тарзи ҳар хил мамлакатларнинг халқларига хос хусусиятлар ҳам аралаш никоҳни тўхтата олмади. Мазкур назарияга мувофиқ психик дунёдаги қайта қуришлар наслий белгилар кескин ўзгаришига сабаб бўлди, натижада фарзандларнинг ўсишида кучайиш, жадаллашиш, акселерация ходисаси вужудга келди. Бироқ мазкур муаммони илмий жиҳатдан атрофлича асослаб бериш учун юқорида таъкидланган омиллар етарли эмас. Урбанизация назарияси. Жамият ривожланишида шаҳарларнинг роли ортиши бу назарияга асос қилиб олинган. 19 асрнинг ўрталаридан бошлаб қишлоқ аҳолисининг шаҳарга кўчиши авж олди, яъни аҳоли орасида миграция ёки урбанизация ходисаси юзага келди. Шаҳарнинг турмуш тарзи, ўзига хос хусусиятлари, ахборот тармоқларининг кенглиги, маданият даражаси, фан-

техника, транспорт, маиший хизмат каби омиллар болаларнинг ақлий, ахлоқий, жинсий миҳатдан эртароқ вояга етиши учун зарур шарт-шароитларни яратди. Қишлоқ аҳолиси билан шаҳар аҳолиси яшаш муҳити ва турмуш шароитларининг яқинлашиши акселерация жараёнига ижобий таъсир кўрсатди, лекин бу омилнинг ўзи акселерациянинг сабаби бўла олмайди. Нутритив назария. Бу ғоянинг туб моҳияти шуки, ўсишдаги жадаллашиш одамларнинг овқатланиши яхшиланиши, истеъмол қилинаётган озуқаларда дармондорилар миқдорининг кўпайиши сабабли вужудга келган. Ёш хусусиятлари ёшнинг энг типик ва энг характерлик бўлган ҳамда ривожланишнинг умумий йўналишини кўрсатадиган умумий хусусиятлари сифатида мавжуддир. Ушбу ғоя намояндаларининг фикрича, В-6, В-12 дармондорилари ва фолиев кислотасини одамлар кўпроқ истеъмол қилиши мазкур ҳолат намоян бўлишининг асосий омили эмиш. Табиийки, инсон ўсишининг жадаллашувида дармондорилар маълум даражада ижобий таъсир этиши тутқиш, лекин мазкур омилларнинг ўзи акселерация учун муҳим ваягона омил бўла олмайди. Шунинг учун тиббиёт ходимлари гигиеначилар, биологлар, физиологлар психологларнинг айримлари бу ғояни қўллаб қувватдайди Нурланиш назарияси. Бу назария намояндаларининг фикрича, ер юзида рентген қурилмаларининг кўпайиши, атом, водород ва нейтрон бомбаларнинг портлаши натижасида инсонда радиоактив моддалар, радиация нурланиши даражасининг сезиларли даражада ортишига олиб келади. Ер куррасига тарқалган зарядлар билан инсон организмнинг нурланиши ўсишни кучайтиради, яъни акселерация жараёни юзага келади. Шунинг учун бу назариянинг ҳимоячилари турли хусусиятга эга бўлган нурларнинг аниқ дозаси организмга таъсир этиши, тарқалиши емирилишга сабаб бўлмаса, инсоннинг жисмоний ўсиши жадаллашиши учун имконият яратади деб ҳисоблайдилар. Медицинадан маълумки, меъеридан ортиқ рентген нуридан фойдаланиш ҳам организм учун зарарлидир. Ана шу мулоҳазага асосланиб организм айрим қисмларининг ривожланиши нурлар билан боғлиқ экан, деган хулоса чиқариш мумкин. Баъзи илмий манбаларда пайвандлаш учун қўлланиладиган апаратнинг ёғдуси ҳам, чакмоқдан тарқаладиган нур ҳам организмга ижобий таъсир этиши ҳақидаги маълумотлар келтирилади. Аммо муаммони мантиқан талқин этилганда том маънодаги акселерациянинг рўй бериши учун бундай омиллар бир зарра каби роль ўйнаши мумкин. Ижтимоий шароитнинг яхшиланиши назарияси. Инсонларнинг турмуш тарзи ва яшаш шароитларининг яхшиланиб бориши, ҳуқуқ ва эркинлик ҳақидаги билимларнинг ортиб бориши, тиббий-профилактик тадбирларнинг амалга оширилиши, истеъмол қилинадиган маҳсулотлар сифатининг ортиши, ота-онадан фарзандга наслий белгиларнинг бир текис ўтиши каби омиллар акселерация жараёнини тезлаштиради, деган фикр турли мамлакат олимлари тадқиқотларида кенг тарқалган. Уларнинг талқинича инсонлар турмуш шароитининг яхшиланиши, улар учун яратилаётган қулайликлар, имкониятларни

рўёбга чиқариш учун шартшароитларнинг мавжудлиги психик тараққиётнинг тезлашишига замин хозирлаши мумкин. Ушбу назарияда муаммони ёритишга атрофлича ёндошилганлиги яққол кўзга ташланади. Ҳақиқатдан ҳам кишилар учун ижтимоий шарт-шароитлар тўлиқ яратиб берилса, унинг таъсир кучи янада ортиши муқаррардир. Ижтимоий акселерация назарияси. Бу илмий назариянинг асосчиларидан бири, йирик физиолог олим А.А.Маркосяннинг таъкидлашича ҳозирги замон кишисида мавжуд билимлар, ва маълумотлар хажмини йигирманчи аср Таълим-тарбия шароитларида ўқувчиларнинг ёш ва психологик хусусиятларини ҳисобга олиш зарур. Яъни мазкур ёшдаги болаларнинг талабларига, имкониятларига, хусусиятларига мос келадиган педагогик иш формалари, методлари ва воситаларини қўллаш тушунилади. Лекин ёш схемаси ўз моҳиятига кўра, умумий характерга эга. Ана шунинг учун ҳам мазкур ёшдаги болага, мактаб ўқувчиларига нисбатан мақсадга мувофиқ таълим-тарбия тадбирларини танлашда ёш схемасининг бир ўзи етарли эмас. Ёш хусусияти билан бирга тарбияланувчининг индивидуал хусусиятларини ҳам ҳисобга олиш керак ва ана шу индивидуал хусусиятларига мос равишда ўқувчига нисбатан индивидуал муносабатда бўлиш лозим. Таълим ва тарбиянинг вазифаси болада, мактаб ўқувчисига, биринчидан мазкур ёш босқичида юксак ривожланиш даражасини характерлаб берадиган ва иккинчидан болани, мактаб ўқувчисини кейинги ёш босқичига, яъни психик ривожланишнинг янада юксакроқ даражасига қонуний равишда ўтишга тайёрлайдиган психик хусусиятларини, хислатларнинг ва сифатларни шакллантиришдир. Тараққиётнинг ҳар бир ёш босқичи ўзининг ривожланиш омилларига, қонуниятларига, янгиликлари ва ўзгаришларига эга бўлиб, улар шахснинг характери, темпераменти, иқтидори, билиш жараёнларига бевосита таъсирини ўтказди. Ёш тараққиёти даврларининг ҳам сифат, ҳам миқдор ўзгаришларига эга бўлган кўрсаткичлари борки, амалий психология ҳар бир ёш хусусиятларни ана шу иккала кўрсаткич нуқтаи назаридан ўрганиши ҳамда шахс хулқини бошқариш ва таъсир кўрсатишда уларга таянмоғи лозим. Умуман психологияда исбот қилинган фактлардан бири шуки, турли даврлардаги инсон тараққиёти ўта мураккаб жараён бўлиб, ҳар бир даврнинг ўз қонуниятлари мавжуд. Ҳар бир босқичда шахснинг бирор бир хусусиятлари ўзининг етуклик фазасига эришади. масалан, оламни сенсор жиҳатдан билишнинг етуклик фазаси 18-25 ёшларда, интеллектуал ижодий етуклик - 35 ёшларда шахснинг етуклиги 50-60 ёшларга келиб энг юқори нуқтасига эришади. Шунга ўхшаш хусусиятлар инсоннинг бутун умри мобайнида муттасил

камолга етиб, ривожланиб боришини таъминлайди. Муаммоли савол: Шахс тараққиёти қандай даврларга бўлинади? 7. Шу вақтгача шахс тараққиётини даврларга бўлиб ўрганишга жуда катта эътибор қаратилган. Инсон ҳаётининг барча даврини яхлит тарзда қамраб олган классификацияларидан бири бутун жаҳон олимларининг қарорига кўра, 1965 йили Фанлар Академиясининг махсус

симпозиумида қабул қилинган схема ҳисобланади. У қуйида берилган жадвалда келтирилган.

Ёш давлари Эркакларда Аёлларда Чақалоқлик 1-10 кун 1-10 кун Эмизиклик даври 10 кундан 1 ёшгача 10 кундан 1 ёшгача Илк болалик 1-2 ёш 1-2 ёш Болаликнинг 1-даври 3-7 ёш 3-7 ёш Болаликнинг 2-даври 8-12 ёш 8-11 ёш Ўсмирлик даври 13-16 ёш 12-15 ёш Ўспиринлик даври 17-21 ёш 16-20 ёш Ўрта етуклик даври Биринчи босқич 22-35 ёш 21-35 ёш Иккинчи босқич 36-60 ёш 36-55 ёш Кексалик даври 61-75 ёш 56-75 ёш қарилик даври 76-90 ёш 76-90 ёш Узоқ умр кўрувчилар 90 ёшдан ортиқ 90 ёшдан ортиқ

Машҳур рус психологи Выготский 1920-1930 йилларда ўзининг олий психик функцияларининг ривожланиши назариясини эълон қилди. Выготский психика тараққиётининг умумий генетик қонунини қуйидагича аниқлайди: "Бола маданий ривожланишида ҳар бир функция 2 босқичда намоён бўлади. Дастлаб ижтимоий, сўнг психологик. Дастлаб интерпсихик категория сифатида бола ичида намоён бўлади. Ҳар бир олий психик функция ўз тараққиётида ташқи босқич орқали ўтиши керак. Россия психологиясидаги ёш давларини табақалаш муаммоси дастлаб Л.С.Выготский, П.П.Блонский, Б.Г.Ананьев сингари йирик психологларнинг асарларида ўз аксини топа бошлаган. Кейинчалик бу муаммо билан шуғулланувчилар сафи ортиб борди, шу боис ёш давларини таснифлаш муаммоси ўзининг келиб чиқиши, илмий манбаи, ривожланиш жараёнларига ёндашилиши нуқтаи назаридан бир-биридан кескин фарқ қилади. Ҳозирги вақтда ёш давларини табақалаш юзасидан мулоҳаза юритишда олимларнинг илмий қарашларини муайян гуруҳларга ажратиш ва

уларнинг моҳиятини очиш мақсадга мувофиқдир. Л.С.Выготский психологларнинг ёш давларини табақалаш назарияларини танқидий таҳлил қилиб, муайян ривожланишни вужудга келтирувчи руҳий янгилинишларга таяниб, ёш давларини қуйидаги босқичларга ажратади; 1. Чақалоқлик даври инқирози. 2. Гўдаклик даври - 2 ойликдан 1 ёшгача, бир ёшдаги инқироз. 3. Илк болалик даври - 1 ёшдан 3 ёшгача - 3 ёшдаги инқироз. 4. Мактабгача давр - 3 ёшдан 7 ёшгача - 7 ёшдаги инқироз. 5. Мактаб ёши даври - 8 ёшдан 12 ёшгача - 13 ёшдаги инқироз. 6. Пубертат (жинсий етилиш) даври - 14 ёшдан 18 ёшгача, ёшдаги инқироз. Л.С.Выготский ўзининг ёш давларини табақалаш назариясини илмий асослаб, таърифлаб бера олган. Олим энг муҳим психик янгилинишлар ҳақида илмий ва амалий аҳамиятга молик мулоҳазалар билдирган. Умуман Л.С.Выготскийнинг ёш давларини табақалаш назарияси илмий тарихий аҳамиятта эга, унинг ривожланишни амалга оширувчи инқирозлар тўғрисидаги

мулоҳазали ва олга сурган ғоялари ҳозирги куннинг талабларига мосдир. Д.Б.Элькониннинг таснифи етакчи фаолият (А.Н.Леонтьев) назариясига, ҳар қайси ривожланиш палласида бирор фаолиятнинг устунлик қилиши мумкинлигига асосланади. Етакчи фаолиятнинг инсон шахс сифатида камол топишидаги рольни назариянинг асосий моҳиятини ташкил қилади. Д.Б.Эльконин ёш даврларини қуйидаги босқичларга ажратишни лозим тошди: 1. Гўдаклик даври - туғилгандан 1 ёшгача - етакчи фаолият - бевосита эмоционал мулоқот; 2. Илк болалик даври - 1 ёшдан 3 ёшгача - етакчи фаолият - предметлар билан нозик ҳаракатлар қилиш; 3. Мактабгача давр - 3 ёшдан 7 ёшгача - рольли ўйинлар; 4. Кичик мактаб ёши даври - 7 ёшдан 10 ёшгача - ўқиш; 5. Кичик ўсмирлик даври - 10 ёшдан 15 ёшгача - шахснинг интим (дилкаш, самимий) мулоқот; 6. Катта ўсмирлик ёки илк успиринлик даври - 16 ёшдан 17 ёшгача; - етакчи фаолият - ўқиш, касб танлаш даври. Д.Б.Эльконин таснифини кўпчилик психологлар томонидан эътироф этилса-да, бироқ унинг бирмунча мунозарали томонлари мавжуд. Умуман Д.Б.Элькониннинг мазкур назарияси психология фанида, айниқса ёш даврлари психологиясида муҳим ўрин тўтади. Болалар психологияси фанининг йирик намоёндаси А.А.Люблинская инсон камолотини ёш даврларга ажратишда фаолият нуқтаи назаридан ёндашиб, қуйидаги даврларни атрофлича ифодалайди; 1. Чақалоклик даври - туғилгандан бир ойликкача; 2. Кичик мактабгача давр - 1 ойликдан 1 ёшгача; 3. Мактабгача тарбиядан аввалги давр - 1 ёшдан 3 ёшгача; 4. Мактабгача тарбия даври - 3 ёшдан 5 ёшгача; 5. Кичик мактаб ёши даври - 7 ёшдан 11, 12 ёшгача; 6. Ўрта мактаб ёши даври (успирин) - 13 ёшдан 15 ёшгача; 7. Катта мактаб ёши даври - 15 ёшдан 18 ёшгача. Педагогик психологиянинг таниқли намоёндаси Б.А.Крутецкий инсоннинг онтогенетик камолотини қуйидаги босқичлардан иборатлигини таъкидлайди: 1. Чақалоклик (туғилгандан 10 кунликкача); 2. Гўдаклик (10 кунликдан 1 ёшгача); 3. Илк болалик (1 ёшдан 3 ёшгача); 4. Боғчагача давр (3 ёшдан 5 ёшгача); 5. Боғча ёши (5 ёшдан 7 ёшгача); 6. Кичик мактаб ёши (7 ёшдан 11 ёшгача); 7. Ўсмирлик (11 ёшдан 15 ёшгача); 8. Илк ўспиринлик ёки катта мактаб ёши (15 ёшдан 18 ёшгача).

Юқоридаги барча таснифлар уларга қандай нуқтаи назардан ёндашилганлигидан қатъий назар инсон камолотини тўла ифодалаб беришга ожизлик қилади. Мазкур назариялар инсоннинг шахс сифатида шаклланиши босқичлари ҳақида кўпроқ маълумот беради, холос. Уларда ёшлик, етуклик, қарилик даврларининг хусусиятлари, қонуниятлари тўғрисида назарий ва амалий маълумотлар етишмайди. Ҳозирги замон психологиясининг йирик вакили А.В.Петровский инсон камолотига, шахснинг таркиб топишига ижтимоий-психологик нуқтаи назардан ёндашиб, шахснинг шаклланишини қуйидаги босқичларда амалга ошишини таъкидлайди: 1. Илк болалик (мактабгача тарбия ёшидан олдинги давр) туғилганидан 3 ёшгача. 2. Болалик даври - 3 ёшдан 7 ёшгача. 3. Кичик мактаб ёши даври - 7 ёшдан 11 ёшгача, 4. Ўрта мактаб ёши

(ўсмирлик) даври - 11 ёшдан 15 ёшгача- 5. Юқори синф ўқувчиси (илк ўспиринлик) даври - 15 ёшдан 17 ёшгача. АВ.Петровскийнинг таснифи мукаммал бўлса-да, камолотнинг оралиқ босқичларини, уларнинг ўзига хос хусусиятларини ифодаламайди. Ваҳоланки, ўсиш ижтимоий қоидаларга мувофиқми ёки аксинча, қандай бўлишидан қатхий назар, ҳар иккала йўналишнинг ҳам оралиқ жабҳалари бўлиши эҳтимолдан ҳоли эмас. Маълумки, ҳар бир ёш давр, ўзига хос хусусиятлар билан белгиланади, буларга: оилада ва мактабда бола ҳолатининг ўзгариши, таълим ва тарбия шакллариининг ўзгариши ҳамда боланинг янги фаолият турлари, организмдаги айрим хусусиятларнинг етилиши сингари жараёнларни киритиш мумкин. Ҳозирги замон психологиясида ёш давларини шу нуқтаи назардан табақалаш мақсадга мувофиқдир: 1. Илк болалик даври -туғилгандан 3 ёшгача; 2. Боғча даври - 3 ёшдан 6, 7 ёшгача; 3. Кичик мактаб ёши даври - 6, 7 ёшдан 10, 11 ёшгача; 4. Ўрта мактаб ёши (ўсмирлик даври) - 10, 11 ёшдан 14, 15 ёшгача; 5. Илк ўспиринлик (коллеж ва лицей ўқувчилари) 14, 15 ёшдан 17, 18 ёшгача. Умуман, психологлар томонидан ёш давларини табақалаштиришнинг пухта, илмий-методологик негизга эга бўлган қатор назарияллари ишлаб чиқилган. Ҳозирги кунда улар онтогенетик қонуниятларни ёритишга катта ҳисса қўшиб, унинг назарий ва амалий муаммоларини ҳал қилишда муҳим ўрин эгаллаб келмоқда. Бироқ, шундай бўлсада, ҳозир онтогенезни тўла ёритишга хизмат қила оладиган назариясини яратиш зарурияти мавжуддир. Америкалик психолог Э.Эриксон инсоннинг умрини ўзига хос бектакрор хусусиятларга молик 8 та даврга ажратади. Биринчи давр – гўдакликда ташқи дунёга онгсиз “ишонч” туйғуси вужудга келади. Бунинг бош сабаби ота-онанинг меҳр-муҳаббати, ғамхўрлиги ва жонкуярлигидир. Агар гўдакда ишончнинг негизи пайдо бўлмай, борлиққа ишончсизлик ҳисси туғилса, вояга етган одамларда маҳдудлик, умидсизлик вужудга келиши шубҳасиздир. Иккинчи давр – илк болаликда ярим мустақиллик ва шахсий қадрқиммат туйғуси шаклланади ёки аксинча, уларнинг тескариси – уят ва шубҳа ҳисси ҳосил бўлади. Болада мустақилликнинг ўсиши унга ўз танасини бошқариш учун кенг имконият яратиб, бўлғуси шахс хусусиятларидан тартиб ва интизом, махсулият, жавобгарлик, ҳурмат туйғулари таркиб топишига замин ҳозирлайди. Учинчи давр – ўйин ёши деб аталади ва унга 5-7 ёшли болалар киради. Бу даврда ташаббус туйғуси, қандайдир ишларни амалга ошириш, бажариш майли таркиб топади. Мабодо боладаги хоҳиш-истакни рўёбга чиқариш йўли тўсиб қўйилса, бунинг учун у ўзини айбдор деб ҳисоблайди. Мазкур даврда давра, яъни гуруҳ ўйинларга, тенгқурлари билан мулоқотга киришиш муҳим аҳамият касб этади: бола турли рольлар бажариб кўришига, унинг ҳаёлотини ўсишига имкон яратади. Худди шу даврда болада адолат туйғуси, уни тушуниш майли туғила бошлайди. Тўртинчи давр – мактаб ёши боладаги асосий ўзгаришлар: кўзлаган мақсадига эришиш учун интилиш, уддабуронлик ва

тиришқоқлик билан ажралиб туради. Унинг энг муҳим қадрияти омилкорлик ва маҳсулдорликдан иборатдир. Бу ёш даврининг салбий жихатлари ҳам бўлиб, улар ижобий ҳислатлари етарли бўлмаслиги, онг ҳаётининг барча қирраларини қамраб ололмаслиги ва ҳоказолар. Бешинчи давр – ўспиринлик бетакрорлик ҳислати, ўзига хослиги бошқа одамлардан кескин фарқланиши билан характерланади. У ижтимоий ҳаётда бажараётган рольларнинг кўлами кенгаяди, лекин барчасини эгаллаш имкониятига эга бўлмайди. Шунингдек рольларда ўзини синаб кўриш билан чекланади. Вақтни янгича ҳис қилиш, психосексуал қизиқиш, патоген жараёнларни намоён бўлиши хосдир. Олтинчи давр – ёшлик, бошқа жинсга психологик интим яқинлашув қобилияти ва эҳтиёжи вужудга келиши билан ажралиб туради. Бунда айниқса жинсий майл алоҳида ўрин тутади. Бундан ташқари, ёшлик танҳоликни ёқтириш ва одамовилик каби ёқимсиз хусусият билан фарқланади. Еттинчи давр – етуклик даврида ҳаётининг фаолиятнинг барча соҳаларида (меҳнатда, ижодиётда, ғамхўрликда пушт қолдиришда, тажриба узатиш ва бошқаларда) маҳсулдорлик туйғуси узлуксиз ҳамроҳ бўлади. Саккизинчи давр – қарилик, инсон сифатида ўз бурчини удалай олганлигидан, турмушнинг кенг қамровлигидан қаноатланиш туйғулари билан характерланади. Салбий хусусият сифатида эса ҳаёт фаолиятдан ноумидлилиқ, кўнгил совуш туйғулари хос. Донолик, софлик, гуноҳлардан фориғ бўлиш уларга хос энг муҳим хусусиятлардир. Француз психологи А.Валлон нуқтаи назарича ёш давлари куйидаги босқичларга ажратилади: Хомиланинг она қорнидаги даври; Импульсив ҳаракат даври – туғилгандан 6 ойгача; Эмоционал (ҳис-туйғу) даври – 6 ойликдан 1 ёшгача; Сенсомотор (идрок билан ҳаракатнинг уйғунлашуви) даври

– 1 ёшдан 3 ёшгача; Персонологизм (шахсга айланиш) даври – 3 ёшдан 5 ёшгача; Фарқлаш даври – 6 ёшдан 11 ёшгача; Жинсий етилиш ва ўспиринлик даври – 12 ёшдан 18 ёшгача. Ёш давлар инқирозлари. Шахснинг камол топиши мураккаб жараён эканлигини унда ёш ўсиши билан боғлиқ ҳолда содир бўладиган ўзгаришлар ва янгилианишларнинг хилма-хиллиги ҳамда ўзига хослигида кўриш мумкин. Маълумки ёш ўсиши билан бола фақат миқдор жихатлар эмас, балки сифат жихатдан ҳам ўсиб боради. Демак боланинг биологик жихатдан ўсиши унинг психикасида ҳам ўсиш ва ўзгаришларга сабаб бўлади. Аммо биологик ўсиш билан психик ўзгаришлар ҳар доим ҳам мутаносибликка эга бўлавермайди. Чунки психик ўсиш бир томондан индивидуаллик характериға эга бўлса, иккинчи томондан у маълум ижтимоий ва психик шарт-шароитларға ҳам боғлиқ бўлади. Болада содир бўладиган психик ўсиш, ўзгариш реал ҳаётда ўз ўрни ва мавқеиға эга бўлиши бироз мураккаброқ кечади. Бунинг сабаби бир томондан болада ҳали етарлича тажрибанинг етишмаслиги бўлса, иккинчи томондан катталарнинг боладаги эҳтиёж ва интилишлари ортида турган ривожланиш хусусиятларини тўлиқ англаб етмасликларидадир. Натижада эса болалар ва катталарнинг муносабатларида кескин вазиятлар вужудга келади. Бундай вазиятлар туфайли

болалар ва катталарнинг бошдан кечирадиган психик кечинмалари, ҳолатлари психологик тилда инқироз тушунчаси билан ифодаланади. Демак, инқироз тушунчасининг мазмуни психик ўсишдаги зиддият, қарама-қаршиликдан иборат. Бу жараёнда болалар билан катталар ўртасида келишмовчиликлар юзага келади. Инқироз болаларда хилма-хил эҳтиёжларнинг пайдо бўлиши билан уларнинг қондирилиши имкониятлари ўртасида тўсиқ сифатида вужудга келар экан албатта унинг таъсирида у ёки бу томонга ўзгариш рўй беради. Масалан, маълум тараққиёт босқичида болада вужудга келган мустақил ҳаракат қилиш эҳтиёжи уни мустақилликка эришиши учун туртки бўлиб хизмат қилади ва бола муайян даражада мустақилликка эришади. Иккинчидан, катталарнинг бу жараёнда йўл қўйиши мумкин таълим ва тарбиявий ҳатолари оқибатида улар руҳиятида айрим салбий иллатлар пайдо бўлиши мумкин. Демак инқирозни на салбий ва на ижобий жараён деб баҳолашга тўғри келади. Шу туфайли ота-оналар, тарбиячилар ва педагоглар бундан тўғри хулоса чиқарган ҳолда болалар билан инқироз даврларида эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш талаб этилади. Ёш даврлар психологиясида асосий инқироз даврлари сифатида болаларнинг 3 ёшли, 7 ёшли ҳамда ўсмирлик даври инқирозлари алоҳида эътироф этилади. Уч ёшли болага тўғри тарбия бериш, таъсир ўтказиш, уларнинг ҳаракатларини мақсадга мувофиқ йўналтириш орқали уларда мустақил ҳолда овқатланиш, кийиниш, ювиниш, ўз ўрнини йиғиштиришга айрим топшириқ ва вазифаларни пухта бажаришга ўргатиш мумкин. Психолог олимларнинг таъкидлашича боланинг уч ёшгача ўсишида эришган ютуқлари унинг хулқатворини, билиш жараёнларини сифат жиҳатдан анча ўзгартириб юборади. Шунга қарамай, боланинг ўсишида катталарнинг таъсири, роли етакчилигича қолаверади, лекин аста-секин ўсиб бориши боланинг мустақилроқ бўлишини таъминлайди. Боланинг мустақиллиги фақат унинг жисмоний ҳамда ақлий имкониятида, кучи етадиган жараёнга нисбатан ўз муносабатини катталарнинг кўмагисиз амалга оширишида эмас, балки ўзининг куч қуввати, қурби етмайдиган, муайян амалий кўникмаларини эгаллай олмаган турмуш муаммоларини ҳал этишда ҳам кўринади. Психологлар Н.А.Менчинская, В.С.Мухиналарнинг таъкидлашларича, бу даврдаги зиддиятда болалардаги инжиқликларнинг бош омили атрофдаги одамларнинг улар шахсига адолатсиз, нотўғри, менсимай муносабатда бўлишидан иборатдир. Кичик мактаб ёшидаги болаларнинг психологик хусусиятларини ўрганган А.Н.Голубеванинг фикрича, ноқулай шароитда болага тарбиявий таъсир кўрсатиш унда ўжарликни пайдо қилади. Шунингдек бу ёшдаги болаларнинг ўжарлиги доимий бўлмайди, масалан ўз тенгдошларига нисбатан ўжарлик қилиш аҳён-аҳёндагини рўй беради. Улар асосан катта ёшдаги одамларга, шунда ҳам муайян тарбиячига ёки оила аъзоларининг бирортасига ўжарлик қиладилар. А.Н.Голубева болалардаги ўжарлик барқарор эмаслиги сабабли унинг олдини олиш мумкинлигини уқтириб ўтади. А.П.Лариннинг тадқиқотларида эса ноқулай ва номақбул тарбиявий

шартшароитларда қайсарлик жуда эрта, ҳатто уч ёшда ҳам пайдо бўлиши ифодаланган. Дастлаб бу хусусият баъзи-баъзида рўй беради, лекин у ҳеч қачон барча катта ёшдаги кишиларга қаратилган бўлмайди, яъни унинг объекти алоҳида шахс ҳисобланади. Аммо бола характерининг бу сифати муҳитнинг нотўғри таъсири оқбатида бирор даражада барқарорлашса, кейнчалик кўпчиликка қаратилган, умумлашган шаклга айлана бошлайди. Ўжарлик бир гуруҳ одамларга йўналганлигини ҳам учратиш мумкин. А.П.Лариннинг тўплаган маълумотларига кўра, ўжарликнинг асосий сабаблари –боланинг мустақиллигини чеклаб қўйиш, эркинлик туйғуси ва ташаббусни сўндириш ва унинг онгини (англаш суратини) камситишдан иборат. Мазкур омиллар боланинг катталарга муносабати негизини ташкил қилади ва унинг психик ўсиши давомида муайян даражада ўзгариб боради. Уларнинг ўзгариши катталарнинг болага у эришган камолот босқичини ҳисобга олиб, оқилона муносабатда бўлишига боғлиқ. Бола ҳулқида муайян шароитнинг таъсири билан пайдо бўлган ўжарлик ва ножўя қилиқлар мавжудлиги, унинг психикасида жиддий ўзгариш рўй берганини, энди болага унинг ҳозирги ўсиш даражасини ҳисобга олиб, муносабатда бўлиш зарурлигини билдиради. Боланинг психикасида вужудга келадиган инқирознинг сабаблари сифатида қуйидагиларни эҳтироф этиш мумкин: - катталар боланинг жисмоний ва ақлий имкониятларини ҳисобга олмасликлари; - хоҳиш ва истакларини мустақил ҳолда турмушда қарор топтиришга интилишларига тўсқинлик қилишлари; - айрим кўзга ташланган қийинчиликларни бартараф қилишга ўринишларига йўл қўймасликлари; - бола ўз холича иш тутишини чеклашлари. Катталар болаларнинг раҳйига, мустақиллигига қарши турмасдан, мумкин қадар истагига, интилишига ёрдам берсалар, унинг шахсини шакллантириш жараёнидаги қийинчилик ўз-ўзидан барҳам топади, низо ёки ихтилофнинг олди олинади. Оилада, мактабгача тарбия муассасаларида шахслараро муносабатлар илмий асосда қурилиб, муайян қоидаларга суянилса ва педагогик одоб доирасидан четга чиқилмаса, юқорида айтилган зиддиятлар юзага келиши мумкин эмас. Ўжарлик, қайсарлик, катталарга итоатсизликнинг вужудга келиши – боланинг катталарга қарамликдан қутулишга ўриниши ва кичик мактабгача ёш давридан мактабгача ёш даврига ўтишнинг ташқи ифодаси ҳисобланади. Мустақилликка интилиш мазкур ёш давридаги ўзгаришлар, янгилинишлар, яъни шахсий хатти-ҳаракатни ва “мен ўзим”ни англашнинг маҳсули сифатида юзага чиқади. Кўпчилик психологларнинг тадқиқотларидан маълумки, болалар мазкур инқироз даврида бир нечта кўринишдаги қайсарликни намоён этади. Ана шундай кўринишларнинг биттаси биз назарда тутган 3 ёшли инқирозга тўғри келади. Шу даврда унинг руҳий дунёсида сифат ва миқдор жиҳатдан турли ўзгаришлар рўй беради. Бу ўзгаришлар унинг олами бошқача кашф қилаётганига, психикаси маълумот ва ахборотлар билан кун сайин бойиб бораётганлигига боғлиқдир. Айни шу ёшда боладаўз иродасига ишонч ҳисси туғилади, у ўзлигини англай бошлайди. Ўзлигини англаш

қарамақаршилиқларни, зиддиятларни енгиш билан амалга ошади. Психик ўсишнинг бошқа даврларида рўй берадиган инқироз даври ҳам худди шундай тарзда кечади, аммо турли даврда инқирозларнинг сабаблари турлича бўлади. Жумладан: кичик мактаб ёшида содир бўладиган инқироз кўпроқ боланинг ўқув фаолияти жараёни ва унинг кечиши билан боғлиқ холда кечади. Мактаб таълими ўқувчининг турмуш тарзини, ижтимоий мавқеини, синф жамоаси ва оила муҳитидаги аҳволни ўзгартиради, унинг асосий вазифаси ўқишдан, билим олиш, кўникма ва малакаларни эгаллаш, табиат ва жамият тўғрисидаги қонуниятларни ўзлаштиришдан иборат бўлиб қолади. Таълим муайян даражада уюшқоқлик, интилиш, иродавий зўр бериш, фаоллик ва мақсадга мувофиқ фаолиятни талаб этади. Ихтиёрсиз ҳатти-ҳаракат ўрнини англашилган, режали, ақлий меҳнат эгаллай бошлайди. Таълим жараёнида ўқувчи олдига қўйиладиган талаблар тобора кўпайиб, мураккаблашиб бораверади. Ўқишнинг дастлабки кунлариданоқ кичик мактаб ёшидаги боланинг ўсишини ҳаракатга келтирадиган турли зиддият, қарама-қаршилиқлар, ички ихтилофлар вужудга келади. Ана шулар замирида боладаги психик камолотнинг даражаси ва ижобий хислатлар билан талаблар ўртасидаги қарама-қаршилиқлар ётади. Талабларнинг тобора ортиши боланинг психик жиҳатдан тўхтовсиз ўсишини тақозо этади ва шу берк занжирнинг узлуксиз ҳаракати натижасида инсоннинг камолоти амалга ошади. Ёш даврлар тараққиётида ўсмирлик даври алоҳида аҳамият касб этади. Ўсмирлик даври тақлидчанлиги, муқим нуқтаи назарнинг шаклланмаганлиги, хиссиётлилиги, мардлиги, тантилиги билан фарқланади. Шунинг учун ташқи таъсирларга берилувчан ўсмир ўғил-қизларга алоҳида эътибор бериш зарур. Ўсмирлик даврида болалик ҳолатидан катталиқ ҳолатига ўтиш содир бўлади. Ўсмирнинг психик ўсишини ҳаракатга келтирувчи куч – унинг фаолиятини вужудга келтирган янги эҳтиёжлар билан уларни қондириш имкониятлари ўртасида қарама-қаршилиқлар тизимининг намоён бўлиши ётади. Мана шу диалектик қарама-қаршилиқлар ортиб бораётган жисмоний, ақлий ҳамда ахлоқий имкониятлар билан барқарорлашган, стереотипга айланган ташқи оламни акс эттиришнинг шакллари ўртасида содир бўлади. Вужудга келган зиддиятлар ва қарама-қаршилиқларни психологик камолотни таъминлаш, фаолият турларини мураккаблаштириш орқали ўсмир шахсида янги психологик фазилатларни таркиб топтириш билан аста секин йўқотиш мумкин. Веналик психолог З.Фрейд ва унинг шогирдлари ўсмирлик даврини баҳолашда инсонга азалдан берилган қандайдир илк майл нишонаси сифатида вужудга келадиган ўз мавқеини белгилашга онгсиз интилиш деб ҳисоблайдилар. Айрим психолог олимлар эса ўсмирликни биогенетик ўсишнинг биологик омилларига, яъни жинсий етилишга алоҳида аҳамият берадилар. Уларнинг фикрича, ўсмирнинг психик жиҳатдан инқирозга етакловчи, ҳаяжонга солувчи субъектив ички кечинмалари ўғил ва қиз болаларда ўзига хос ҳолатни юзага келтиради. Ўсмир учун характерли ҳисобланган

норозилик, кўполлик, қайсарлик, шафқатсизлик, тажанглик, гинахонлик каби иллатлар жинсий етилишнинг махсули, янги туйғулар, майллар, кечинмалар ўсмир хатти-ҳаракатларида хукмрон бўлиб, унинг хулқ атворини белгилайди деб хисоблайдилар. Турли ёш даврларда рўй берадиган инқирозлар хусусида келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, ёш тараққиёти жараёнида содир бўладиган ҳар қандай инқироз бола руҳиятида у ёки бу психик ўсиш, янгиланиш ва ўзгаришларнинг сабабчиси ва рўёбга чиқарувчи воситаси сифатида намоён бўлади. Ақлий қобилиятнинг ёшга боғлиқ холда ўзгариши. Ақлий қобилиятларнинг индивидуал асослари ўртасидаги тафовутлар каби унинг ёш тараққиёти билан боғлиқ тафовутларининг мавжудлиги ҳам шубҳасиздир. Яъни инсон психикасининг онтогенездаги тараққиёти бир-бири билан боғланган бир ривожланиш босқичидан иккинчи сифат жихатдан фарқ қилувчи босқичга ўтиш жараёнини ифодалайди. Бу ўзгарувчан даврлар, тараққиётнинг босқиччилиги – узлуксиз жараённи шартли бўлиш натижаси эмас, балки бу объектив реалликдир. Ақлий қобилиятнинг ёшга боғлиқ холда ривожланиши масаласи қатор психологлар томонидан қайд этилган. Аммо таълим амалиётида бу муаммо чуқур таҳлил этилиб, турли ёшда ўқувчиларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириб бориш бўйича ишларни талаб даражасида ҳал этилган деб айта олмаймиз. Ақлий қобилиятларнинг ёшга боғлиқ холда ривожланиши қонуниятларини билиш турли ёш даврларда ақлий қобилиятларни мақсадга мувофиқ холда шакллантириш имкониятларини очади. Ақлий қобилиятларнинг ёшга боғлиқ жихатларини тадқиқ этиш бўйича психология жуда бой тажрибага эга. Чет эл психологларида

Ж.Пиаже, Дж.Келли, А.Валлон, Рус психологларида Л.С.Выготский, С.Л.Рубинштейн, А.Н.Леонтьев, Л.И.Божович, В.А.Мухина, Э.А.Голубева, Н.С.Лейтес, ўзбек психологларида М.Г.Давлетшин Э.Ғ.Ғозиев, Б.Р.Қодиров, З.Т.Нишанова ва бошқалар тафаккур ва ақлий қобилиятнинг ёшга боғлиқлигини турли йўналишларда ўрганганлар. Жумладан таниқли ўзбек психологи Э.Ғ.Ғозиевнинг «Тафаккур психологияси» номли асарида бу борадаги тадқиқотлар кенг ёритилган. Швецариялик психолог Ж.Пиаже интеллект муаммосига ўз шахсий нуқтаи назаридан келиб чиқиб ёндошган. Ж.Пиаже интеллект назариясини иккита муҳим жихатга, яъни интеллект функциялари ва интеллект даврларига ажратади. Ж.Пиаже мулоҳазасига кўра, интеллектнинг асосий функциялари қаторига уюшқоқлик (тартиблилик) ва адаптация (мослашиш, кўникиш) киритилган бўлиб, улар интеллектнинг функционал инвариантлари деб юритилади. Шунингдек муаллиф интеллектнинг қуйидаги ривожланиш босқичларини ажратиб кўрсатади: 1. Сенсомотор интеллект даври (туғилгандан 2 ёшгача); 2. Операциялардан илгариги тафаккур даври (2 ёшдан 7 ёшгача); 3. Конкрет (яққол) операциялар (ақлий ҳаракатлар даври 7, 8 ёшдан 11, 12 ёшгача); 4. Формал (расмий) операциялар (ақлий ҳаракатларни мақсадли амалга ошириш даври). Ж.Пиаженинг фикрига кўра интеллектнинг ўсиши болада

нутқ пайдо бўлишидан илгари бошланади. Интеллект (ақлий қобилият)нинг куртаги боланинг дастлабки тартибсиз хатти-ҳаракатларида ўз ифодасини топади. Кейинчалик мақсадга йўналтирилган ҳаракатлар актини амалга ошириш натижасида интеллектнинг генетик илдизини ўрганиш учун муҳим имкониятлар яратилди. Ж.Пиаже конкрет операциялар даври предметлар билан алоқалар ўрнатишдан иборат эканлигини таъкидлаб, психология илмида олға силжиш ясади. Формал (расмий) операциялар даврига тасниф берилганда эса предметлар билан алоқа қилиш йўқолиб бориши қайд этилади. Шунингдек интеллектнинг ўсиши инсоннинг операциялар системаси билан қуролланишидан иборат, ҳамда интеллект даврининг ўзаро ўрин алмашилиши тафаккур ўсишини билдиради, даврнинг кетма-кетлиги эса ривожланишнинг ички қонуниятларини ифодалайди-деб таъкидлайди. Таниқли рус психологи Л.С.Выготский, А.Н.Леонтьевларнинг ишлаб чиққан концепциясига биноан инсоннинг онтогенезда тараққий этиши жараёнида ташқи фаолият (хатти-ҳаракатлар) аста – секин ички хаттиҳаракатларга, яъни ақлий ҳаракатларга айланади. Бошқача сўз билан айтганда, ташқи аломатлар ички аломатларга ўтиши содир бўлади. Ташқи фаолиятнинг ички фаолиятга ўтиши шуни билдирадики, ўқувчи бу даврда жараённинг тузилишини ўзлаштиради, ташқи билимлардан қандай фойдаланиш қоидаларини эгаллайди. А.Н.Леонтьев, Л.С.Выготский ғоясини ривожлантириб, мазкур ҳолатни тажриба йўли билан ўрганиб, ўқувчида янги ақлий ҳаракатни вужудга келтириш учун, энг аввало уни ташқи ҳаракат тузилиши билан таништириш зарур, фақат ана шундагина ушбу ҳаракатни бир даврнинг ўзида экстериоризациялаштиришни таъминлаш мумкин, деган хулосага келади. Ҳаракатни экстериоризациялаштирилган шаклда, унинг ёйик, ташқи шаклда тавсия қилинаётган ҳаракат шакллана бошлайди. Дастлабки ўзлаштиришдан кейин, ҳаракатни аста-секин ўзгариш жараёнининг натижасида умумлаштириш вужудга келади, уни амалга ошириш таркибларининг қисқариши ва даражасининг ўзгариши билан ажралиб туради. Демак у ички ҳаракатга айланиб, боланинг дилига батамом жо бўлади. Ҳар бир ёш давр тафаккур ва ақлий қобилиятнинг намоён бўлиши, шаклланиши ва ривожланишида ўзига хос объектив ва субъектив шартшароитларни юзага келтиради. Бу борада психолог С.Л.Рубинштейннинг «Инсон психикасининг ривожланиши ижтимоий, тарихий, биологик ва нейродинамик жиҳатдан шартланганлик характерига эга» деган фикри ўринлидир. Жумладан боланинг нутқни эгаллагунга қадар бажарадиган ақлий ҳаракатлари тафаккурнинг табиий ва ижтимоий-тарихий шартланган холда ўсишини ифодаласа, нутқни эгаллагандан сўнг содир бўладиган ақлий ўзгаришлар ва ақлий ўсиш ижтимоий шарт-шароит ҳамда мақсадга йўналтирилган таълим-тарбия махсули эканлигини характерлайди. Маълумки тафаккурнинг мавжудлиги нарса ва ходисаларнинг мазмунини тушуниш билан изоҳланади. Илк болалик ёши даврида сўз билан предмет ўртасидаги алоқа,

боғлиқликни тушуниш жараёни содир бўлади, яъни тушунишни энг қулай (сензитив) даври бир ёшдан бир ярим ёшгача бўлган давр хисобланади. Бу даврда болалар предмет ва жисмларнинг номларини енгил ўрганиши учун шарт-шароит мавжуд бўлади. Илк болалик даврида амалий ҳаракат тафаккури шаклланади, жисмлар билан турли ҳаракатларни ўзлаштиришда улардаги муҳим ва ўзгармас аломатларни ажратиш кўникмаси ҳосил бўлади. Бу даврда болада «Мен ўзим» концепциясининг вужудга келиши шахсий фазилатлар билан бир қаторда ақлий имкониятларнинг ҳам юзага чиқиши учун шароит яратади. Психолог Э.Ғозиев мактабгача ёш даврида ақлий ўсиш муаммосини таҳлил қилиб психолог Ж.Пиаженинг боланинг ўйинда жисмларга янги ном бериши омилини ақлий ўсишнинг рамзий маъноли тафаккур шаклланишининг таянчи сифатида қарашига эътироз билдиради ва нарсанинг номини ўзгартириш билан болада тафаккур ва ақл заковат ўсишини кутиш мантиққа зид деб хисоблаб, аслида нарсаларни қайта номлаш эмас, балки ўйин ҳаракатларининг хусусиятини ўзгартириш боланинг ақлий ўсишига сезиларли таъсир ўтказа олади деган хулосага келади. Ҳақиқатдан ҳам мактабгача ёш даврида ўйин фаолияти жараёнида болаларда ҳаракатнинг янги кўриниши, яъни унинг фикрий, ақлий жиҳати намоён бўлади. Хулоса қилиб шуни таъкидлаш жоизки бу ёш даврида боланинг ақлий камол топишида ўйин фаолияти муҳим аҳамият касб этади. Айнан ўйин фаолияти билан шуғилланиш ақлий ўсиш учун шарт-шароит хисобланади. Олимларнинг таъкидлашича кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар тафаккури таълим жараёнида жуда кўп ўзгаришларга учрайди. Машҳур рус психологи Л.С.Выготский кўрсатиб ўтганидек, идрок ва хотира мактаб таълими бошланиши олдидан анчагина тараққиёт йўлини босиб ўтган бўлади, кичик мактаб ёшидаги даврда эса интеллект (ақл) жадал тараққий этади. Тафаккурнинг ривожланиши идрок ва хотирани сифат жиҳатдан қайта ўзгаришга, уларни ихтиёрий ва бошқариладиган жараёнга айланишга олиб келади. Вўгосткийнинг кўрсатишича мактаб ёшига бола идрок ва хотира функциясига нисбатан кучсиз интеллект функцияси билан қадам қўяди. Бироқ интеллект шундай ривожланадики, на хотира ва на идрок бундай ривожланишни ўз бошидан кечирмайди. Бу ерда таълим мазмуни ва мотивларининг стимуллаштирувчи роли, ўқитувчининг таълим-тарбия процессини ташкил қилувчилик роли хусусан яққол кўзга ташланади. Тадқиқотларнинг кўрсатишича, ўқув жараёни ҳар хил йўсинда ташкил қилинганда, таълим мазмуни ўзгартирилганда, ўқитишнинг турли усулларига қараб кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг тафаккури ниҳоятда хилма-хил характеристикага эга бўлиши мумкин. Кичик мактаб ўқувчиларида тафаккур операциялари ривожланиши конкрет нарса ва ходисаларнинг кўргазмали хусусиятлари ва сифатларига асосланган ҳолда кечади, яъни бу даврда ўқувчилар тафаккури конкрет операциялар босқичида туради. Шундай қилиб, кичик мактаб ўқувчиси таълим фаолияти жараёнида конкрет тафаккурга эга бўлиб боради, яъни нарса ва

ходисаларни ташқи томондан билишдан аста секин уларнинг мохиятини билишга, муҳим хусусият ва белгиларни тафаккурда акс эттиришга ўтади. Бу даврнинг яна бир муҳим жихати айнан шу даврдан бошлаб, яъни таълим фаолиятининг етакчилик ролидан фойдаланиб ўқувчилар тафаккури ва ақлий қобилиятларини таълим жараёнида мақсадли ривожлантириш ва жиддий психокоррекцион ишларни олиб бориш учун шарт-шароитлар мавжуд бўлади. Психологияда ўсмирлик ёшининг характеристикаси ҳақида сўз юритилганда асосан гап шахснинг ақлий тараққиёти ўтиш даври билан боғлиқ ҳолда юзага келадиган муаммолар юзасидан боради. Ўсмирлик ёшида билиш жараёнларининг тараққиёти ҳамда ақлий тараққиёт муаммоларига бағишланган ишлар мавжуд, аммо улар бармоқ билан санарли даражада бўлиб муаммони атрофлича ёритиб бериш учун етарли эмас. Ўсмирлик даврида ақлий имкониятларнинг ўсишида уларнинг воқеа ходисаларга нисбатан онгли муносабатда бўлиши ҳамда ўқишга бўлган муносабатлари даражасининг кучайиши ҳам таъсир кўрсатади. Бу омил уларнинг ўқиш фаолияти мотивларининг мураккаблигида намоён бўлади, яъни ўсмирларнинг ўқиш фаолияти мотивлари таркибига кенг ижтимоий мотивлар (билим олишнинг ижтимоий жихатдан муҳим эканлигини англаш, мустақил ҳаёт ва меҳнатга тайёрланиш учун ўқишнинг зарурлиги) билан муваффақиятга интилиш, иззат нафс билан боғлиқ бўлган билиш мотивлари ҳамда шахсий мотивлар (обрў қозонишга интилиш, раҳбарлик ролини ўйнаш ва хоқозо) бирга қўшилиб кетган бўлади. Ўсмирлик даврида ақлий тараққиётда муҳим силжишлар юз беради. Бу даврда фикрлаш фаолиятининг асосий хусусияти абстракт тафаккур қобилиятининг ўсиб бориши билан бир қаторда воқеликни тўғри ва аниқ, мантиқан акс эттириш учун тафаккурнинг конкрет образли тури ҳам тафаккурнинг умумий структурасида муҳим роль ўйнашда давом этади. Шунингдек бу даврда ақлнинг муҳим сифатларидан тафаккурнинг танқидийлиги сезилари даражада тараққий этиши характерлидир. Шунингдек психологик адабиётларда ўсмирлик даври актив, мустақил, ижодий тафаккурнинг таркиб топиши учун сензитив давр эканлиги таъкидланади. Хулоса қилиб айтиш жоизки, ўсмирлик даврида ақлий қобилиятларни ҳар томонлама ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар мавжуд бўлиб, улардан тўғри фойдаланиш бизнинг назаримизда бу даврда содир бўладиган айрим салбий ҳолатларнинг олдини олишга хизмат қилиши табиийдир. Тадқиқот ишимиз илк ўспиринлик ва ўспиринлик ёш даврида ақлий қобилият диагностикаси ва психокоррекциясига бағишланганлиги туфайли айнан шу ёш даврда ақлий қобилиятларнинг ўзига хос тарзда ривожланиши ва намоён бўлиши хусусиятларини чуқурроқ таҳлил қилишни лозим топдик. Маълумки ўспиринлик ёш даврида болалар умумий таълим мактабининг юқори синфларида, академик лицей, касб-хунар коллежлари ҳамда олий ўқув юртлирида таълим фаолиятини давом эттирадилар. Илк ўспиринлик даврида ўқувчининг мустақил фикр юрита олмаслиги унинг психикасидаги жиддий камчилик

хисобланади. Бу даврда ўқувчи ақлининг танқидийлиги вазиятга қараб ўзгарувчан характер касб этади. Бунинг асосий сабабларидан бири – воқеликнинг моҳиятини илмий жиҳатдан тўғри тушунмасликдир. Шунингдек ўспириннинг «ўз позицияси»да бўш келмаслиги, нарса ва ходисаларнинг асл моҳиятини англаб туриб, баъзан атайлаб «ўжарлик» қилиши ҳам бу ҳолатнинг бир кўриниши ҳисобланади. Э.Ғозиев таъкидлашича, «уларда моддий дунё тўғрисида шахсий фикрлар, мулоҳазалар, илмий дунёқараш таркиб топганидан кейингина тафаккурнинг танқидийлик хусусияти ривожлана бошлайди. Ақлнинг танқидийлигини тарбиялашда ўқитувчи ўқувчининг ўзига хос типологик хусусиятларига, ақлий камолот даражасига, билимлари савиясига, мулоҳаза доирасининг кенглигига, нутқ қобилиятига, шахсий нуқтаи назарига, ўқишга нисбатан муносабатига, қизиқишининг хусусият ва даражасига, ақлий фаолият операцияларини қанчалик билишига, мавжуд ўқиш кўникмаси ва малакаларига алоҳида эътибор бериши лозим». Ўспирин ақлий қобилиятининг асосини тафаккурининг қуйидаги сифатлари ташкил этади: мазмундорлиги, чуқурлиги, кенглиги, мустақиллиги, самарадорлиги, тезлиги. Тафаккур мазмундорлиги ўспирин онгида теварак атрофдаги воқелик бўйича мулоҳазалар, муҳокамалар ва тушунчалар қанчалик жой олганлигига боғлиқ бўлади. тафаккур чуқурлиги эса моддий дунёдаги нарса ва ходисаларнинг асосий қонунлари, хоссалари, ўзаро боғланиши ва муносабатларининг фикрлаш жараёнидаги тўлиқ акс этиши тушунилади. Тафаккурнинг ташаббускорлиги ўспириннинг ўз олдига янги ғоя, муаммо ва вазифалар қўйиши, уларни амалга оширишда самарадор воситаларни қўллашида намоён бўлади. ўспирин тафаккурининг тезлиги берилган саволга тўлиқ жавоб бериш учун сарфланган вақт билан белгиланади ва у фикрлаш учун зарур материалнинг хотирада мустаҳкам сақланганлигига, унинг тез ёдга тушира олишга, муваққат боғланишнинг тезлигига, турли хис-туйғуларнинг мавжудлигига, диққати ва қизиқишига, билим савиясига, қобилиятига, эгаллаган кўникма ва малакаларига боғлиқ бўлади. Талабалик йилларида ўспирин биологик жиҳатдан баркамоллик, ижтимоий нуқтаи назардан етуклик, жисмонан бақувватлик босқичига кўтарилади. Бу даврда илк ўспиринлик даврида вужудга кела бошлаган тафаккурнинг мустақиллик, теранлик, ихчамлик, ташаббускорлик, танқидийлик сифатлари кун сайин такомллашиб, янги-янги сифат ва аломатлар билан бойиб боради. Талабаларда ўз-ўзини назорат қилиш, ўз-ўзини баҳолаш, ўз-ўзини англаш, ўз-ўзини бошқариш ақл-заковатнинг муҳим жиҳатлари тараққиётнинг янги босқичига кўтарилади. Талабалар тафаккури асосан ўқиш, амалий машғулот ва мустақил билим олиш фаолиятларида жадал ва узлуксиз равишда ривожланади. Олий таълимдаги мустақил ишларнинг барчаси: конспект тузиш, реферат, аннотация, тезис, семинарга тайёргарлик, курс ва битирув ишлари ёзиш талабадан мустақилликни ижодий ёндошишни талаб этади. Бу даврда таълим жараёнида фикр юритиш жараёнларидан унумли фойдаланиш эвазига ҳар

қандай мураккаб билимларни эгаллаш имконияти вужудга келади. Талабалар тафаккур шакллари (тушунча, ҳукм, хулоса чиқариш)нинг функционал ва операционал жиҳатлари билан яқиндан танишадилар, шунингдек улардан мустақил фойдаланиш учун барча интеллектуал, ақлий заҳираларини ишга солишга ҳаракат қиладилар. Юқоридаги мулоҳазаларга қарамасдан табалар тафаккурида субъектившахсий хусусиятга эга бўлган заиф жиҳатлар мавжуддир, яъни фикр юритиш фаолиятини назорат қилишда бу даврда қатор камчиликларга йўл қўйилади. Тафаккурнинг танқидийлик ва ташаббускорлик сифатларида айрим нуқсонлар учрайди. Шунингдек талабаларнинг интилиши билан ўз-ўзини баҳолаш ҳамда ақлий тараққиёт ўртасидаги муносабат мутаносибликка, ўзаро уйғунликка эга эмас (бу ҳолат бизнинг тадқиқотларимизда ҳам кузатилди). Шу туфайли имконият билан орзулар ўртасида зиддият вужудга келади, натижада оқиллик ўрнини ғайрлик эгаллай бошлайди. Бундай салбий, хиссий кечинманинг олдини олиш учун таълим жараёнида махсус тренинглардан фойдаланиш ижобий натижалар беради. Тадқиқот ишимизда илк ўспиринлик ва ўспиринлик ёш давридаги ақлий имкониятлар ва улардан самарали фойдаланишдаги номутаносибликларни таҳлил қилиш ҳамда улар ўртасида ўзаро мутаносибликни шакллантириш мақсадида психодиагностик ва психокоррекцион тадбирлар амалга оширилди.

1. Ёш даврлар психологиясида психологик қонуниятларни текшириш қандай босқичларда олиб борилади.
2. Ёш даврлар психологиясининг махсус методлари қайсилар.
3. Психик ривожланишнинг умумий тенденциялари, қонуниятларига нималар киради.
4. Психик тараққиётда табиий хусусиятларнинг ўрни қандай.
5. Шахс тараққиёти қандай даврларга бўлинади.
6. Ёш даврлар инқирозлари.
7. Ақлий қобилиятнинг ёшга боғлиқ ҳолда ўзгариши.

Адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Т, «Ўзбекистон» 1997 й
2. Каримов И.А. Юксак маънавият –енгилмас куч. Тошкент, Маънавият 2008.
3. Шавкат Мирзиёев “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биркаликда барпо этамиз.” Тошкент “Ўзбекистон” 2016 йил.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимга бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги

нутқи.Шавкат Мирзиёев “Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови” 2016 йил 7 декабр .Тошкент,

5. Шербаков А.И. Ёш психологияси ва педагогик психология Т.: 1991 й
6. Давлетшин М.Г., Тўйчиева С.М. Умумий психология Т.: 2002 й
7. Тўйчиева С.М.«Мақтаб битирувчиларининг маънавий қиёфаси» Тошкент,2000 й
8. Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма.Тошкент,2004..
9. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология:дарслик.1-2-китоб. Тошкент, 2002.
10. Ғозиев Э.Ғ. “Онтогенез психологияси” “Ворис”, Тошкент.2006.
11. Ғозиев Э.Ғ. “Умумий психологияси” дарслик “Университет”, 2006
12. Нишонова.З, Қурбонова.З, Абдиев.Ф ”Психодиагностика ва экспериментал психология” “Тафаккур бўстони”. 2011.
13. Умаров.Б “Психология” дарслик “Ворис”, 2012

5 mavzu: Go'daklik va maktabgacha yoshning psixologik xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari

Reja:

1. Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha.
2. Tug'ilish davri inqirozi. «Tirilish kompleksi» haqida.
3. Gudaklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati (emotsional deprivatsiyaning salbiy oqibatlari).
4. Bir yosh inqirozi haqida
5. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.
6. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari.
7. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi.
8. Kichik maktab yoshida anatomo - fiziologik rivojlanish.
9. Kichik maktab o'quvchilarida bilish jarayonlarining o'sishi.
10. Kichik maktab yoshi davrida asosiy psixologik o'zgarishlar.

11. O'quv faoliyatining strukturasi.
12. Kichik maktab yoshida shaxs rivojlanishi va o'zaro munosabatlarning xususiyatlari.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Refleksiya – bola o'z xatti-harakatlari, xulq-atvorini boshqalar bilan taqqoslash va o'zini xolis baholay olish xususiyatlari.

Ko'rgazmali – obrazli tafakkur - narsa va predmetlarning bevosita idrok etiladigan obrazlariga asoslangan tafakkur turi.

O'quv situaciyasi – konspekt amaliy masalalarni echish yoki tushunchalarni o'zlashtirishning umumiy usullarini o'zlashtirish.

Go'daklikdagi psixologik rivojlanish asoslari va xususiyatlari.

Chaqaloqlik (tug'ilganidan boshlab bir-ikki oylikkacha). Bola ko'pchilik jonivorlarning bolasiga qaraganda ancha o'jiz tug'iladi. U nisbatan cheklangan xulq-atvor, tashqi

olamga moslashishning muqarrar-reflektor shakllari jamg'armasiga ega bo'ladi. Tug'ma xulq-atvor shakllarining kamligi bola kuchsizligini emas, kuchini tashkil etadi – u deyarli cheksiz aqliy rivojlanish, xulq-atvorning yangi shakllariga ega bo'lishning yangi tajribalarini o'zlashtirish imkoniga sohib bo'ladi. Chaqaloq rivojlanishining farqli xususiyatlari shuki, uning analizatorlari faoliyati somatik (jismoniy) harakatlarga qaraganda tezroq shakllanadi. Shu asosda munosabat refleksi rivojlanadi va xilma-xil shartli reflektor aloqalari shakllana boshlaydi. Chaqaloqlik davri oxiri va go'daklikning boshlanishida «tetiklanish kompleksi» - kattalarnig paydo bo'lishiga munosabat bildirish paydo bo'ladi. Go'daklikda (bir-ikki oylikdan bir yoshgacha) go'dak to'laligicha kattalarga bog'liq bo'ladi (uni ovqatlantirishadi, Yuvintirishadi, yo'rgaklashadi, ag'darib qo'yishadi, qo'lga olishadi, sayr qildirishadi, allalashadi, gapirishga, Yurishga o'rgatishadi va h.k.). Hayotining birinchi yili so'ngiga kelib go'dak ayrim so'zlarni tushunadi va ilk so'zlarni ayta boshlaydi. Tasodifan odamlar davrasidan chiqib qolgan inson bolasi o'z rivojlanishida insoniy imkoniyatlar darajasigacha ko'tarila olmaydi. Faqat ijtimoiy muhit va ta'lim natijasidagina bolada insonlarcha his qilish va fikrlashga qodir shaxsiyat shakllanadi. Go'daklik so'ngida bolalar kattalarga taqlid qila boshlaydilar. Maqsadli harakat va taqlid intensiv rivojlanayotgan intellektdan (aqliy faoliyatdan) dalolat beradi. Bola harakat jarayonida, o'zining va boshqalarning harakatlariga taqlid qilib, fikrlashga o'rganadi.

2. Ilk bolalik yoshi tavsifi Ilk bolalik yoshi (bir yoshdan uch yoshgacha).

Ko'pchilik psixologlar tug'ilgandan voyaga etgunga qadar insonning psixologik rivojlanish yo'lining o'rtasi 3 yosh deb hisoblashadi. Uch yoshli bola o'z-o'ziga xizmat qila oladi, atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishishni biladi. Bunda u og'zaki muloqot qilishni biladi, unda xulq-atvorning eng oddiy shakllari shakllanadi. Bola uch yoshda etarlicha faol va atrofdagilarga tushunarlidir. Uning xarakteri va temperamenti xususiyatlari allaqachon namoyon bo'la boshlaydi. L.N.Tolstoy shunday deydi:

Besh yoshdan to mengacha – bir qadam,

Tug'ilishdan besh yoshgacha – abadiyatdir.

Homiladan tug'ilishgacha – girdobdir,

Yo'qlikdan homilagacha – mavhumlikdir.

Bolaning psixik rivojlanishiga to'g'ri Yurishga o'rganish sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Lokomosiya («loko» - joy, «mosiya»-harakat) dasturi hali shakllanmagan, shuning uchun bola doimo muvozanatini yo'qotadi. ²arakatlana olishi qobiliyati tufayli bola tashqi dunyo bilan nisbatan erkinroq va mustahkamroq muloqot qilish davriga kirib keladi. Mushak hissi masofani hisoblash va buyumlarning makondagi joylashuvini aniqlash mezoniga aylanadi. Bolaning psixik rivojlanishiga predmetlar harakati sezilarli

ta'sir ko'rsatadi. Narsalar, predmetlar mohiyati bola tomonidan bolalik davrida egallanadi. Bolalik oxirida (hayotning uchinchi yilida) yangi faoliyat turlari (rasm chizish, kuylash, haykaltaroshlik, loyihalashtirish) Yuzaga kela boshlaydi. Predmetli faoliyatda belgilangan taassurotlarning to'planishi bola nutqining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Faqat so'z ortida real dunyo obrazlari turgandagina bu so'zning o'zlashtirilishi muvaffaqiyatli kechadi. Agar bola, ma'lum bir sababga ko'ra, bu yoshda nutq rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitdan mahrum bo'lsa, unda yo'qotilgan imkoniyat o'rnini to'ldirish oxir-oqibat juda murakkab bo'lib qoladi, chunki bu yosh nutq rivojiga nisbatan sezgir (sezgir)dir: aynan mana shu paytda nutq o'zlashtirilishi ancha samarali kechadi. Ilk bolalik yoshi – bolada faol nutq shakllanishi davridir. Bir yarim yoshgacha bola 30-40 tadan 100 tagacha so'z o'zlashtiradi, ikkinchi yil oxirida bola 300 tagacha, uchinchi yil oxirida esa 1500 tagacha so'z ishlatadi. Nutq rivojlanishi ona tilining tovush xususiyati va grammatik tuzilishini egallashni taqozo etadi. Dastlab bola nutqni so'zning umumiy ritmik-melodik (tezlik, ohang) tuzilishini ilib olish yo'li bilan qabul qilsa, ikkinchi yil oxiriga kelib u ona tilining barcha tovushlarini fonematik qabul qiladigan bo'ladi va shu asosda lug'at va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi. Faol nutqning shakllanishi bolaning butun psixik rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilk bolalikdagi aqliy rivojlanish.

Bolalik avvalida bola atrofidagi predmetlar xususiyatini, predmetlar orasidagi eng oddiy aloqalarni ilg'aydi va ulardan foydalana boshlaydi. Bu predmetli faoliyat, oddiy elementar o'yin shakllari, rasm chizish, nutqni egallash bilan bog'liq ravishda ro'y beruvchi keyingi aqliy rivojlanish uchun asos bo'ladi. Bolalikda aqliy rivojlanish asosini bolada shakllanayotgan idrok etish va fikrlash harakatlarining yangi turlari tashkil etadi. Bu yoshda avtodidaktik, o'zi o'rgatuvchi o'yinchoqlar (matryoshkalar, qutichalar, kubchalar, mozaika va boshqalar) bolani tez rivojlantiradi. Ko'rish bilan birga bolalikda eshitish orqali qabul qilish ham rivojlanadi. Ayniqsa fonematik eshitish jadal rivojlanadi. Odatda, ikkinchi yil so'ngida bolalar ona tilining barcha tovushlarini qabul qiladi. Biroq fonematik eshitishning mukammallashishi keyingi yillarda ham ro'y beradi. Fikrlash rivoji uchun vositali harakatlar juda muhim. Vosita bolaning predmet dunyosiga ta'sir qilishiga xizmat qiladi. Bola eng katta tajribani kattalar bilan nutqiy muloqot natijasida qabul qiladi. Hayotning uchinchi yilida bola aqliy rivojlanishida muhim siljish sodir bo'ladi – ongning belgisi (yoki ramziy) funksiyasi shakllana boshlaydi. U bir ob'ekt o'rnini bosuvchi sifatida boshqa bir ob'ektdan foydalanish imkoniyatidan iborat. Bunda predmetlar bilan emas, balki ularning o'rnini bosuvchilar bilan harakat amalga oshiriladi. Turli belgilar va ularning tizimidan foydalanish – inson psixikasining o'ziga xos eng xarakterli xususiyati. Belgilarning har qanday turi (til, matematika ramzlari, surat va musiqada mohirona ifodalangan dunyo va h.k.) odamlar orasidagi muloqot uchun xizmat qiladi, predmet hamda hodisalar vazifasini bajaradi va

anglatadi. Erta yoshda belgili funksiya dastlab amaliy faoliyat bilan bog'liq ravishda rivojlanadi va faqat keyinchalik so'zlardan foydalanishga o'tiladi. Bola va katta yoshdagi odam. Ontogenezda kattalar bilan muloqot bolalarda birdaniga paydo bo'ladi, ancha keyin esa bolaning tengdoshlari bilan munosabat o'rnatiladi.

Chaqaloqning yangi sharoitda yashashini ta'minlovchi asosiy omil tug'ilishda unda vujudga kelgan tabiiy mexanizmlardir. U tashqg'i sharoit va muhitga moslashish imkonini beradigan, nisbatan etilgan nerv sistemasi bilan tug'iladi. Tug'ilganidan boshlab mazkur reflekslar organizmda qon aylanishi, nafas olish hamda nafas chiqarishni ta'minlaydi. Birinchi kundanoq kuchli qo'zg'atuvchilarga nisbatan ko'zni qisish, piriqirish, uning qorachig'ini kengaytirish yoki toraytirish mexanizmlari ishlay boshlaydi. Bu reflekslarni himoya reflekslari deyiladi. Chaqaloqda himoya reflekslaridan tashqari, qo'zg'atuvchilar bilan aloqa o'rnatishga xizmat qiladigan reflekslar ham bo'ladi. Bularni orientir reflekslari deb ataladi. Chaqaloqlarni kuzatishlarda ikki uch kunlik bola xonaga quyosh nuri tushishi bilan boshin yorug'lik tomonga burishi, chaqaloq xonaga asta kirib kelayotgan nur manbaini ham sezishi yaqqol ko'rindi. Yuqorida aytilgan reflekslardan tashqari, bolada bolada bir necha tug'ma tabiiy reflekslar ham uchraydi; emish refleksi og'ziga tushgan narsani so'rishga o'z ifodasini topsa qo'l kaftiga biror narsaning tegishi ushlash, chang solish reaksiyasini vujudga keltiradi. o'zidan narsani itarish, uzoqlashtirish refleksi mavjudligini kursatadi va bu hol tovonga qandaydir jism tegishi bilan uni o'zidan uzoqlashtirishda namoyon bo'ladi. Psixolog V.S.Muxinaning fikricha, chaqaloqda tug'ilshiga qadar ham shartsiz reflekslar bo'lishi, unga homilalik paytidayoq o'z qo'lini so'rish imkonini yaratadi. Tug'ilgan chaqaloqning vazni tez kamaya boradi. Buning sababi undan suyuqlik moddasining chiqib ketishi, vaznsizlik holatidan atmosfera bosimiga, quyosh nuriga, turli xususiyatli moddalar ta'siriga, o'zgaruvchan havo haroratiga moslashish davrida ko'p kuch-quvvat sarflanishidir. Bu davrning kechishida chaqaloqlarning ham individual, sham jismoniy tafovutlari ko'zga tashlanadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay chaqaloq vaznining kamayishi tabiiy ravishda to'xtaydi va uning yangi muhitga moslashishi boshlanadi. Kindik tushish davri organizmda keskin o'zgarishlar yuz berish pallasi hisoblanib, murg'ak organning mustaqil yashayotganidan dalolat beradi. Chaqaloqning oldingi vazniga etish davri hayotining birinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi. Chaqaloq organizmining anatomik- fiziologik, morfologik tuzilish bo'yicha, boshqa yoshdagi odamlarnikidan farqi ham rivojlangani, zaifligi, ish qobiliyatining kuchsizligidir. Uning suyak sistemasiE, pay-muskullari va tog'ay to'qimalarining o'sishi katta yoshdagi kishilarnikidan ham sur'at, ham sifat jihatidan farqlanadi. Chaqaloqdagi muskullarning takomillashishi harakat negizini vujudga keltiradi; shu birga har bir biologik organning mutaqil harakati va faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bolada bo'yin muskullarining o'sishi bo'ynini tutishga olib kelsa, tana muskullarining rivojlanishi kattalar yordamida ag'anash imkonini, qo'l va oyoq muskullarining etilishi esa jismoniy harakat qilish, jismlarga qo'l cho'zish uchun sharoit yaratadi. Chaqaloqning anotamik-fiziologik

tuzilishini tahlil qilsak, uning suyak sistemasida ohak moddasi va har xil tuzlar etishmasligining guvohi bo'lamiz. Shu sababli suyak funksiyasini ko'proq tog'ay to'qimalari bajaradi. Bosh suyaklari bolalarning ikki oyligida o'zaro qo'shilib ketadi. Bosh suyakning peshona va tepa qismlari o'rtasida liqildoq deb ataladigan qalin parda va teri bilan qoplangan oraliq mavjud bo'ladi. U bola bir yoshdan oshganidan keyin suyak bilan qoplanib boradi, lekin u haqiqiy suyak bo'lmaydi. Chaqaloq nerv sistemasining yuksak darajada rivojlangan qismi, ya'ni bosh miya katta yarim sharlari tashqi ko'rinishi bilan katta odamnikiga aynan o'xshasa ham, aslida undan ko'p farq qiladi. Odamlarni o'zaro qiyoslasak, ajoyib manzarani ko'ramiz: miyaning og'irligi chaqaloq tanasining sakkmzdan bir va katta odamlarda esa qirqdan bir qismini tashkil etadi. Chaqaloqlarda bosh gavdaga nisbatan kattaroq ko'rinsada, u hali juda bo'sh, mukammallashmagan bo'ladi. Ularning organizmi jadal sur'at bilan o'sish davridan o'tadi. Bu davrda chaqaloqning og'irligi 3-5 kg bo'lishiga qaramay, miyasining og'irligi 300-350 grammni tashkil qiladi, xolos. Chaqaloqning miyasi xujayralarining miqdori, "ariq"chalarning yaqqol ko'zga tashlanmasligi, nerv xujayralri tarmog'i jihatidan katta odamlarning miyasidan farq qiladi. Yuqoridagi fikrlarni isbotlashda harakat qilgan psixolog E.A.Arkinning ta'kidlashicha, -bola tug'ilishga harakat qilayotgan paytida uning miyasini bir xil kulrang massa tashkil etadi, uning nerv tolalarida mislin qobig'i bo'lmaydi. Chaqaloq boshqa yosh davridagi odamlarga qaraganda kuchsiz, zaif, ojiz ko'rinsa-da, ba'zi jihatlari bilan kattalardan ustunlik qiladi. E.A.Arkinning fikricha, chaqaloqlik davrining kuchli jihatlari ko'pincha uning o'sish quvvatida o'z ifodasini topadi. U har oyda ikki sm dan o'sadi, uning og'irlig har kuni 1,6-2 grammdan ortib boradi. Uning shiddatli sur'at bilan o'sishi ko'proq individning vegetativ nerv sistemasi, ichki sekretiya (buqoq, qalqon osti va usti) bezlarining faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ichki sekretiya bezlari ishlab chiqargan maxsus gormonlar qonga so'rilib, organizmning jismoniy o'sishini belgilaydi. Chaqaloqning g'oyat jadal sur'atlar bilan o'sishi shu davrning o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning o'ishiga ta'sir etuvchi omillar ovqat, sof havo, quyosh nuri, nafas olish, parvarish va hokazolar. Odatda chaqaloqning nerv faoliyati shartsiz va shartli reflekslar ta'sirida vujudga keladi. Shartsiz tug'ma reflekslar bolaning tug'ilishi arafasida etarli darajada etilishi sababli unda qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, siydik chiqarish singari eng muhim vegetativ funksiyalar amalga oshadi. Masalan qorni och chaqaloqlar labiga biror narsa tegishi bilan unda emish harakati vujudga kelib, so'laklari oqa boshlaydi. Bu ovqatlanishning shartsiz refleksi deyiladi. Bolada taassurot olish ehtiqli paydo bo'lishi bilanoq, orientir refleksi bilan aloqa o'rnatadi, hissiy ilish organlarining tayyorlik darajasiga muvofiq mavjud ma'lumotlarni qabul qiladi va shu jarayonda o'zini ham rivojlantiradi. Chaqaloqning ko'ruv va eshituv apparati dastlabki kundanoq ishga tushsa ham, ular hali etilmagan bo'ladi. Shu sababli ko'rish sezgisini yorug'lik, eshitish sezgisini esa qattiq tovush vujudga keltiradi. Bola harakatdagi jismlarni kuzatishga intilsa ham, aslida qimirlamay turgan narsalarga ko'proq diqqatini to'playdi. Uning

ruhiy dunyosida ko'ruv va eshituv apparatlariga mos ravishda diqqatning muayyan ob'ektga to'planishi jarayoni asta-sekin vujudga keladi. Chaqaloqning sezgi organlari uning harakatiga qaraganda durustroq rivojlangan bo'ladi. Masalan, chaqaloq achchiqni shirindan, issiqni sovuqdan, ho'lni quruqdan farqlay oladi. Uning hid bilish organlari juda zaif bo'lishiga qaramay, burniga yoqimsiz hidli modda yaqinlashtirilsa, bezovtalanadi. Bola teri tuyush, haroratni his qilish, sezish, og'irlikni faxmlash, ta'm bilish sezgilari ham etarli darajada rivojlangan bo'ladi. Chaqaloqda jismlarni, odamlarni, atrof-muhitni kattalar kabi yaxlit va aniq idrok qilish imkoniyati bo'lmaydi. Chunki idrok qilish insonning boshqa psixik jarayonlari (xotira, tasavvur, tafakkur), ruhiy holatlari (his-tuyg'u, o'ng'aysizlanish) va o'ziga xos tipologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshadi. Shuning uchun chaqaloqda mazkur imkoniyat o'ta cheklangan bo'lib, sezgi organlari oddiy aks ettirish imkoniyatiga ega. Yangi tug'ilgan bolada kuchli yorug'likni aks ettirish imkoni bo'ladi va u yorug'likdan turli darajada va shaklda ta'sirlanadi, hatto, ko'zlarini yumib oladi. Ko'rish mexanizmlari hali o'sib ulgurmagani sababli tinch holatdagi yoki harakatdagi jismni idrok qila olmaydi. Goho o'n kunlik chaqaloq harakatdagi jismga nigoh tashlagandek ko'rinsa-da, aslida unga bir necha sekund termilishdan nari o'tmaydi. Chaqaloqda eshitish sezgisi zaif rivojlangan bo'lsa ham, u hali o'zi eshitishga moslashmagan kuchli qo'zg'atuvchilarni (tovush, qichqiriqni) aks ettira oladi, biroq tovush kelayotgan ob'ektni aniq topa olmaydi. Ko'rish va eshitish organlarining muayyan ob'ektga yo'nalishi oyoq-qo'l va boshning harakatida, bolaning yig'lashdan to'xtashiga ko'rinadi. N.L.Figurin va M.P.Denisovning ia'kidlashicha, bolaning bir oylikkacha davridagi tetiklik holati (uyg'oqligi) ko'rish va eshitishga yo'nalgan shartsiz reflekslar tufayli faollashib boradi; tovush ta'siriga berilish 2-3 haftalikda vujudga keladi. Shuning uchun bola surnay sadosiga quloq soladi va yig'idan yoki harakatdan to'xtaydi. Bir oylik bo'lgach unda orientir refleksi namoyon bo'ladi. (I.P.Pavlov). Shu sababdan chaqaloq gaplashayotgan odamga tikiladi va ixtiyorsiz hatti harakatdan o'zini tiyib turadi. Bola ob'ektni ko'rish va tovushni eshitish uchun diqqatini to'playdigan bo'lgach harakatining faollashuvida ancha o'zgarishlar ro'y beradi. Odatda uning harakati ixtiyorsiz va tartibsiz ravishda amalga oshib, jismlarga ko'z yugurtirish, boshini burish bilan tugasa ham, harakat hodisasi vazifasini bajaradi: o'zida hulqining sodda ko'rinishini ifodalab, bolani voqelik, tashqi olam bilan uzviy bog'laydi. D.B.Elkonin fikricha, chaqaloq hayotining uchinchi haftasida onaning emizishdagi holatiga moslashish bilan bog'liq birinchi tabiiy shartli refleks vujudga keladi va keyinchalik esa ba'zi qo'zg'atuvchilarga javob tariqasida alohida shartli reflekslar ham paydo bo'ladi. his-tuyg'uning o'sishi (jonlanish). Chaqaloqning hayoti qichqiriq sadosi bilan boshlanadi va bu ko'pincha shartsiz reflektor xususiyatidan kelib chiqadi. Dastlabki qichqiriq tovush orlag'i qisilishining bevosita mahsuli sifatida, organizmning tabiiy ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Qisilish avval nafas olish refleksini ham boshqaradi. Shunga qaramay, mutaxassis olimlarning fikricha, birinchi qichqiriq noxush histuyg'uning namoyon

bo'lishidir. Qisilish tanglik (zo'riqish) tuyg'usining vujudga kelishidir. Shuning uchun chaqaloqdagi muskul reaksiyasi bilan emotsional munosabatni farqlash ancha qiyin. Qichqiriq noxush kechinma va sezgilarga javob tariqasida vujudga kelib, issiqqa, ochlikka va namlikka qarshilik vazifasini bajaradi. Chaqaloqni to'g'ri tarbiyalash jarayonida qichqiriq emotsional kechinmalarning yana bir turi yig'lashga aylanadi. Yig'lash bola jisimiy og'riqni, ruhiy qayg'uni, iztirobni tabiiy aks ettirishining manbai bo'ladi, tashqi olam bilan aloqa o'rnatishning eng zarur vositasi sifatida chaqaloqning hayot faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. U noxush tuyg'ularnigina aks ettirib qolmay, tabiiy ehtiyojlarni qondirish mexanizmi sifatida xizmat qilishi mumkin. Bola bir oyga to'lgach o'zini parvarish qilayotgan odamga iniriladigan, talpinadigan bo'ladi va buning misoli tariqasida uning kishilar orasida "o'z" kishisini tanishi va ajratishin aytish mumkin. Mazkur psixolog holatni N.L.Figurin va M.P. Denisovalar "jonlanish" deb ataganlar. Bu davrda, bolaning psixik dunyosida tetiklik, his-tuyg'usida esa atrof-muhitdan ta'sirlanisho'z aksini topadi. Ularning fikricha, bolaning katta yoshdagi odamlarga o'z munosabatini bildirishi uning bundan keyingi o'sishini belgilovchi bosqich vazifasini o'taydi. Psixolog E.K.Kaverina bolaning tashqi ta'siriga javob bildirishini tadqiq qilib, unda odamning va jismlarga munosabat bir xilligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonning aft-angoriga qarab ijobiy his-tuyg'ular uyg'onishi keyinchalik vujudga keladi. Ta'sirga berilish va ta'sirlanishning mazkur shakli bola bilan kattalar o'rtasidagi aloqaning boshlang'ich ko'rinishi hisoblanadi. Shaxslararo aloqaning bu shakli chaqaloqlik davrining tugashi va ilk bolalikning boshlanishidan dalolat beradi. Psixolog D.B.Elkonin nazariyasiga ko'ra chaqaloqlik davridan ilk bolalik, go'daklik davriga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Bular:

1. Ko'z va quloq yordamida diqqatni muayyan ob'ektga qaratish (to'plash)ning paydo bo'lishi, bola harakat faoliyatining qayta qurilishi boshlangani, alohida namoyon bo'luvchi harakatning xulq hodisasiga aylanishi.
2. Sirdan idrok qilinuvchi barcha ob'ektlarga (sub'ektlarga) yo'nalgan alohida qo'zg'atuvchiga nisbatan shartli reflekslar hosil bo'lishi.
3. Katta yoshdagi odamlarga (onasiga va yaqin kishilarga) nisbatan emotsional reaksiyalar (his-tuyg'ular, kechinmalar) yangi ehtiyoj paydo bo'lishining ko'rsatkichi ekanligi.
4. Bolaning (chaqaloqning) kattalar bilan muloqatda bo'lish ehtiyoji uning keyingi psixik o'sishi negizini tashkil etish va hokazolar.

Motivlar ierarxiyasi – Tarbiya sharoitiga qarab turli motivlarning ahamiyatliligiga ko'ra tabaqalanishi. Chaqalolik davri. Odamzod bolasi boshqa jonzodlar bolasiga nisbatan ancha zaif tug'iladi. Unda zarur fiziologik funkciyalarning kechishi uchun zarur bo'lgan shartsiz reflekslari, himoya refleksi va orientirovka reflekslaridir. Chaqaloqlik davrida bosh miyaning rivojlanishining zarur sharti – analizatorlarning aktiv ishlashidir. Agar

chaqaloq sensor izolyaciya holatiga tushib qolsa, uning rivojlanishi keskin ravishda orqada qola boshlaydi. 2-3 oylikka borganda bolaga tashqi muhitga va kattalarga nisbatan maxsus emocional harakat paydo bo'ladi. Oyoqi va qo'llari bilan tipirchilay boshlaydi. Bu reaksiya jonlanish kompleksi deb ataladi. Uning paydo bo'lishi chaqaloqlik davri tuguganligini bildiradi. Go'daklik davri. 2-3 oydan 1 yoshgacha davrni o'z ichiga oladi. Bu yosh davrda etakchi faoliyat kattalar bilan emocional muloqotdir. Bu muloqot sekin-asta birgalikda faoliyatga aylanib boradi. Muloqot davomida nutqning asoslari rivojlanib boradi. 2 oydan bolalarda g'o'ldirash belgilari paydo bo'ladi. Sekin-asta taqlid asosida bola ona tilining fonemasini o'zlashtira boshlaydi. 1 yoshda bola 30-40 ta so'zni o'zlashtirish kerak. Kattalar bilan muloqot davrida bolaga yurish, predmetlar bilan harakat qilish o'rgatilgandagina bola tarbiyalanadi va psixik taraqqiyot yuz beradi. O.Bryune ma'lumotlariga ko'ra bolalar hayot sharoiti va tarbiya uslubidan qat'iy nazar psixik rivojlanishda bir xil natija ko'rsatadilar. 1 yoshgacha bo'lgan davrda ota-onasidan ajralgan bolalar oiladagi sharoitidan kat'iy nazar psixik rivojlanishdan orqada qolar ekanlar. 1 yoshgacha bo'lgan davrda bola psixik jarayonlar va sifatlarning rivojlanishida katta natijalarga erishadi. Avval boshini tutishni, emaklashni, 6 oyga borib, o'tirishni o'rganadi. 3-4 oylikdayoq predmetlarni ushlay boshlaydi va harakatlarni namoyon qiladi. Bu harakatlar avvaliga tartibsiz bulib, bola ko'p xato qiladi, keyinchalik sekin-asta harakatlar aniqlasha boradi. Go'dak predmetlar bilan oddiy manikulyaciya qilishni o'rganadi. So'ngra bu oddiy harakatlar ichki planga – ko'rish idroki planiga o'ta boshlaydi. Go'daklikning oxiriga kelib bolalarga taqlidchanlik kuchayadi. Ilk bolalik davri. Ilk bolalik davrining oxiriga kelib boshqa faoliyat turlari, masalan, qiyin va produktiv faoliyati (rasm chizish, plastilindan narsa yasash) rivojlana boshlaydi. Bu yosh davri nutqning rivojlanishidagi senzitiv davri hisoblanadi. 1,5 yoshgacha bola 100 tacha, 2 yoshgacha 300 tacha, 3 yoshgacha 1500 so'zni o'zlashtiradi. Tilning grammatik tuzilishini o'zlashtirish bir necha bosqichga bo'linadi. 1. Avtonom nutq davri 1-2 yoshda bo'lib, nutq amorif so'z o'zaklardan iborat. 2. 3 yoshgacha davrda esa ona tilining grammatik tuzilishini o'zlashtira boshlaydi. Ilk bolalik davrida predmetlik faoliyati asosida tafakkur rivojlana boshlaydi. Tushunishning eng qulay (senzitiv) davri bir yoshdan bir yarim yoshgachadir. Bu davrda bola predmet va jismlarning nomlarini engil o'zlashtirib oladi. Tadqiqotchi E.K.Kaverlanning tajribasida tasdiqlanganidek bolaning predmetlarni tushunishi quyidagi tartibda yuz beradi: 1) bola eng avval predmetlarning nomlanishini; 2) katta odamlarning va o'yinchoqlarning nomlarini o'zlashtiradi; 3) tana a'zolarining nomlarini o'zlashtiradi. Ilk bolalik davrida bola shaxsi shakllanishi boshlanadi. Bolada "men o'zim" konsepciyasi vujudga keladi. Bu yosh davri 3 yoshlilar krizis davrining yuzaga kelishi bilan tugaydi. Krizisning sababi bolada ma'lum darajada mustaqillikka ehtiyojning paydo bo'lishi, kattalarning esa eski munosabatlar tipini saqlab qolishidir. Maktabgacha yosh davri. 3 yoshdan 7 yoshgacha organizmning intensiv o'sishi davom etadi. Bosh miya og'irligi 1350g-gacha etadi, ikkinchi signal sistemasi rivojlanadi.

Bolaning ijtimoiy situaciyasi o'zgaradi. O'yin faoliyati etakchi faoliyat turidir. Rolli o'yinlar jarayonida ular katta odamlarning barcha vazifa va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Rolli o'yinlarni vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri, bolada o'z xatti-harakatlarini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish tuyg'usining mavjudligidir. Bolalarning o'yin faoliyati D.B. El'konin, A.S.Slavina, A.P.Usova va boshqa psixologlar o'rganishgan. O'yin faoliyati ixtiyoriy diqqat va xotiraning, tafakkurning rivojlanishini belgilab beradi. Bola predmet va harakatlarni birlashtirishni o'rganadi. Bolaning hayoli ham faqat qiyin faoliyatdagina rivojlana boshlaydi. 3 yoshdan 7 yoshgacha barcha bilish jarayonlari o'sadi, sezgirlik kuchayadi, bola sensor etalonlarni o'zlashtiradi, xotiraning hajmi o'sadi. Ilk bolalik davrida ko'rgazmali harakatli tafakkur va sekin-asta mantiqiy tafakkur shakllari etakchi rol' o'ynay boshlaydi. Bolaning tafakkuri tarli faoliyatlarda, xususan, o'yin faoliyatida rivojlanadi. Predmetlarni ularning simvollarini bilan almashtirish yuz beradi. Bilish jarayonlari va o'yin faoliyati bola nutqini rivojlantiradi. Bolaning nutqi situativ xarakterga ega, maktabgacha yosh davrining oxiriga kelib esa u o'z ona tilini, grammatik tuzilishini yaxshi o'zlashtiradi, ichki nutq paydo bo'ladi, nutq alohida faoliyat tarzida shakllanadi. Bola shaxsining rivojlanishida ham o'zgarishlar yuz beradi. Uning shahsiy xulq atvori aktivligida esa motivlar shaxsiyati paydo bo'la boshlaydi. O'zining va tengdoshlarining ishlarini baholay boshlaydi. Shu tarzda o'z-o'zini baholash yuzaga keladi. Maktabgacha yosh davr davomida maktab ta'limiga tayyorlik shakllanadi. 6 yoshli bolada bilimga qiziqish, (narsa va hodisalarning xossalari qidirish va taqqoslash, ajablanish) oddiy aqliy operatsiyalarni bajara olish qobiliyati shakllangan bo'lishi, emocionalg'irodaviy jihatlari, muloqot ko'nikmalari etarlicha bo'lishi kerak.

Anatomo – fiziologik xususiyatlari. Umurtqa pog'onasining barcha bo'g'inlari shakllanadi, miyaning og'irligi 1400 gr-gacha etadi, uning analitik-sintetik faoliyati takomillashadi. Bolaning bo'yi va og'irligi, o'pkasi mutanosib o'sadi. Katta muskullar kichik muskullar sistemasidan avvalroq rivojlanadi. Shuning uchun serharakat, yugurib charchamaydigan, lekin yozuv mashqlaridan tez toliquvchan bo'ladilar. Shu sababli 1-2 sinflarda yozuv topshiriqlari juda ko'p bo'lmasligi kerak. Birinchi sinfda bolalarda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar quyidagilar:

1. Kun tartibi bilan bog'liq qiyinchiliklar. O'quvchi dars va uy vazifalarini bajarishi bilan bog'liq yangi kun tartibiga o'rganishi lozim. Buning uchun kattalar bolaga qo'yiladigan yangi talablarni tushuntirishlari va ularning bajarilishini nazorat qilishlari lozim.
2. Muloqot bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lib, ular o'qituvchi bilan, sinfdoshlari bilan yangicha munosabatlar o'rnatilishi zaruriyati bilan bog'liqdir.

3. Bu qiyinchiliklarni o'quvchilar o'quv yilining o'rtalarida his qila boshlaydilar. Birinchi sinf o'quvchilarida odatda maktabning tashqi atributlariga qiziqish mavjud bo'lib, o'quv materialining mazmuniga qiziqish esa zaif shakllangan. Shu sababli o'quvchida o'qishga qiziqish yo'qolishi, maktabga borishdan bosh tortishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga aktiv intellektual harakatlarni talab qiladigan masalalar berish, oddiy yodlashni talab qiladigan masalalarni iloji boricha kamaytirish kerak. O'quv faoliyati. U quyidagi struktura tuzilishiga ega: 1) O'quv situatsiyalari. Unda o'quvchilar konkret amaliy masalalari echish yoki tushunchalarni o'zlashtirishning umumiy usullarini o'zlashtirishlari kerak. O'quvchi ularni shunday muammoli vaziyat sharoitga qo'yish kerakki, unda o'quvchilar bu usullarni topa olishlari zarur. 2) O'quv harakatlari. Har bir o'quv predmetida o'quv masalalarini echish uchun bir nechta o'quv amallari va ularning ketma-ketligini bajarishni o'zlashtirish muhimdir. Buning uchun o'qituvchi dars davomida o'quv harakatlarining mashqlar yordamida mustahkamlanishini ta'minlashi lozim. 3) O'quv faoliyati to'liq shakllanishi uchun yana bir komponent – nazoratning shakllanishi zarurdir. O'quvchi o'z harakatlarini va ularning natijalarini berilgan namunalar bilan taqqoslashi va baholay olishi kerak. Avval bu vazifani o'qituvchi bajaradi. 4) Baho – o'quv situatsiyasining talablariga erishilgan natijaning mos kelish-kelmasligi darajasini aniqlashdir. O'quvchining faoliyatiga qo'yiladigan baho sinf jurnaliga qo'yiladigan baho bilan cheklanmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'quvchi bilimni baholashning turli usullarini qo'llashi kerak. Bilish jarayonining o'sishi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi bilan ajralib turadilar. Buni ular da birinchi signal sistemasining ustunligi bilan izohlash mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchilar idroki perqektiv faoliyat darajasiga ko'tariladi. Birinchi va ikkinchi sinflarda o'quvchilarning diqqati etarli barqaror emas. 3-4-sinf o'quvchilari esa butun dars davomida o'z diqqatlarini saqlab tura oladilar. Lekin ular uchun ham dars davomida qisqa tanaffuslar foydalidir. Bolalarda birinchi signal sistemasi ustun bo'lganligi sababli mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rgazmaliharakatli xotira muhimroq rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida o'quv materiallarining ma'nosini, turli mulohazalarni ilmiy asoslarni eslab qolish va esga tushirish orqali o'quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Uning rivojlanishi ko'p jihatdan o'quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog'liq. Kichik maktab yoshdagi tafakkurning xususiyatlaridan biri narsalarning ba'zi belgilari doimiylikni payqab olmaslikdir. Bolalar tafakkurining bu xususiyatini shveycariyalik J.Plaje o'rgangan. Narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlariga ko'ra muhim belgilarga asoslanib umumlashtirish xususiyati esa keyinroq shakllana boshlaydi. Bolalar ancha vaqtgacha predmetlarning muhim va nomuhim belgilarini ajrata olmay qiynaladilar. Shuning uchun tushunchani to'g'ri umumlashtirish usullarini o'rgatish kerak. Kichik maktab yoshidagi asosiy psixologik o'zgarishlar. Bu yoshda etakchi faoliyat o'quv faoliyati bo'lib, ta'lim jarayoni psixikada yangi xususiyat va sifatning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. 1. Xatti-harakatlarning ixtiyoriy xususiyat bo'lib, o'quvchi ishlarini avvaldan rejalashtirish, ongli ravishda

faoliyat maqsadlarini tanlashni o'rganadi. 2. O'quvchi biror masalani echish davomida har bir harakatning tartibi, variantlarini qidiradi, masalaning hal qilinishini nazorat qiladi, ya'ni o'quvchi xatti-harakatlarini ichki planda bajarishni o'rganadi. 3. Bola o'z xatti-harakatlarini va xulq-atvorini boshqalar bilan taqqoslaydi, o'zini xolis baholashni o'rganadi, ya'ni refleksiya rivojlanadi. Bolalar shaxsining rivojlanishi. Bu yoshda xulq-atvorning axloqiy normalari intensiv shakllana boshlaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilar bu normalarni o'zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyor bo'ladilar. O'qituvchi ulardagi ijobiy axloqiy sifatlarni rahbatlantirishi,, salbiylari shakllanishining oldini olishi zarur. Bu yosh davridagi bolalarning o'zaro munosabatlari asosan tashqi hiyotiy shart-sharoitlar va tasodifiy omillar bilan belgilanadi (bir partada o'tirishi, bir uyda yashashi va h.k.). Lekin o'qituvchi ular uchun eng asosiy referent shaxs sifatida idrok qilinadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Kattalar bilan muloqot go'dak psixik taraqqiyoti uchun qanday ahamiyatga ega?
 2. Ilk bolalik davrida nutkning rivojlanish bosqichlari qanday?
 3. Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari qanday o'sadi.
 4. O'yinning qanday ko'rinishlarini bilasiz? 5. Bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorligi belgilari qanday.
 5. Kichik maktab o'quvchisining anatomo-fiziologik rivojlanishi qanday ko'rsatkichlarga ega?
 6. Kichik maktab yoshidagi asosiy psixologik yangiliklar nimadan iborat?
 7. Kichik maktab o'quvchisining o'quv faoliyati qanday tuzilishga ega?
- Bu yoshda bilish jarayonlari qanday rivojlanadi?

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent. 1997.
2. E.G'oziev. «Psixologiya». Toshkent. «O'qituvchi». 1994.
3. E.G'oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
4. E.I.Rogov. «Nastol'naya kniga prakticheskogo psixologa v obrazovaniy». M: 1996
5. I.V.Dubrovina. «Individual'nye osobennosti shkol'nikov». M: 1875

7 - Маvзу: O'smirlarning psixologik xususiyati.

Режа:

1. Бола тараккиетида ўсмирлик ёшнинг тутган ўрни.

2. Ўсмирлар ва катталар ўртасидаги ўзаро муносабатлар.
3. Ўсмирларнинг ўз тенгқурлари билан муносабати.
4. Ўсмирнинг ўқиш фаолияти ва ўз-ўзини англаши.
5. Ўсмирларнинг аклий-интеллектуал тараккиёт.

Таянч сўз ва иборалар: Ўсмирлик, ўсмирларнинг жисмоний ривожланиши, катталар ва тенгқурлар билан муносабати хусусияти, ўз-ўзини англаш, акселерация назариялари, аклий камолот.

1.Ўсмирлик инсонни балоғатга етиш даври бўлиб, ўзига хос хусусияти билан камолотнинг бошқа поғоналаридан кескин фарқ қилади. Ўсмирда рўй берадиган биологик ўзгаришлар натижасида унинг психик дунёсида туб бурилиш нуқтаси вужудга келади. Балоғат даврига 11-15 ёшли қизлар ва ўғил болалар кирадилар. Камолотнинг мазкур палласида жисмоний ўсиш ва жинсий етилиш амалга ошади. Ўсмирлик ёшида қизлар ва ўғил болаларнинг жисмоний қиёфасида муҳим ўзгаришлар рўй беради. Бу даврнинг бошланишида қизлар ўғил болаларга нисбатан тезроқ ўсиб улғаядилар. Бу нарса қиз болаларнинг эртароқ жинсий балоғатга етишига боғлиқдир. 6, 7- синфларда новча, салобатли бўлиб кўринадиган бўйчанг қизлар билан ёнма-ён паст бўйли, серхаракат ўғил болалар тез ўсиб, қиз болалар билан тенглашиб оладилар. Юқори синфга ўтганларида эса улардан ўзиб кетадилар. Ўсмирлик даврида ўғил болаларнинг бўйи 25-30см, қиз болаларнинг бўйи 18-20 см ўсади. Бу даврда тананинг интенсив ўсиши юзага келади. Маълумки, бўйига ўсиш, найсимон суяклар ва умуртқа поғонасининг узайиши хисобига рўй беради. Бу даврда найсимон суякларнинг охириги таянч қисмлари хали етарли даражада суяклашмаган, юмшоқ бўлади. Бу хусусиятларни назарда тутиш, ўсмирнинг спортнинг мураккаб оғир турлари билан шуғулланишига йўл қўймаслик керак. Акс холда боланинг умуртқа поғонаси қийшайиб, бўйи ўсмай қолиши мумкин. Ўсмирлик ёшининг иккинчи даврида юз суяклари, айниқса унинг умуртқа қисми (бурун, юқори жағ, ёноқ) жуда тез шакллана бошлайди. Юз кейинчалик қарийиб ўзгармайдиган муайян шаклга киради. Оғиз бўшлиғи ва халқум ўзгаради, бўғизда ҳам ўзгариш рўй беради: овоз пайлари узаяди ва кучаяди. Натижада ўсмирларнинг, айниқса ўғил болаларнинг овози йўғон ва паст бўлиб қолади. «Овознинг бузилиши» ёш болаларга хос ўткир, овознинг нисбатан паст, катталарга хос овоз билан алмашинувидир. Бироқ бу овозлар орасига хали боланинг ўткир овози қўшилиб ҳам туради. Катталар хазил билан ўсмирлар овозини «хўроз овози» деб атайдилар. Овознинг ўзгариши ўсмирнинг ўзини таажубга солади. Қизларнинг овози кескин ўзгармайди. Шундай бўлса-да қизларга хос ўткир, жаранглаган овоз аста-секин қизларнинг майин, текис ва нозик, салгина пасайган овозига ўз ўрнини беради. Ўсмирлик ёшида мускул системасининг ўсиши ҳам ўзига хос хусусиятларга эга. Мускуллар тез ўсиб, мустахкамланиб боради. Оёқ ва қўл суякларининг ўсишдан орқада қолади. Ўсмирларнинг мускуллари хали ингичка, нисбатан кучсиздир. Натижада ўсмирнинг гавдаси номутаносиб, харакатлари, юриши нотекис, бесўнақай бўлади. Оёқ товонлари тез ўсади. Оёқлар узун, мускуллар нозик бўлганидан

Ўсмир юришидаги бесўнақай бўлади. Ўсмирларда ўз мускулларини ўстиришга зўр иштиёқ туғилади. Улар оғир нарсаларни кўтардилар. Мускулларини ўстирадиган машқлар билан шуғулланадилар. Ўсмирлик даврида нафас олиш органлари жадал ривожланади. Муаммоли савол: Ўсмирлик давридаги жинс тафовутлари нималардан иборат? Ўғил болаларда 11 ёшда 1900-2000 мл; 15 ёшда 2600-2700мл шунинг учун нафас олиш хар дақиқада 2 марта камаяди. Ўғил болалар қорин билан, қизлар эса кўкрак билан нафас ола бошлайдилар. Кислародга очлик ўсмирнинг психик фаолиятига таъсир этиб, мия мускул системасидан фаркли равишда кислароддан бир неча марта кўп истеъмол қилади. Ана шунинг учун ҳам яхшилаб шамоллатилмаган ва кўп ўқувчи ўқийдиган синфхоналарда ўсмирлар тез чарчайдилар ва иш қобилиятлар тез сусаяди. Натижада бола дарсга кулоқ солиб ўтирмаслиги, интизомга риоя қилмаслиги мумкин. Ўсмирларнинг юракнинг хажми ва тириклик сиғими хар йили 25% катталашиб боради. Мазкур даврда тананинг умумий хажмидан 7-8%ни қон ташкил қилади. Қон босими бирмунча ошади, симоб устунининг 110-115 мм даражасида бўлади. Юрак қисқаришининг частотаси бир қадар секинлашади. Масалан, 11 ёшда дақиқада 85-90 марта урган бўлса, 14-15 ёшларда 70 мартагача пасаяди. Ўсмирларнинг жисмоний жихатдан ўсишида жинсий балоғатга етиш катта роль ўйнайди. Жинсий етилишнинг бошланиши кўп жихатдан иқлимга ва миллий-этнографик омилларга ва шу билан бирга индивидуал ҳаёт

хусусиятларига (соғлигига, бошдан кечирган касалликлар, овқатланишга, меҳнат ва дам олиш режимига, теварак-атрофдаги шароитга ва бошқаларга) боғлиқдир. Жинсий етилишнинг бошланиши даври ўғил болаларда 12-13 ёшга, қиз болаларда 11-12 ёшга тўғри келади. Кўпчилик ўғил болалар хозирги вақтда жинсий жихатдан 15-16 ёшда, қиз болалар эса, 13-14 ёшда етиляпдилар. Натижада бошқа жинсга қизиқиш ортади, орзу, хошиш, нозик туйғу, соғиниш, изтироб каби кечинмалар пайдо бўлади. Ўсмирлар жинсий, етилиш сирларининг 17%ни ота-онадан, 9%ни ўқитувчилардан, 4%ни мактаб врачидан ва қолган яширин жихатлари, холатлари тўғрисидаги маълумотларни кўча куйдан, ўртоқлари ва дугоналаридан эшитиб билиб оладилар. Шахснинг ахлоқий жихатдан интенсив таркиб топиши, хаттихаракатларининг ахлоқий этник номаларини ўзлаштириш ўсмирлик ёшининг муҳим психологик характеристикаларидандир. 2. Ўсмирлик ёшида фақат жисмоний тарақиёт юзага келмай, балки боланинг шахси ҳам сезиларли ривожланади. Бола шахсининг ривожланиши теварак-атрофдаги воқеликнинг таъсири ортида мактабдаги, таълим тарбия жараёнининг таъсирида, коллектив ва тарбиячиларнинг ғоявий раҳбарлиги остида амалга ошади. Ўсмирлик ёши хатти-харакатларида суяна бошлайдиган дунёқарашларнинг, маънавий эътиқод, принцип, қоида, идеаларининг, баҳолаш, мулохазалари системасининг таркиб топиши давридир. Агар кичик мактаб ёшидалик даврида у катталарнинг, яъни ўқитувчилар ва отаоналарнинг бевосита кўрсатмалари билан, ёки ўзининг

тасодифий ва импульсив истаклари таъсири билан ҳаракат қилган бўлса, эндиликда унинг учун ўз хатти-ҳаракатларининг принципи, ўзининг қарашлари ва эътиқодлари асосий аҳамият касб этади. Ўқитувчи ва тарбиячи шуни назарда тутиши лозимки, худди ана шу ёшда ахлоқий онг тараққиётига замин қўйилади. Ўсмир турли нарсаларни мутлақо аниқ дифференциаллайди. Агар танаффус пайтида ўйнаб туриб стулни синдириб қўйса ва уни устахонада тузатиш лозим бўлса, бу жазо эмас. Агар ўзининг ифлос қилган жойини супуришга мажбур қилинса бу ҳам жазо эмас. Буларнинг мантиқи ўсмир учун равшан, яъни бу жазоланмас эмас, балки хатти-ҳаракатларининг натижаларини тузатишдир. Психологлар ўз олдларига ўсмирлар маънавий онгининг мазмунини, уларнинг ахлоқий тушунчалари ва тасаввурларини ўрганиш вазифасини қўйганлар. Тадқиқотлар умуман ўсмирлар маънавий онгининг юксак даражада эканлигини кўрсатади. Ўсмирларнинг кўпчиликқисми ёшларга муносиб маънавий тушунчаларни тўғри тушунадилар. Бир неча мисоллар келтирамиз; қатъийлик-«бу, одам энг қийин ишларни амалга оширишга киришганда, унинг ҳеч қандай муваффақиятсизликдан қўрқмай ишни охиригача олиб боришида кўринадиган хусусиятдир» (12ёш) «қатъийлик яхши одамда ҳам ривожланади, аммо ёмон одамда ёмон ишларга, яхши одамда эса яхши ишларга хизмат қилади.» (12ёш) ўсмирлик ёшининг охирига келиб чуқур англашлик даражаси, албатта, сезиларли ўсади. «Камтарлик-бу, ўзига оқилона баҳо бера билиш, ўз-ўзига ва хаттиҳаракатларига нисбатан танқидий муносабатда бўлишдир». Эътиқод ва дунёқарашнинг таркиб топиши билан чамбарчас боғланган ҳолда ўсмирларнинг ахлоқий идеаллари ҳам юзага кела бошлайди. Бу идеаллар етарли даражада чуқур, мазмундор, фаолдир ва бу идеаллар ўзига хос ахлоқий эталон бўлиб хизмат қилади, ўсмир эса ўз хатти-ҳаракатларини ана шу эталон билан тенглаштиради. Кичик ёшдаги ўсмирлар учун одатда қандайдир конкрет бир киши идеал бўлади. Бу одам ўсмир юксак даражада баҳолайдиган сифатларни ўзида гавдалантирган бўлади. Кўпгина бундай идеал ота-оналар, ўқитувчилар ёки яхши кўрадиган китобидаги ва кинофильмидаги қаҳрамонлардир. 3. Ўсмирлар ўзларининг келажакдаги ҳаёт ва фаолиятларини ўз орзуларида лойихалаштирадилар. Катта ишлар ва қаҳрамонона касб кишилари фан ва меҳнат кишилари ўсмирларимизнинг ақл-хушини ўраб олгандир. Бу мамлакатимиз ҳаётидаги кенг ва чуқур ижтимоий ҳодисалар билан ҳозирги вақтдаги ҳақиқий қаҳрамонона ишлар билан боғлиқдир. Сўнгги йилларда ўсмирларнинг қаҳрамонлик ҳақидаги орзу ва умидлари тобора кўпроқ ўз ҳаётини фазони забт этишга, ракета техникасига, қувватнинг янги турларидан фойдаланишга, химия, физика, биология ва медицина соҳалари бўйича илмий тадқиқот ишлари олиб бориш билан боғланмоқда. Ўсмирларимизнинг орзулари уларнинг мамлакатимиз ҳаётида, ижтимоий фойдали фаолиятда қатнашиши учун бўлган иштилишлардан дарак бермоқда. Ўсмир ўғил болаларда жасорат кўрсатишига, олифталikka

мойил бўладилар. Бу нарса баъзан хатто жиддий равишда интизомни бузишга олиб келади. Улар: жассурлик ёки дадиллик бу, ҳаётни хавф остида қолдириб ҳаракат қилиш, нима учун бўлишидан қатий назар, бари-бир одамнинг энг хавфли ишга киришидан иборатдир деб ҳисоблайдилар. Бунда энг муҳими кўрқмаслик ҳеч кимга кераги йўқ мардликдир, лекин ҳар ҳолда мардлик. Оқилона кўрқоқликдан ахлоқона мардлик яхшидир. Бунга мисол тариқасида қўйидаги ҳаётий воқеани келтириш мумкин: мактаблардан бирида ўсмир болалар шундай бир машқни ўйлаб чиқаришган: тўртинчи қаватдаги балкондан учинчи қаватдаги балконга сакраб тушишарди, улар қўлда осилиб туриб, у ёки бу ёққа тебраниб, сўнг сакрашади. Нима сабабдан улар бу ишни қилганларини билиш учун директор бу болаларни ўз кабинетига чақирди. Даставвал болалар уришиб беришади деб индамай туришди, лекин бир оздан сўнг дадилланиб, бу қилган ишлари «жассурлик аттестати учун имтихон» эканини гапира бошлайдилар. Ким бу ишни қилган бўлса, у жассур, ким бу ишни қилмаган бўлса, у кўрқоқ. Жуда кўп ноҳуш минутларни бошдан кечирган директор болаларга бундай дейди: «Мана бундай десак, сизларга қандай туюларкин, кимки бу ишни қилган бўлса, у ахлоқ, агарда ким қилмаган бўлса, у ақлли». Болалар бунга шундай жавоб қайтаришди: «Нима ҳам дер эдик, мени кўрқоқ дегандан кўра, яхшиси ахлоқ деб ҳисоблаб қўя қолинг». Ўсмирлик ёшида, яъни одам шахс сифатида таркиб топаётган бир пайтда ўзини катталардек ҳис қилиши, катталарнинг иродаларга қарши тура олишини англаш муҳимдир. Катта ёшли ўсмирлардан бири ўқитувчининг олдида кечирим сўрашни талаб қилаётган директор билан бўлган суҳбатда мағрур равишда бундай дейди: «Мен принципал одамман, мен ҳаётимда ҳеч қачон ва ҳеч кимнинг олдида кечирим сўраган одаммасман!». Буларнинг ҳаммаси

ўзига хос ахлоқий дунёқарашдан иборатдир. Психологлар ўсмирларнинг характеристикалари билан танишганларидан сўнг шу нарса маълум бўлдики, ўсмирларнинг характеристикалари хатти-ҳаракатлари билан тўла мос келади, яъни уларнинг ахлоқий онги хатти-ҳаракатлари даражасига «ўсиб чиқиб», хатти-ҳаракатларни белгилайди. Сўнгги пайтларда Л.Н. Десев ўсмирларнинг ахлоқий тушунчалари мзмунини тадқиқот қилиб (А.Г. Ковалов раҳбарлиги остида), уларнинг ахлоқий категорияларни тушунишлари кўпинча юзаки, формал характерга эга эканлигини кўрсатиб берди. 4. Ўзини англаш эҳтиёжи ҳаёт эҳтиёжларидан ва амалий фаолиятларидан келиб чиқади. Ўзини англаш катталарнинг, гуруҳнинг ўсиб бораётган эҳтиёжлари билан белгиланади. Ижтимоий ҳаёт ва жамоага бўлган қизиқишнинг ривожланиши муносабати билан ўсмирларда ўз имкониятларига баҳо бериш, жамоада ўз ўрнини аниқлаш, хаттиҳаракатлари ва ўз шахсининг қандай хусусиятлари унинг олдида қўйиладиган талабларга юксак даражада жавоб беришга ёрдам бериши ёки ҳалақит беришини англаш эҳтиёжи пайдо бўлади. Ўсмирларда ўзини англашнинг ривожланиши уларнинг ўз хатти-ҳаракатларини англашларидан бошланади.

Дастлабки пайтларда ўсмирларнинг ўзини англаши асосида унинг хақида бошқа одамларнинг, катталарнинг (ўқитувчилар, отаоналарнинг), жамоанинг ва ўртоқларининг мулохазалари ётади. Кичик ёшдаги ўсмир ўзига гўё атрофдаги одамларнинг кўзи билан қарайди. Ёш улғайиши билан ўз шахсини мустақил таҳлил қилиш ва баҳолаш тенденцияси бошланади. Нихоят, шахснинг кўп томонлама муносабатларини ифодаловчи мураккаб синтетик сифатлар (бурч хисси, кадр-қиймат, ва виждон хисси, принципиаллик)англанади. Шахсни тобора кенгайиб борадиган сифатларини англашдаги бундай изчиллик маълум ва уни осонгина тушунтириб бериш мумкин. Ўсмирлик ёшига ўтиш ўқувчиларнинг ўқиш фаолиятидаги муҳим қайта ўзгаришлар билан боғлиқдир. Ўқиш фаолиятининг янги ва юқориқ босқичи унинг мустақиллик даражаси билан белгиланади. Д.Б.Эльконин, Т.В.Драгунова ва бошқа психологлар материалларининг кўрсатишича, ўсмирлик ёшининг дастлабки даврида ўқиш фаолияти таракқиётининг босқичларида жуда катта хар хилликни кузатиш мумкин. Мустақил ишларни элементар даражада ҳам ташкил қила олмайдиган, ниҳоятда паст, қуйи босқичдан бошлаб, мустақил ишлар фақат уй вазифаларини бажаришда кузатиладиган қатор оралиқ шакллардан ўтиб, янги материаллар ва хатто билимларнинг янги соҳалари (астрономия, механика, радиотехника) мустақил ўзлаштириладиган энг юксак босқичларни кузатиш мумкин. Ўсмирлик ёшининг бошланиши ўқиш фаолияти энг юксак босқичининг таркиб топа бошлаши билан боғланади. Ўсмир учун билиш эҳтиёжларини қондиришга қаратилган мустақил билим орттириш тарзидаги ўқиш фаолиятининг маъноси секин-аста очила бошлайди. 5.Вокеликка бўлган онгли муносабатнинг умуман ўсиши билан ўсмирларнинг ўқишга бўлган онгли муносабатлари сезиларли даражада кучаяди. Ўзларининг ўқиш фаолиятларида улар секин-асталик билан шахсий маъно касб этадиган хақиқий, чуқур билимлар билан янги муносабатларда боғланган янги, юксакрок босқичга кўтариладилар. Рус психологларининг тадқиқотлари шуни белгилаб бердики, ўсмирлар ўқиш фаолиятининг мотивлари мураккаб тузилишга эгадир. Ўсмирлар ўқиш фаолиятининг мотивлари таркибига кенг ижтимоий мотивлар (билим орттиришнинг ижтимоий жихатдан муҳим эканини англаш, мустақил ҳаёт ва меҳнатга тайёрланиш учун ўқиш зарурлиги), аслида муваффақиятга интилиш, иззат нафс билан боғлиқ бўлган билиш мотивлари ва шахсий мотивлар (болалар жамоасида обрў қозонишга интилиш ва раҳбарлик ролини ўйнаш) бирга кўшилиб кетгандир. Бунда баъзан қарама-қаршилик кузатилади. Билим орттиришга бўлган интилиш мактабдаги ўқишга бефарқ ёки хатто салбий муносабатда бўлиш билан, мактабдаги баҳоларга «хушчакчақ-менсимаслик» (Д.Б.Эльконин) муносабати билан аралашиб кўшилиб кетиши мумкин. Бу ўқишдаги у ёки бу хилдаги муваффақиятсизликка, ўқитувчи билан бўлган низога нисбатан ўзига хос реакция бўлиши мумкин. Ўсмир одатда ўзининг ўқишдаги муваффақиятсизликларини

қаттиқ ичдан кечиради, лекин унинг иззат нафси баъзан бу муваффақиятсизликка бўлган хақиқий муносабатни ниқоблаш хошишини туғдиради. Натижада ўқувчи ўқишдаги муваффақиятларга ўзини мутлақо бефарқдек ва бепарводек тутди, хатто сохта мардлик кўрсатмоқчи бўлади. Ниҳоят, ўсмир хотирасининг ўзига хос хусусияти анча мураккаб ассоциацияларни, янги материалнинг эскиси билан боғланишини аниқлаш, янги материални билимлар системасига киритишдир. Ю.А.Самарин ва унинг ходимлари билимлар тизимини таркиб топтириш жараёни хар хил даражадаги ассоциацияларни белгилаб олишга аосланишини аниқлаганлар. Ўсмир кичик мактаб ёшидаги бола учун характерли бўлган айрим ассоциациялар (Ю.А.Самариннинг фикрича, локал ассоциациялар) ва алоҳида системали ассоциациялар (бир-биридан ажралган холда мавжуд бўладиган алоҳида масалаларга доир хусусий билимлар) хосил килишдан анча юкори даражада-фанлар ичидаги (системалар ичидаги) ассоциацияларни (ўқув предмети ичидаги билимларини акс эттирувчи ассоциацияларни) таркиб топтириш даражасига ўтади, ўсмирлик ёшининг охирида энг юксак даражага-фанлараро (системалараро) ассоциацияларга ўтиш учун шароит яратилади. Бу турли ўқув предметларининг материалларини бир-бири билан боғлаш, хар хил фанлардан бериладиган билимларнинг умумийлигини, бирлигини тушуниш имконини беради. Диққатнинг таракқий этиши маълум зиддиятлари билан: бир томондан, ўсмирлик ёшида барқарор, ихтиёрый диққатнинг таркиб топиши билан, бошқа томондан, ўсмирдаги таассуротлар, кечинмалар, жўшқин активлик ва импульсивлик кўпинча беқарор диққатга олиб бориши билан, унинг тез чалғиши билан ажралиб туради. Ҳамма нарса иш шароитига, материалнинг мазмунига, ўқувчининг кайфияти ва психик холатига, унинг ишга бўлган муносабатига боғлиқ бўлади. Диққатнинг танловчилик қобилияти, яъни унинг турлича характеристикаси ўша нарсага бўлган қизиқиш кўлами ва даражасига боғлиқ бўлиши ўсмирда жуда яққол ифодаланган. Бу дарсда (узи ёқтирмаган дарсда) эътиборсиз ва паришонхотир бўлиб ўтирган ўқувчи бошқа, ўзи яхши кўрган дарсда ниҳоятда, хушёр, фикрини бир ерга тўплаб олиб, ҳеч нарсага мутлақо чалғимасдан бемалол ишлаши мумкин. Тадқиқотлар шуни курсатдики, ўсмирлик ёшида диққатнинг кулами, шунингдек, диққатни бир операциядан бошқа операцияга каратиш, фаолиятнинг бир туридан бошқа турига жалб этиш қобилияти сезиларли даражада ортади. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчилардан фаркли уларок, ўсмир учун одатда уз фаолиятини узгартиришга қандайдир алоҳида психологик тайёргарлик куриш талаб этилмайди. Диққатни ташкил этишининг энг яхши усули ўқитувчининг қандайдир алоҳида усулларни кулланишга эмас, балки ўқиш фаолиятини ўсмирда диққатни узок вақт мобайнида бирор нарсага чалғитиш учун на вақт, на истак ва на имконият қолмайдиган қилиб уюштира олишига боғлиқдир. Қизиқарли иш, қизиқарли дарс ўсмирни шунчалик қамраб олишга қодирки, у жуда узок вақт давомида зўр иштиёқ билан ишлайди.

Шуниси ҳам борки, ўсмир учун қизиқарли бўлган нарса-ҳамиша ҳам шунчаки қизиқарли нарса эмас. Ишнинг бир туридан бошқа турига вақти-вақти билан ўтиб туриладиган мазмунли машғулотлар, актив билиш фаолияти, ана шу нарса дарсни ўсмир учун қизиқарли дарсга айлантиради, ана шунинг ўзи унинг диққатини уюштиришга ёрдам беради. Н.Ф.Добрынин ва унинг ходимларининг тадқиқотлари шуни кўрсатадики, ўсмирлар иродавий зўр бериш билан ушлаб туриладиган ихтиёрий диққатдан кейинги диққат деб аталадиган диққатга тобора кўпроқ ўтиб бормокдалар. Бу диққат олдиндан уйлаб қуйилган ва муайян мақсадга қаратилган диққат бўлиб, ишга «кашфиётлар»га бўлган қизиқишнинг аста-секин ортиб боиши асосида юзага келади, шунга кўра ҳам бу диққатни тутиб туриш учун иродавий куч сарфлаш талаб этилмайди. Ўсмирлик ёшида фикрлаш фаолиятида муҳим силжишлар юз беради. Кичик мактаб ёшида эришилган тафаккур тараққиётининг даражаси ўсмирга фан асосларини муваффақиятли ва системали ўрганиш имконини беради. Ўрганиладиган фанларнинг мазмуни ва ўқув курслари тузилишининг мантики билимларни узлаштиришнинг янги характерини, мустакил тафаккурга таянишни талаб этади, абстракциялаш ва умумлаштириш, таққослаш, мулоҳаза юритиш, хулосалар чиқариш, исботлаш қобилияти зарур бўлади. Бирок, шуни назарда тутиш керакки, ҳамма ўсмирлар ҳам исботловчи тафаккурга осонгина утавермайдилар. Улардан баъзиларига, масалан, умумлаштирилган геометрик исбот гоясининг узи тушунарли булмайди: узингнинг ҳақ ёки ноҳақ эканлигини куриб туриб ишонч ҳосил қилганидан кейин исботлаб утиришнинг нима керакки бор? Ўсмирлардан бири ҳайрон бўлиб, бундай деб жавоб берган: «Ўқитувчи доскага иккита тенг учбурчакни чизади ва уларнинг тенг эканлигини узок вақтгача тушунтириб ўтиради». Умумлаштирилган ва муҳокамали тафаккурни тараққий эттириш учун математикани ўқитиш жуда муҳимдир. Алгебрани системали тарзда ўргана бошлаш умумлашмани умумлаштириш билан боғлиқ бўлган юқорирок даражасига ўтишга ёки икки баравар абстракцияга ўтишга рағбатлантиради (арифметика предметидан сони абстракциялашдир). Геометрияни ўрганиш фикрлаш, исбот қила билиш, мантиқан қатъий асослаш кўникмаларини ўстиради.

Назорат саволлари

1. Ўсмирлик даврининг асосий хусусиятлари нимадан иборат.
2. Ўсмирлик ёшидаги жисмоний тараққиётнинг энг муҳим фарқи нимадан иборат.
3. Ўсмирларда қандай ижобий ва салбий салбий хислатлар бор.
4. Ўсмирлар билан катталар ўртасидаги ўзаро муносабат.
5. Ўсмирнинг психологик хусусиятларини тавсифлаб беринг.

Адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Т, «Ўзбекистон» 1997 й
2. Каримов И.А.Юксак маънавият –енгилмас куч.Тошкент, Маънавият 2008.
3. Шавкат Мирзиёев “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биркалиқда барпо этамиз.” Тошкент “Ўзбекистон” 2016 йил.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимиға киришиш тантанали маросимға бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи.Шавкат Мирзиёев “Қонун устиворлиғи ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиғининг гарови” 2016 йил 7 декабр .Тошкент,
5. Шербаков А.И. Ёш психологияси ва педагогик психология Т.: 1991 й
6. Давлетшин М.Г., Тўйчиева С.М. Умумий психология Т.: 2002 й
7. Тўйчиева С.М.«Мактаб битирувчиларининг маънавий қиёфаси» Тошкент,2000 й
8. Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма.Тошкент,2004..
9. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология:дарслик.1-2-китоб. Тошкент, 2002.
10. Ғозиев Э.Ғ. “Онтогенез психологияси” “Ворис”, Тошкент.2006.
11. Ғозиев Э.Ғ. “Умумий психологияси” дарслик “Университет”, 2006
12. Нишонова.З, Қурбонова.З, Абдиев.Ф ”Психодиагностика ва экспериментал психология” “Тафаккур бўстони”. 2011.
13. Умаров.Б “Психология” дарслик “Ворис”, 2012

Электрон таълим ресурслари

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psycho.all.ru
3. www.psychology.net.ru
4. www.psy.piter.com

8 Мавзу: О‘спиринлик yoshining psixologik xususiyatlari

Режа

1. Ўспирин - ижтимоий психологик ҳодиса сифатида.
2. Мулоқот ва эмоционал ҳаёт.
3. Жамоатчилик ишларидаги фаолиги ва дунёқарашнинг шаклланиши.
4. Ҳаётий режалар ва касб танлаш.
5. Ўспиринларда дўстлик ва севги-муҳаббат.

Таянч сўз ва иборалар:

Ўспиринлик, ижтимоий ҳаётдаги фаоллик, ташхис маркази, ўз-ўзини англаш, севги-муҳаббат ва дўстлик ҳислари.

1. 15 ёшдан 18 ёшгача бўлган давр ўспиринлик давридир. Ўспиринлар 8-10 синф ўқувчилари бўлиб, улар олдида келгусида ким бўлиш, қандай фаолият тури билан шуғулланиш керак деган ташвиш туради. Бу ёшдаги болалар ўсмирлардан фарқ қилади. Агар ўсмирликда ўқувчининг асосий фаолияти ўқиш бўлган бўлса, юқори синф ўқувчиларининг фаолияти ўқиш, билим олиш ва меҳнатга тайёрланишдан иборат бўлади. Ўспиринлик даврида ўқув фаолиятининг мураккаблашиши, уларнинг янги жамоада тутган ўрни улардан кўп нарса талаб қилади. Ўспиринларнинг мактаб ҳаётида, оилада тутган мавқеи ўзгаради, яъни ўзидан кичикларга нисбатан бошлиқ, ташкилотчи ва тарбиячи бўлиш талаб қилинади. 18 ёшда катталиқка эришади. Организмнинг ўсиши тўхтабди, «тинч» давр бошланади. Органларнинг таркиб топиши ва организм тўқималарининг такомиллашиши ниҳоясига етади. Жисмоний ривожланиш шахснинг баъзи бир хусусиятларини ва бундан кейинги ҳаётий фаолиятини белгилашга таъсир кўрсатади. Йигит ва қизларнинг 17-20 ёшларида организм нормал ривожланишига ва унга мос келадиган иш билан банд қилиш мақсадга мувофиқдир. Улар организмдаги ўзгаришлар оғирлигига ва бўйига хос бўлиши билан бирга ўпка, юрак, қон томирларига, нерв системасининг фаолиятига ҳам таъсир этади. Ўспиринларда юрак чарчаши-харсиллаш, юракнинг тўхтаб-тўхтаб ишлаши каби холлар аста-секин йўқолиб беради. Бунинг учун жисмоний меҳнат, ақлий фаолият ва дам олишнинг тўғри йўлга қўйилиши катта аҳамиятга эга. Бу даврда уларнинг нерв системаси ривожланади ва катта кишиларнинг мия

пўстлоғи хусусиятига аста-секин яқинлашади. Бош мия пўстлоғининг атрофларида нерв боғланишларининг сони кўпаяди. Ўқиш ва меҳнат қилиш натижасида бош мия ярим шарларида аналитик ва синтетик фаолият ривожланади. Бу ҳолат ташқи таъсирни аниқ ажрата оладиган хусусиятни ўстиради. Фарқ қилиш характеридаги тормозланиш вужудга келтиради. Бу даврга келиб ўқиш машғулоти анча мураккабланиши: бир қатор янги фанлар ўқитила бошлади, дарс мазмуни кенгаяди, мураккабланиши, билим, ҳаёт, амалий ишлар кўшиб олиб борилади, ўқувчилар ишлаб чиқариш жамоасида бўлади, экскурсияларга, кўрсатмаликка, алоҳида эътибор берилади. Бу даврда назорат билимлар, амалий ишлар билан кўшиб ўрганилади. Ўқувчилардан материални тушуниш ва уни ҳаётга тадбиқ эта билиш талаб этилади. Бола бу ёшда ўзини анча эслик хис қилади, тажриба ортади ва билимларини мустақил ҳаётга тадбиқ эта бошлади. Бу эса уларнинг дарсга бўлган муносабатларини ўзгартиради. Бу даврга келиб ўзларига маъқул бўлган бирор фанни танлайдилар. Бундай хусусиятларни ўсмирларда ҳам учратиш мумкин, лекин бунда алоҳида фанларга бўлган қизиқиш кўпроқ ўқитувчининг маслаҳати билан боғлиқ бўлса, юқори синф ўқувчиларидаги қизиқиш уларнинг эҳтиёжлари, интилишлари асосида таркиб топади. Баъзан улар шошма-шошарликка йўл қўядилар ва натижада ходисалар ҳақида нотўғри фикр юритиб, нотўғри хулосалар чиқарадилар. Юқори синф ўқувчиларининг ўз атрофларини, ўраб олган воқеликни билиб олишга бўлган интилиши уларда дунёқарашнинг таркиб топишига шароит яратади. Улардаги назарий билимларнинг ортиб боришида синфдан ташқари ишлар, тўғараклар ижобий таъсир кўрсатади. В.А. Крутецкий, И.Н. Лукин юқори синф ўқувчиларининг билим эгаллашидаги ақлий индивидуал фаолиятнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисида тўхталиб, бу борада ўқувчиларни асосан 4 гуруҳга бўлади. 1) Юқори даражада ўзлаштирувчи ўқувчилар. Булар билим олишда мустақиллик, ташаббускорлик кўрсатмайдилар. Ўқув материални дарсликдан ёдлаб оладилар, материални ўқитувчи сўраб қолганда жавоб бериш учунгина ўрганадилар. Агар материал «қийин» бўлса, уни бутунлай ўрганмайдилар. Бу билимларни ўргана билмайдилар, ўқувчиларга ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган мактабларда ўқиш қийин бўлади. Бу гуруҳ ўқувчиларининг баъзилари 1X синфгача аълочи бўлиб келиб, кейин оғир ахволга тушиб қолади бундай ўқувчилар билан кўпроқ индивидуал иш олиб бориш лозим. 2) Ўқиш фаолиятида амалий қобилиятлари борлиги сезилиб турадиган ўқувчилар бўлиб, қийин масалани ўрганишга, уни амалда синаб кўришга ҳаракат қиладилар. Дарслар тўғри йўналтирилса, бу гуруҳ ўқувчиларининг дарсга бўлган қизиқишини ошириш мумкин. Уларга ҳар-хил дарс усулларида фойдаланиб амалиётда назарий билимнинг аҳамияти катта эканлигини тушунтириш керак. 3) Бу ўқувчилар назарияга жуда ҳам берилиб, амалий ишларга аҳамият бермайдилар. Улар кўп фикр юритади. Лекин ўз фикрларини амалда синаб кўришдан қочади.

Уларнинг фикрлашларида умумлаштириш, абстракция қилиш устун туради, шунга қарамай конкретлаштириш хусусияти паст даражада бўлади. Улар яхши гапиради, исботлаб беради, яқунлар ясайди, ақлий фаолият билан кўпроқ шуғулланади, ўз билимини мустақил кенгайтиришга ҳаракат қилади, лекин назарияни амалиёт билан боғлай олмайди. Бу гуруҳга ижтимоий фанларга қизиқувчиларни ҳам киритиш мумкин. 4) Бу ўқувчилар ўқиш фаолиятида назария билан амалиётни бирга қўшиб олиб борадилар. Уларнинг билими кенг бўлади, улар фикр юритишини, татбиқ қилишни билади, жамоат ишида фаолдир. Лекин бу гуруҳ ўқувчилари ҳамма нарсага баробар қизиқадилар-у, алоҳида бир нарсага чуқурроқ қизиқмайди. Катта мактаб ёшида шахснинг маънавий кучлари интенсив ривожланади, унинг маънавий қиёфаси таркиб топади, характер хислатлари аниқ бўлади, дунёқараши шаклланади. Катта мактаб ёшида шахснинг ривожланишига унинг мактабда, оилада, ижтимоий муносабатлар системасида тутаётган мавқеининг ўзгариши хал қилувчи таъсир кўрсатади. Мактаб ўқувчиси бўлган ўсмирнинг фаолияти асосан ўқиш фаолиятидан иборат бўлиб, у мактаб доираси билан чеклангандир. Ўсмирнинг ижтимоий фаолияти ҳам одатда мактаб ичида рўй беради. Катта ёшдаги ўқувчи эса бошқачароқ бўлади. Катта мактаб ёшидаги ўқувчи ўсмирдан фарқли ўлароқ ўзидаги оддий, сезиларли равишда намаён бўладиган шахсий сифатларнигина эмас, балки шахснинг кўп қиррали муносабатларини характерловчи анча мураккаб сифатларни англашга қодирдир. Ўсмир ўзининг ҳозирги аҳолига мувофиқ равишда ўзига баҳо беради. Ўсмир ўзича «Мен мактаб жамоасининг аъзоси» сифатида қандайман деб савол беради. Катта мактаб ёшидаги ўқувчи эса ўзига «Мен келгуси мустақил ҳаёт учун қандайман? Мен яроқлиманми?» - деб савол беради. Катта мактаб ёшидаги ўқувчиларда ўзини англаш асосида ўз-ўзини тарбиялаш одатда хатти-ҳаракатлардаги айрим камчиликларга барҳам беришига ёки баъзи бир ижобий сифатларини ривожлантиришга қаратилибгина қолмасдан. Шу билан бирга шахсни умуман, йигит ва қизларда вужудга келадиган умумлаштирилган идеалларга мувофиқ равишда таркиб топтиришига ҳам қаратилган бўлади. Олимлар айрим йигит ва қизлар физиологиясини, генетика назариясини ўрганар эканлар одам организми ва психикасидаги кўп нарсалар туғма бўлади, деган хулосага келадилар. Албатта, агар ана шу йигит ва қизларга қарашларнинг хато эканлиги кўрсатиб берилмаса, ўқувчилар ўз-ўзини тарбиялашнинг қайта имкониятларини борлигига ишонтирилмаса, одам ўз-хатти-ҳаракатлари учун ўзи жавобгар эканлигига ишонтирилмаса, уларни ўз-ўзини тарбиялашга ундаш қийин нарса, у натижа ҳам бермайди. Шунинг назарда тутиш керакки, катта мактаб ёшидаги ўқувчилар баъзан ўзларида бирон бир сифатни ногўфри усуллар билан ривожлантиришга ҳаракат қиладилар. Ўспиринлар сохта кўрқмасликлари билан ўзларини ботир қилиб кўрсатишга, беихтиёр хатарли хатти-ҳаракатларга мойил бўладилар. Улар ўзларида кўрқмасликни, иродани тарбиялашмоқчи

бўлиб, электр симининг очик, жойларини ушлайдилар баланд қирғоқдан дарёга сакраб ҳаётларини ҳавф остида қолдирадилар. Катта мактаб ёшидаги ахлоқий ривожланишда эътиқоднинг, ахлоқий онгнинг роляси кучайиб бориши билан ажралиб туради. Катта мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг хулқ-атвори ўсмирлар хулқ-атрофига қараганда кўп даражада уларнинг ахлоқий тасаввурлари ва тушунчалари билан ахлоқий установкалар ҳамда эътиқод билан белгиланади. Худди ана шу ёшда турли шароит ва вазиятларда кишининг ўзини тўғри тута билиши таркиб топади. Катта мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг ахлоқий онги уларнинг жамиятдаги ҳаёти ва фаолияти таъсири остида, жамоанинг ижтимоий ҳаётида фаол иштирок этиши таъсири остида ривожланади, одатда ўқувчилар ахлоқий категорияларнинг мазмуни ва моҳиятини анча чуқур тушуна бошлайдилар. Катта мактаб ёшидаги болалар кўпгина ахлоқий тушунчаларнинг ижтимоий жиҳатдан кўп маъноли эканлиги билан боғлиқ бўлган энг нозик томонларини ҳам севишга қодирдирлар. Бурч, виждон, шахсий ғурурлик ва ўзининг қадр-қимматини билиш туйғулари ҳақидаги энг мураккаб тушунчалар юқори синф ўқувчиларини чуқур ва ҳар томонлама тушуниб олиш етарлидир. Катта мактаб ёшидаги нотўғри ва етилмаган ахлоқий тушунчалари тўғрисида турли вақтларда психологлардан А.С. Алякринская, В.И. Селиванов, И.М. Красноваев, Н.С. Лукин ва бошқалар гапириб ўтганлар. В.И. Браскийнинг берган маълумотларига қараганда бурч, виждон, уятсизлик, адоласизлик, фахрланиш каби ахлоқий тушунчаларнинг мазмунини текшириб чиқилган ва ўрта мактабни битирувчи ўқувчилардан 44,5% гина бу ҳисларни бир қадар тўғри ёритиб берган. Т.Н.Мальковскаянинг берган маълумотларига қараганда, юқори синф ўқувчиларидан 94% виждонлилиқни маънавий фазилат деб юқори баҳолаганлари ҳолда ўқитувчиларва ота-оналарни алдаш мумкин, деб хисоблайдилар. Катта мактаб ёшидаги балоғатга етганлик туйғуси ўзига хос ўзгаришга учрайди. Бу туйғу чуқурроқ ва жиддийроқ бўлиб қолади. Катта мактаб ёшидаги ўқувчилар ўзларининг балоғатга етганлигини ерга уришларига, ўзларига болалар каби муносабатда бўлишларига, ўсмирларга қараганда хали камроқ мураса қилишга мойилдирлар. Катта мактаб ёшидаги болалар катта бўлиб қолганлик туйғуси ўзига хос характерга эга бўлади. Катта мактаб ёшида ўқувчиларнинг катталар билан тенг ҳуқуқли эканлигини ҳақиқий равишда ёки сохталик билан тан олмаслик туфайли келиб чиқадиган низоларнинг кескинлиги бироз йўқолади. 16 ёшда ўқувчи паспорт олади, унинг кино ва театрга боришидаги чеклашлар камаёди. Катта мактаб ёшидаги ўқувчи кўп ўтмай 18 ёшга тўлиб, сайлаш ҳуқуқига, никоҳдан ўтиш ҳуқуқига эга бўлади. Бу йигит ва қизларнинг катта бўлиб қолганлигини эътироф қилишнинг объектив

белгиларидир. Кейинги вақтларда психологлар қизиқарли фактни аниқладилар.

Биринчидан, юқори синфдаги ўқувчи қизлар, ўсмир қизлар сингари , ўғил болалар

ва ўспиринларга қараганда катталарнинг таъсирига кўпроқ берилишига

мойилдирлар. Катта мактаб ёшидаги ўқувчи шахсининг таркиб топишига тенгдош жамоаси таъсир кўрсатади. Жамоа умумий мақсадни, жамоа ўзаро муносабатларини, шахсий ва ижтимоий манфаатлар ўртасидаги ахлоқий муносабатларни, шахсий ва ижтимоий манфаатлар ўртасида ахлоқий муносабатларни ривожлантиришда муайян таъсир ўтказади. Мустақил меҳнат фаолиятига ўтиш истиқболнинг таъсири остида катта мактаб ёшидагилар учун характерли бўлган келажак мақсадлар сари йўналиш таркиб топади. Катта мактаб ёши ҳаётда ўз-ўзини аниқлаб олиш ёши бўлиб, бу вақтда ўқувчи ўзининг меҳнатдаги истеъдодини жиддий равишда излай бошлайди, унда ўзининг келажакдаги касбини белгилаб олиш интилиши пайдо бўлади. Хозирги энг долзарб муаммолардан бири олий ўқув юртлиридаги таълим-тарбия ишлари самарадорлигини кескин оширишдан иборатдир. Чунки Республикамининг ривож, равнақи ва истиқболи кўпроқ олий мактаб тайёрлаётган мутахассисларнинг маҳоратига боғлиқдир. Шунинг учун ўқитишнинг илғор, фаол усулларини қўллаш, оқилна воситалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Олий ўқув юртлиридаги таълим-тарбия жараёнларини самарали амалга ошириш учун талабалар билан ўқитувчилар ўртасида узлуксиз таъсир кўрсатиш ҳукм суриши лозим. Ўқитувчи билан талабанинг ҳамкорлигидаги фаолияти негизда тарбия ишларини тўғри йўлга қўйиш муаммоси ётади. Бу муаммо олий мактаб психологиясида жуда кам тадқиқ қилингани сабабли худди ана шу муаммо юзасидан кенгроқ мулоҳаза юритиш мақсадга мувофиқдир. Тадқиқотларда талабалар деганда моддий ва маънавий ишлаб чиқаришдаги ижтимоий ҳаётга ва мутахассисликка оид рольларни муайян қоида ва маҳсул дастур асосида бажаришга тайёрланаётган ижтимоий гуруҳ тушунилади. Олий ўқув юртидаги таълимнинг ўзига хос хусусиятлари талабаларининг бошқа ижтимоий гуруҳлар билан (улар хоҳ расмий, хоҳ норасмий бўлишидан қатъий назар) мулоқотга киришиш учун муҳим имконият яратади. Талабалик даврининг асосий хусусиятларидан бири ижтимоий етукликнинг жадал суръат билан рўёбга чиқишидир. Маълумки, ижтимоий етуклик (камолот) шахсдан зарур ақлий қобилиятини ҳамда ижтимоий турмушда бажариладиган турли рольларни эгаллашга (оила қуришга), фарзандни тарбиялашга, фойдали меҳнатда қатнашишга (масъул вазифада ишлашга) тайёрланишни талаб қилади. Мазкур жараённинг бош мезонлари ва кўрсаткичлари ўрта маълумотлилик, жамоатчилик, мутахассис бўлиш имконияти учун унга интилиш тўғрисида иродаВИЙ зўр бериш, ёш оталик ва оналик бурчи, жамоат арбоби вазифасини ўташ, ижтимоий гуруҳга раҳбарлик қилиш, спорт билан шуғулланиш, бўш вақтни ташкил эта олиш, тўғаракда қатнашиш ва ҳаказолардан иборатдир. Талабалик даври ўсмирликнинг иккинчи босқичидан иборат бўлиб 1722 (25) ёшни ўз ичига олади ва ўзининг қатор бетакрор хусусиятлари ва қарама-қаршиликлари билан характерланади. Шу боисдан ўспиринлик даври шахсининг ижтимоий ва касбий

мавқеини англашдан бошланади. Мазкур паллада ўспирин ўзига хос рухий инқироз тангликни бошидан кечиради, жумладан катталарнинг хар-хил кўринишдаги (унга ёкиш ёки ёкмаслигидан қаётгий назар) рольларни тез суратлар билан бажариб кўришга интилади, турмуш тарзининг янги жихатларига кўника бошлайди катта одамларнинг турмуш тарзига ўтиш жараёни шахснинг камол топиш хусусиятларига боғлиқ ички қарама-қаршиликларни келтириб чиқаради. Педагогик психология фанидан маълумки, ўрта мактаб ўқувчиларининг (биологик, физиологик, педагогик-психологик) жихатдан олий мактаб таълимига тайёрлайди ва уларда умумлаштириш, мавҳумлаштириш, системалаштириш каби қобилиятлари кўринадиган фазилатлари намаён бўлади. Шу билан бирга ўспиринларда ақлий, ахлоқий, эстетик,ғоявий сиёсий жихатидан муайян даражада ўсиш рўй беради. Шунга қарамай улар олдида ўқув юртида мутахассисликни эгаллаш билан боғлиқ янги вазифалар пайдо бўлади. Хозирги фан техниканинг ривожини бир томонлама барқарор қизиқишнинг йўқолишига олиб келади, чунки қатъийлик, ижодий изланиш, иродавий, зўр бериш ўрнини лоқайдлик, фаолиятсизлик эгаллайди. Бошқача айтганда улар тайёр ахборотларнинг қулига айланадилар, чунки компьютер, дисплей ЭХМ, калькуляторлар инсон ақлий меҳнатини енгиллаштиради, уларни ақлий зўр беришда халос қилади. Ана шулар сабабли олий ўқув юрти таълими олдидаги муҳим вазифа талабаларга дастурдаги билимлар мажмуасини беришдир. Талабаларга мустақил билим олиш, ўз фаолиятини ўзи ташкил қилиш, ўзини-ўзи бошқариш, янги ғояларни ишлаб чиқиш ва хоқозоларни ўргатиш муҳим аҳамиятга эга. Бу вазифаларни амалга оширишнинг асосий омили монологик маъруза шаклидан диологик (талаба ва ўқитувчининг мулоқотига асосланган) маъруза шаклига ўтиш зарур. Психологлардан Б.Г. Ананьев, Н.В. Кузимица, Н.Ф. Тализина, В.Я.Ляудис, И.С. Кон, В.Т Лисовеский, А.А. Бодолев, А.В. Петровский, М.Г.Давлетшин, И.И. Илғасов, А.В. Димитрева, З.Ф.Есарова, А.А.Вербицкий, В.А. Токарева, Э.Ф.Ғозиев ва бошқаларнинг тадқиқотларига кўра, олий ўқув юртларида таълим олиш талабалар учун жуда оғир кечади, чунки бу даврда шахснинг мураккаб фазилатлари, хислатлари, сифатлари, такомиллашиш босқичида бўлади. Мазкур ёш давридаги ижтимоийпсихологик ўсишнинг хусусиятларидан бири ўқиш

фаолиятининг онгли мотивлари кучайишидир. Талабаларда ахлоқий жараёнларнинг ўсиши суст амалга ошса-да лекин хулқнинг энг муҳим сифатлари мустақиллик, ташаббускорлик, топқирлик, фаросатлилик ва хоқозолар такомиллашиб боради. Шунингдек уларда ижтимоий-холларга, воқеликка ахлоқий қоидаларга қизиқиш, уларни ангалшга интилиш тобора кучаяди. Психологларимизнинг тадқиқотлари шахс ҳаёти тажрибасини эгаллашида унда ўзлигини англаш вужудга келишини, жумладан, шахсий ҳаётининг мазмунини англаши, аниқ турмуш режаларини тузиш, келажак ҳаёт йўлини белгилаши ва хақозолар амалага ошишини кўрсатади. Талаба аста-секин микроғурухнинг

нотаниш шароитларига кўникиб боради, ўзининг ҳаққи-ҳуқуқлари ва мажбуриятларини била бошлайди, шахслараро муносабатининг янгича кўринишини ўрнатади, турмушдаги ижтимоий ролларни амалда синаб кўришга интилади. Улардаги романтик хис-туйғулар воқеликка муайян ёндошишига бирмунча ҳалақит беради. Чунки улар турмушдаги ютуқлар ва муваффақиятсизликнинг ижтимоий-психологик илдизлари нимадан иборат эканлиги тўғрисида аниқ тасаввурга эга бўлмайдилар. Ёш физиологияси ва психологияси фанларида тўпланган материаллар таҳлилидан кўринадикки, талаба 17-19 ёшда ҳам ўз хулқи ва билиш фаолиятини онгли бошқариш имкониятига эга бўлмайди ва шунга кўра хулқ мотивларининг асосланмаганлиги, узоқни кўра олмаслик, эҳтиётсизлик каби ҳолатлар руй беради. В.Т. Листовскийнинг фикрича, 19-20 ёшларда айрим салбий хатти ҳаракатлар кўзга ташланади. Мазкур ёшда хоҳиш ва интилиш ирода ва ҳарактердан анча илгарилаб кетади. Бунда одамнинг ҳаётий тажрибаси алоҳида роль ўйнайди, чунки талаба шу тажриба етишмаслиги натижасида назария билан амалиётни, фантазия билан реалликни, романтика билан экзотикани, ҳақиқат билан иллюзияни, орзу билан хоҳишни, оптимизм билан қаттиқликни аралаштриб юборади. Талабалик йилларида ёшларнинг ҳаёти ва фаолиятида ўзини ўзи камолатга етказиш жараёни муҳим роль ўйнайди, лекин ўзини бошқаришнинг таркибий қисмлари (ўзини-ўзи таҳлил қилиш, назорат этиш, баҳолаш, текшириш ва бошқалар) ҳам алоҳида аҳамият касб этади. Идеал (юксак, барқарор, баркамол) «мен»ни реал «мен» билан таққослаш орқали ўзини-ўзи бошқаришнинг таркибий қисмлари амалий ифодага эга бўлади. Талабанинг нуқтаи-назарича, идеал «Мен» ҳам муайян мезон асосида етарли даражада текшириб кўрилмаган, шунинг учун улар гоҳо тасодифий, ғайритабиий хис этилиши муқаррар, бинобарин, реал «мен» ҳам шахснинг ҳақиқий баҳосидан анча йироқдир. Талаба шахснинг такомиллашувида бундай объектив қарама-қаршилиқлар ўз шахсиятига нисбатан ички ишончсизликни, ўқишга нисбатан эса салбий муносабатни вужудга келтиради. Жумладан ўқув йили бошида талабада кўтаринки кайфият, олий ўқув юртига кирганида завқу-шавқ туйғуси кузатилса, таълимнинг шартшароитлари, мазмуни, моҳияти, кун тартиби, муайян қонун ва қоидалари билан яқиндан танишиш натижасида унинг руҳиятида кескин тушкунлик рўй беради. Юқорида айтилган ички ва ташқи воситалар, омиллар таъсири оқибатида унинг руҳий дунёсида умидсизлик, руҳий парокандалик кайфияти, яъни истиқболга ишончсизлик, иккиланиш, ҳадиксираш, каби салбий хис-туйғулар намаён бўлади. Бизнингча олий мактабда тарбия ишларини режалаштиришда таълим жараёнида талабага ўзига хос муносабатда бўлиш

мазкур даврнинг муҳим шартларидан биридир. Юқорида айтилганидек йигит ва қизларни олий ўқув юртига қабул қилиш уларда ўз кучлари, қобилиятлари, ақл-заковатлари ички имкониятлари ва иродаларига қатъий ишонч туғдиради, ана шу ишонч ўз навбатида тўлақонлик ҳаёт ва фаолиятини уюштиришга умид

хистуйқуларини вужудга келтиради. Ўспиринликнинг иккинчи даври хулққа, воқеликка баҳо бериш имкониятидан ташқари талаб қўйиш ва қатъиятлилик хусусияти билан фарқланади. Шунинг учун талабалар ҳар доим принципиал бўла олмайдилар. Баъзан қатъиятлилик салбий муносабатга ҳам айланади. Талабаларнинг ўқитувчи тавсияларини инкор қилиши низоларни келтириб чиқаради. Б.Г.Ананьев раҳбарлигида ўтказилган илмий-тадқиқот ишларидан маълум бўлишича, талабалар камол топишининг жинсий ва нейродинамик хусусиятлари уларнинг ақлий имкониятларини тўла ишга солиш ва сермахсул ўқув фаолияти ташкил қилиш учун муҳим имконият, шартшароит яратади. Ю.А. Самариннинг таъкидлашича ўспиринлар руҳиятида ўзига хос қарама-қаршиликлар, ички зиддиятлар мавжуд бўлади. Уларнинг моддий жихатдан ота-онага, олий ўқув юрти махмуриятига боғлиқлиги иқтисодий зиддиятни келтириб чиқаради. Бу ҳол талаблаарнинг хоҳишлари билан мавжуд имкониятнинг номуносиблиги туфайли содир бўлади. Одатда талабалар II ва III курсларда олий ўқув юрти ва мутахассисликни тўғри танлангани ҳақида янада жиддий ўйлайдилар. Мазкур ёш даврида ўзини бошқаришнинг таркибий қисмлари, ижодий таффақкур, муайян ҳаётий тажриба, ўзлаштирилган билимларини тартибга солиш асосида хистуйқулар, қарашлар, ахлоқий қадриятлар, ўзлигини англаш ва барқарор эътикод шаклланади. Талаба ҳукм ва хулоса чиқаришга ўрганади, ўз хатти-ҳаракатида қатъий туриб уларни химоя қилади, у ҳаётнинг турли соҳалари бўйича ҳар хил даражадаги кўникма ва малакаларига назарий билимлар, ижтимоий-психологик тушунчаларини амалий фаолиятига татбиқ этиш имкониятига эга бўлади. . Талабалар ўқув фаолияти муваффақиятининг муҳим шарти олий ўқув юртидаги таълим жараёнининг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш, дискомфорт туйғусини бартараф қилиш, микромуҳитда юз берадиган зиддиятларнинг олдини олишдан иборат. Одатда қуйи курслардаги талабалар ўқув фаолиятини мумкин қадар тўлароқ тасаввур этишга ҳаракат қиладилар, лекин уни бошқариш тўғрисида етарли маълумотга эга бўлмайдилар. Кўпинча улар ўқув фаолиятини бошқариш деганда, ўқув материалларини ўзлаштиришни режалаштириш, назорат қилиш, баҳолаш кабиларни тушунадилар. Талабалар варақа саволларига берган жавобларидан маълум бўлишича уларда ўқув фаолияти тизимини тасаввур этишдан ташқари, унинг айрим имкониятлари юзасидан муайян билимлар ҳам бўлади. Айрим талабалр ўз жавобларида бирор хусусиятларига эга бўлмаган материални ўзлаштиришнинг усулларини ҳам ёзганлар. қуйи курс жавобларидан бири: «Мен аввал ўқув материалларини қисмларга ажратаман, сунг улар ўртасида мантиқий уйғунликни вужудга келтираман, муҳим ва бирламчи каломатларни топишга ҳаракат қиламан.

Мазкур материалнинг олдингиси билан солиштирма ўхшаш ва фарқли жихатларни аниқлайман». Худди шунга ўхшаш талабаларнинг тўртдан бир қисмидан олиди. Уларнинг 85% ўқув фаолиятни бошқаришнинг айрим таркибий

қисмларини ифодалай олганлар. Аммо кўпчилиги ўқув фаолиятини бошқаришнинг умумлашган усулларини тахрифлаш, англаш, фаолиятнинг

харакатларини қандай тартибда амалга оширишни тасаввур қилишдан анча йироқдирлар. Шунга қарамай талабаларда таққослаш, режа тузиш, лекция ва бирламчи манбаларни конспектлаштириш бўйича маълум тушунчалар мавжуд. Бироқ, бу борада ҳам айрим нуқсонлар учраб туради. Чунинчи талабалар режалаштириш, конспектлаштириш, таълими усулларида фойдаланишга қўйилган умумий талабларни аниқ кўрсатишда қийналадилар, муаммо доирасидан четлашадилар ва ҳаказо. Мана шу қийинчиликларни моҳияти ва шаклига кўра уч гуруҳга ажратиш мумкин: 1. Билишдаги қийинчиликлар: ўрта мактаб ва олий ўқув юртидаги ўқув материалларининг мазмун ва қўлама жihatидан кескин фарқланиши; олий ўқув юртида ўқитишнинг турли шакли усуллари (маърузалар, семинар машғулот, коллоквиум, синов, баёс, амалий машғулот, махсус практикum, махсус семинар, махсус курс ва ҳаказолар) мавжудлиги ўқув матни, маъруза ва семинар материалларининг мураккаблиги, муаммолиги, илмийлиги, талабаларда мустақил билим олиш малакалари етишмаслиги; 2. Ижтимоий-психологик қийинчиликлар: атроф-муҳит ва ҳаёт шароитининг ўзгариши; ҳаёт ва фаолиятнинг барча жабҳаларида мустақилликка

ўтилиши: иродавий зўр бериш, қобилият, ақлий имкониятлар бўйича қатъиятсизлик масалан, сессияларида ўқишдан хайдалишдан чўчиш, қўрқиш, хавфсирашнинг пайдо бўлиши. 3. Касбий қийинчиликлар: олий ўқув юрти мутахассислигини танлашдан иккиланиш; олий мактаб шарт-шароитларига мослашиш жараёнини нотўғри тасаввур қилиш; таълим олиш усуллари ва воситаларини кўникма малака ва одатларнинг эгаллашида орқада қолиш, турли хусусиятга эга бўлган мутахассислик-ихтисослик амалиётидан унумли фойдалана олмаслик, назарий билимлар билан амалиётнинг ажралиб қолгани; талабаларнинг профессиограмма талабларига жавоб берадиган касбий фазилатларга эга эмаслиги. Ўқитувчи ва талабанинг ҳамкорлиги - таълим самарадорлигининг муҳим омили. Якка шахс фаолиятининг психологик тахлили фаолият субъектининг бошқа одамлар билан алоқасини мавхумлаштиради. Лекин бу мавхумлаштириш нихоятда муҳимлигидан қатъий назар, ўрганилаётган ходисаларнинг бир томонлама ёритиш имконини беради. Ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорлигидаги фаолиятига доир тадқиқотларида, асосий эътибор ўзаро муносабатнинг ривожланишини ўрганишга қаратилган ўқитишни гуруҳли ташкил қилиш жараёни баён қилинган. А.В.Петровский жамоадаги шахслараро муносабатлар фаолиятиданкелиб чиқишини ўрганиб, таълим жараёнида ўқитувчининг ўқувчилар билан ҳамкорлигини ташкил қилиш фақат уларнинг мулоқотга эҳтёжини қондириш воситаси эмас, балки ўқув материалларини

ўзлаштиришнинг ҳам воситалигини таъкидлаган эди. Ҳамкорликда махсулдор фаолиятни психологик жихатдан ўрганишни В.Я. Ляудис бошчилигидаги

психологлар гуруҳи амалга оширди. Унинг асосий мақсади янги фазилатларнинг шаклланишида ўқитувчи билан талаба ролини ифодалаш эди. Ушбу назарияга биноан, ўқув фаолиятининг шаклланиши фан асосларини ўзлаштиришнинг негизи эмас, балки шахснинг ижтимоий-маданий қадриятларини эгаллаш жараёнидир. Мазкур назария асосида ўқув вазиятини талаба шахсининг ривожланишидаги «яқин камолот зонаси» нинггина эмас, балки «перцептив ривожланиш зонаси» ни ҳам яратадиган йўсинда, лойихалаш мумкин.

Назорат саволлари

1. Ўспиринлик даври ва унинг ўзига хос хусусиятлари.
2. Ўспириннинг психологик хусусиятларини тавсифлаб ўтинг.
3. Ўспириннинг ҳис-туйғунлари ҳақида гапириб беринг.
4. Билишдаги қийинчиликлар қандай намоён бўлади.
5. Ижтимоий-психологик қийинчиликлар нималардан иборат.
6. Касбий қийинчиликларнинг кўринишлари.

Адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Т, «Ўзбекистон» 1997 й
2. Каримов И.А. Юксак маънавият –енгилмас куч. Тошкент, Маънавият 2008.
3. Шавкат Мирзиёев “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биркалиқда барпо этамиз.” Тошкент “Ўзбекистон” 2016 йил.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимга бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. Шавкат Мирзиёев “Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови” 2016 йил 7 декабр. Тошкент,
5. Шербаков А.И. Ёш психологияси ва педагогик психология Т.: 1991 й
6. Давлетшин М.Г., Тўйчиева С.М. Умумий психология Т.: 2002 й
7. Тўйчиева С.М. «Мактаб битирувчиларининг маънавий қиёфаси» Тошкент, 2000 й
8. Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма. Тошкент, 2004..
9. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология: дарслик. 1-2-китоб. Тошкент, 2002.

10. Ғозиев Э.Ғ. “Онтогенез психологияси” “Ворис”, Тошкент.2006.
11. Ғозиев Э.Ғ. “Умумий психологияси” дарслик “Университет”, 2006
12. Нишонова.З, Қурбонова.З, Абдиев.Ф ”Психодиагностика ва экспериментал психология” “Тафаккур бўстони”. 2011.
13. Умаров.Б “Психология” дарслик “Ворис”, 2012

Электрон таълим ресурслари

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psycho.all.ru
3. www.psychology.net.ru
4. www.psy.piter.com

9 Мавзу: Таълим жараёнини бошқариш

Режа

1. Ўрганиш тўғрисида умумий тушунча.
2. Ўқувчиларнинг билиш фаолиятини бошқариш.
3. Ўқув холати (фаолият)нинг турлари ва укиш мотивлари.
4. Таълим жараёнига таъсир этувчи омиллар.
5. Таълим жараёнида билим, кўникма ва илмий тушунчаларнинг шаклланиши.
6. Ижодий тафаккур ва унинг таркиб топиши.

Таянч сўз ва иборалар:

Таълим, ўрганиш, билиш фаолияти билишни бошқариш, мотивлар, билим, кўникма, тушунча, ижодий тафаккур.

1.Кўпгина психологлар таълим жараёнини таҳлил қилар эканлар, уни етарли даражада бошқариб бўлмайдиган жараён деб таъкидлайдилар. Лекин уни бутунлай бошқариб бўлмайдиган стихияли равишда тартиб топадиган жараён деб аташ нотўғри,-бу хол аниқ мақсадни кўзлаб таълим бериш ғоясининг ўзига

зид бўлар эди. Бироқ ўқитувчи таълимни ташкил этади, унга рахбарлик қилади, уни амалга оширади ва йўналтиради, деган факт таълим етарли даражада бошқариладиган ва тартибга солинадиган жараён деган маънони англатмайди, чунки биз бошқариладиган таълим деб, шундай, шундай таълимни айта оламизки, бунда ҳар бир боланинг ҳаракатидаги ҳар бир қадам назорат қилинади, ўқитувчи ҳар бир ўқувчининг ҳар бир босқичида муайян билимларни ўзгартириши ёки муайян кўникма ва малакалар ҳосил қилиши ҳақида узлуксиз ахборот олиб туради, янги материал аввалги материални ўзлаштириш характериға қараб тақдим қилинади. Албатта, ўқитувчи таълим жараёнида ўқувчиларнинг билимларини ўзлаштириш жараёнини ва ақлий ривожланишнинг бориши ҳар бир пайтда, ҳар бир ўқувчиға нисбатан ҳамма тафсилотни назорат қилмайди ва назорат қила олмайди. Ўқитувчи ўқувчилар томонидан материал қандай ўзлаштирилаётгани ҳақида жуда умумий тасаввурғагина эга бўлади, ўқитишда эса

у одатда ҳар кимнинг индивидуал имкониятларини эмас, балки ўртача ўқийдиган ўқувчи кўзда тутлади. Мумкин бўлган йўллардан бири ўзлаштириш жараёнини берилган топшириқни ўзлаштириш жараёни сифатида маҳсус ташкил этишдир. Бу жиҳатдан анча ишланган система П.Я.Гальпериннинг ақлий ҳаракатларини этап бўйича таркиб топтириш назариясига асосланган таълим топтириш назариясига асосланган таълим системасидир. Бу назария Л.С.Виготскийнинг тақлифлари асосида вужудға келган бўлиб, А.Н.Леонтьевнинг ақлий ҳаракатларини таркиб топтириш жараёнининг ўзига хос хусусиятлари ҳақидаги тадқиқотларида ривожлантирилган мазкур назария одамнинг психик фаолиятини таркиб топтиришға оид умумий назариянинг таркибий қисмидир. Ана шу назарияға мувофиқ, одамнинг аногенетик ривожланишида ҳаракатлар интериоризацияси деган жараёнлар, яъни ташқи ҳаракатларнинг секин-аста ички, ақлий ҳаракатларға айланиш жараёнлари рўй беради. Таълим жараёнини бошқаришнинг бошқа имкониятларини қидириш программалаштирилган (режалаштириш) таълимнинг психологик асосларини ишлаб чиқиш билан болинган. Психологик нуқтаи-назардан қараганда, программалаштирилган таълим нима у одатдаги таълимдан нима билан фарқ қилади? Буни тушуниш учун ўқув жараёнини унинг қатнашчилари; таълим берадиган, билимларни етказадиган ўқувчи томонидан схематик тарзда тасаввур қилиб кўрмоқ керак. Ўқитувчи билан ўқувчи, маълумки ўқув жараёнининг икки қисмидир. Ўқитувчи тушунтиради, исботлайди, далил келтиради, чизади, расм солади, тажриба қилиб кўрсатади, ўқувчи кўради, тинглайди, тушунишға, ўзлаштиришға, эса олиб қолишға ҳаракат қилади, фикр юритади, умумлаштиради. Бунинг маъноси шуки, «тўри алоқа канали» орқали ахборот субъектидан объектға, ўқитувчидан ўқувчиға етказилади. Ўқитувчи ўқувчининг қандай таълим олаётгани ҳақида ахборотға эга бўлмай туриб, кўр-кўрона таълим бера олмайди. Программалаштирилган (режалаштириш) таълимда оддий, анъанавий таълимнинг барча ана шу салбий томонларига барҳам берилади,

программалаштирилган таълим ўқув жараёнини домий назорат қилиб туриш ва бошқаришни таъминлайди. Программалаштирилган таълимнинг мохияти унинг машиналашган бўлишида (техника воситаларини қўллаш холда) ҳам, шунингдек машиналашмаган бўлишида ҳам эмас. Программалаштирилган таълим ўқитишни шундай ташкил этишни назарда тутадик, бунда ўрганаётган ўқувчи олдинги материални эгаллаб олмасдан туриб ўзлаштиришда навбатдаги қадамни қўя олмайди. Бунинг учун ўқув материали қатъий мантиқий изчилликда жойлаштирилган кичик қисмларга бўлинади. Программалаштирилган (режалаштириш) таълим билиш фаолиятининг ҳар бир қадамни ҳақиқатда назорат қилишни таъминлайди ва бу билан ўқув жараёнини тўла-тўқис бошқариш имконини беради. +айтарма алоқа ҳамма вақт ҳаракатда бўлади ва ўзлаштиришнинг индивидуал хусусиятларига мувофиқ равишда ўқув жараёнини тартибга солиб туриш имконини беради. Программалаштирилган таълим ўқитувчини четлаштирмайди, унинг ўқув жараёнига ўтказадиган таъсирини пасайтирмайди, балки уни қора, техник ишлардан холос қилади. Бундай шароитда ўқитувчи ўқув жараёнининг боришига активроқ таъсир кўрсата олади, таълимга индивидуал ёндошишни муваффақиятлироқ амалга ошира олади, тарбия жараёнига кўпроқ эътибор бера олади, кўрсата олади, таълимга индивидуал ёндошишни муваффақиятлироқ амалга ошира олади. Бошқарув бу шундай йўналтирувчи кучки, у инсонлардаги ижодий потенциал имкониятларини оладиган шароитларни юзага чиқаришни мақсад қилиб қўяди. Таълимдан кутиладиган натижа психологияда мақсад дейилади. Улардан биринчиси, ўқув жараёнини тўри ташкил эта олиш, иккинчиси эса ўқувчиларнинг шахсий қизиқиш ва эҳтиёжларини қондириш. Ана шу мақсадлар бошқаришнинг вазифаларини белгилаб беради. Демак, таълим жараёни бошқаришнинг; -биринчи вазифаси ташкилий бўлиб, ўқувчиларнинг таълим ва тарбияси бўйича ижтимоий буюртмаларни қондириш; -иккинчи вазифаси-бевосита ўқувчининг қизиқиш ва талабларин қондиришга йўналтирилган ҳолатдаги ижтимоий вазифадир. Шунингдек, бу вазифа ўқувчиларнинг кўтаринкилик, яхши кайфият ва ўқув жараёнидаги ишчанликни юзага келтиришни ҳам ўз ичига олади. Афсуски, кўп йиллар давомида бошқаришнинг ана шу ижтимоий вазифасига жуда кам эътибор берилган. Бошқарувнинг иккинчи вазифаси бу ижтимоий-психологикдир. Бу вазифа ўқувчиларда самарали фаолият учун зарур бўлган ижтимоийпсихологик ҳолат ва хусусиятларни ривожлантиришга қаратилгандир. Таълим жараёнини бошқариш учун қуйидаги таркибий қисмларни эгаллашлари лозим: 1. Берилган ўқув топшириқларини ечиш учун воситалар танлаш. 2. Топшириқларни ечиш жараёнида ўз-ўзини назорат қилиш. 3. Ўзлаштирилган билимлар, малакалар, кўникмалар сифатини баҳолаш 4. Ўқув топшириқларини бажарилганлигини текшириш. 5. Ўз олдига мақсад қўя олиш. 6. Турли белгилар билан предметнинг ички муносабатлари мувофиқлигини кўра олиш. Ўқитишнинг иккита усули

мавжуд. Бири анъанавий ўқитиш усулибунда ўқитувчи муаммони белгилайди, вазифаларни аниқлайди ва муаммони ечиб беради. Ўқувчи эса масалани ечиш йўллари эслаб қолади ва уни ечишни машқ қилади. Бунда ўқувчиларда репродуктив тафаккур шаклланади. Ривожлантирувчи таълим ўқитишнинг муаммоли усулида ўқитувчи ўқувчиларнинг билиш жараёнларини бошқаради, уни ташкил этади ва назорат қилади. Ўқувчи эса муаммони тушунади. Уни ечиш йўллари қидиради ва уни ечади. Бундай холларда ўқувчи тафаккуининг махсулдорлиги ошади ва унинг мустақиллиги ривожланади. Ўқувчининг ўқишга бўлган қизиқишини ривожлантириш учун ўқитувчи қуйидаги қоидаларга таяниши лозим: 1. Ўқув жараёнини шундай ташкил этиш лозимки, бунда ўқувчи фаол ҳаракат қилиши, мустақил изланиши, янги билимларни ўзи кашф этиши ва муаммоли характердаги масалаларни ечиш учун шароит излаши керак. 2. Ўқувчиларга бир хил ўқитиш усуллари ва бир турдаги маълумотларни беришдан қочиш керак. 3. Ўрганилаётган фанга нисбатан қизиқишнинг намоён бўлиши учун айна шу фан ёки билим, ўқувчининг ўзи учун қанчалик аҳамиятли ва муҳим эканлигини билиши керак. 4. Янги материал қанчалар ўқувчи томонидан аввал ўзлаштирилган билимлар билан боʻлиқ бўлса, у ўқувчи учун шунчалик қизиқарли бўлади. 5. Хаддан зиёд қийин материал ўқувчида қизиқиш уйʻотмайди. Берилаётган билимлар ўқувчининг кучи етадиган даражада бўлиши лозим.

Ўқитувчи ўрганилаётган мавзу ёки билимнинг аҳамиятини кўрсатиш. Ўқувчининг ўқув фаоллигини ошириш учун қизиқарли мисоллар, ақлий ўйинлардан кенг фойдаланиши лозим. Лекин таълимдаги ҳар бир бериладиган билим ёрқин, қизиқарли бўлавермайди, шунинг учун ўқувчиларда ирода, қатъийлик, меҳнатсеварлик каби хислатларнинг камол топтирилиши ниҳоятда зарурдир. Ана шу хислатлар ўқувчининг келгусида ўз-ўзини назорат қилишга ўз-ўзини баҳолашга ва мустақил таълим олишга асос бўлиш керак. Таълимни индивидуаллаштириш устидан махсус тўхталиб ўтиш керак. Таълимни индивидуаллаштириш ҳар бир ўқувчи индивидуал (алоҳида) бошқаларга боʻлиқ бўлмаган ҳолда таълим олади деган маънони билдирмайди (гарчи принцип жихатидан шундай таълим бўлиши мумкин бўлса ҳам). Хусусан, программалаштирилгандир. Ҳар бир ўқувчи ўргатувчи машина ёки программалаштирилган дарслик билан ишлайди. Ҳар ким индивидуал равишда таълим олади, бунда ҳар хил тезлик билан ва маълум маънода турли йўл билан ҳаракат қилади-ўқувчи олдинги материални ўзлаштирганлигини исботлаб бермагунча машина ёки дарсликлар уни олʻа қараб ҳаракат қилишига имкон бермайди. Таълимни индивидуаллаштиришнинг маъноси шуки, у ўқувчининг индивидуал-психологик хусусиятларига таянади, ана шу хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда қурилади. Шу нуқтаи-назардан синфдаги оддий таълим қандай рўй беришини қараб чиқамиз, Синф ривожланиши тайёргарлик даражаси бир хил бўлмаган, ўзлаштириш турлича ва ўқишга муносабати ҳар хил, қизиқишлари

хилма-хил бўлган ўқувчилардан ташкил топган, ўқитувчи анъанавий ташкил этилган таълим шароитида ҳаммага бир хилда баровар кела олмайди. Шунинг учун у таълимни ўртача даражага-ўртача ривожланишига, ўртача тайёргарликка, ўртача ўзлаштиришга татбиқ қилган ҳолда олиб боришга мажбур бўлади. Бу нарса муқаррар равишда шунга олиб келадики, «кучли ўқувчилар ўз ривожланишида сунъий равишда ишлаб турилади, ўқишга қизиқишлари қолмайди, ўқиш улардан кўп ақлий куч сарфлашни талаб қилмайди, ўқиш улардан кўп сарфлашни талаб қилмайди, «кучсиз» ўқувчилар эса сурункасига орқада қолишга мубтало бўлганлар, улар ҳам ўқишга кўпроқ ақлий куч сарфлашни талаб қилади. «ўртача» даражага кирувчилар ҳам жуда ҳар хил бўладилар, қизиқиш ва майллари турлича, идрок, хотира, хаёл ва тафаккур хусусиятлари хилма-хил бўлади. Бир ўқувчи кўрғазмали образлар ва тасаввурларга асосли равишда таянмо\и зарур, иккинчиси бунга камроқ эҳтиёж сезади, бири секин фикрлайди, иккинчисининг ақлий мўлжал нисбатан тезлиги билан ажралиб туради; бири тез эса олиб қолсада мустаҳкам эмас; иккинчи-секин эса олиб қолсада, кўп нарсани ёдида сақлайди; бирини уюшган ҳолда ишлашга ўрганган, бошқаси кайфиятига қараб асабийлашиб ва нотекис ишлайди; бири астойдил, иккинчиси мажбуран шу\улланади. Академик А.Берг бу ҳолатни образли қилиб қуйидагича характерлаб берган. (Москвада харорат-10дан +19 гача, ўртача йиллик харорат + 5) лекин кийим бошни йиллик ўртача хароратдан келиб чиқиб ишлаб чиқариш ҳеч кимнинг хаёлига келмайди. Ҳақиқий харорат ҳисобга олинади. Аммо, таълимда ҳуди шундай ўрталаштиришга йўл қўйса бўлади ва хатто муқаррардир, деб ҳисобланади. Таълимни индивидуаллаштириш принципи ўқитишда ўқувчиларнинг реал типларига таяниш зарурлигига асосланади. Бу принципни, биз кўриб ўрганишимиздек, программалаштирилган таълим жуда яхши амалга оширади. Лекин одатдаги таълим шароитида ҳам бу принцип татбиқ этилиши мумкин ва лозим. Ўқувчиларнинг индивидуал психологик хусусиятлари таълимнинг айрим методлари ва усуллари танлаш ҳамда қўлланиш вақтида, уйга берилган топшириқларни қисмларга бўлишда, синф ва ёзма ишларнинг вариантларини, (уларнинг қийинлик даражасига қараб) аниқлашда ҳисобга олинади. Синф билан олиб бориладиган ишни айрим ўқувчи билан олиб бориладиган индивидуал иш билан бирга қўшиш мумкин. Бу орада психологлар ва педагоглар анча изланиш олиб бормоқдалар. Таълим методлари турлича бўлиши, ўқувчининг индивидуал хусусиятларига қараб ўзгартирилиши керак. Лекин бу 40 ўқувчи бор бўлган синфда 40 хил индивидуал ёндошишни, таълим методикасининг 40 хил индивидуал вариантини амалга ошириш зарур деган маънони англатмайди одатдаги мактаб таълими шароитида бундай ҳаддан ташқари индивидуаллаштириш мумкин ҳам эмас. Ўқувчиларнинг фикрлаш фаолиятининг асосий типларини фақат ҳисобга олиш кифоя қилади. Ўқувчининг тафаккурининг индивидуал характеристикасини, унинг бирон-бир типга мансуб

эканлигини қандай Аниқлаш керак? Тегишли психологик ва педагогик адабиёт билан танишиб чиқилгач, бу ишни амалга ошириш унчалик мураккаб бўлмайди. Чунки, ҳар бир ўқитувчи одатда ўз ўқувчиларини, уларнинг индивидуал хусусиятларини, улар тафаккурининг кучли ва ожиз томонларини яхши билади. Наталия Александровна Менчинская билан Д. Н. Погоявленский тўри кўрсатиб ўтишганидек, ўқитувчи муайян ўқувчи нимани ўзлаштирган ва нимани ўзлаштирмаганлигини билиш билангина чекланиб қолмалиги керак. Ўқувчининг фикрлаш фаолиятидаги индивидуал хусусиятларни ҳам, шунингдек шахснинг айрим хусусиятларини; муносабатини (ўқишга, ўзининг ютуқ ва маълумиятларини;

Назорат саволлари

1. Таълим жараёнини изохлаб беринг.
2. Таълим икки томонлама жараёнлигини қандай тушунасиш.
3. Ўрганиш - қандай жараён.
4. Ўргатиш қандай жараён.
5. Ўқув ҳолатини турларига нималар киради.
6. Ўқиш фаолияти мотивларини қандай тушунасиш.
7. Таълимнинг муваффақиятига таъсир этадиган омилларга нималар киради.
8. Билим, куникма ва малака нима.
9. Куникма ва малакаларга уқувчиларни қандай ўргатилади.
10. Илмий тушунчалар қандай шаклланади.
11. Ижодий тафаккурни қандай шакллантириш мумкин.

Адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Т, «Ўзбекистон» 1997 й
2. Каримов И.А. Юксак маънавият –енгилмас куч. Тошкент, Маънавият 2008.
3. Шавкат Мирзиёев “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биркалиқда барпо этамиз.” Тошкент “Ўзбекистон” 2016 йил.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимга бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. Шавкат Мирзиёев “Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови” 2016 йил 7 декабр. Тошкент,
5. Шербаков А.И. Ёш психологияси ва педагогик психология Т.: 1991 й
6. Давлетшин М.Г., Тўйчиева С.М. Умумий психология Т.: 2002 й
7. Тўйчиева С.М. «Мактаб битирувчиларининг маънавий қиёфаси» Тошкент, 2000 й
8. Давлетшин М.Г. ва бошқалар. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма. Тошкент, 2004.
9. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология: дарслик. 1-2-китоб. Тошкент, 2002.
10. Ғозиев Э.Ғ. “Онтогенез психологияси” “Ворис”, Тошкент, 2006.
11. Ғозиев Э.Ғ. “Умумий психологияси” дарслик “Университет”, 2006
12. Нишонова.З, Қурбонова.З, Абдиев.Ф ”Психодиагностика ва экспериментал психология” “Тафаккур бўстони”. 2011.
13. Умаров.Б “Психология” дарслик “Ворис”, 2012

10 мавзу: Тарбия психологияси. Ўқитувчи психологияси.

Режа

1. Тарбиянинг шахсини шакллантириш мақсадига қаратилганлигининг психологик муаммолари.
2. Тарбияси «кийин» болалар хулқини тузатишдаги психологик масалалар.
3. Психологияда тарбия механизмлари
4. Жамиятда ўқитувчининг тутган урни ва вазифалари.
5. ўқитувчи ва ўқувчилар орасидаги ўзаро муносабатлар.
6. Педагогик қобилиятлар.

Таянч сўз ва иборалар:

тарбия, шахс, мақсад, муаммо, фаолият, умуинсоний кадриятлар, тарбияси «кийин» болалар, миллий онг, гурур, жамият, уқитувчи, хусусият, узаро муносабат, педагогик қобилият, психологик иқлим, авторитар қобилияти

- ✚ Ilk o'spirinning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuchlar.
- ✚ Ilk o'spirin shaxsining kamol topishi.
- ✚ Ilk o'spirinlik davri va manaviy axloqiy xislatlar.
- ✚ YUqori sinf o'quvchilari va jamoat tashkilotlari.
- ✚ Ilk o'spirinlik davri o'qish faoliyati.
- ✚ Ilk o'spirinlarning tafakkur xususiyatlari.
- ✚ O'spirin va mustaqil fikrlash.
- ✚ O'spirinlik davrida qobiliyatlarni rivojlanishi.
- ✚ Ilk o'spirinlik davrida kasb tanlash muammosi.
- ✚ O'quvchilarni kasbga yo'llash muammosi.
- ✚ Kasb tanlashga tasir etuvchi omillar.
- ✚ Kasb tanlashga doir tadqiqotlari.
- ✚ Ilk o'spirinning turmush haqidagi tasavvurlari.
- ✚ O'spirinlik davri psixologik xususiyatlar.
- ✚ Ilk o'spirinlik davrida o'z-o'zini anglash.
- ✚ Ilk o'spirinlik davrida o'z-o'zini baholash.
- ✚ Ilk o'spirinlik davrida jamoatchilik faoliyati.
- ✚ Ilk o'spirinlik davrida o'quv faoliyati borasidagi tadqiqotlar.
- ✚ Ilk o'spirinlik davri tafakkur borasidagi tadqiqotlar.
- ✚ Ilk o'spirinlik davrida kasb tanlash muammosi.
- ✚ Ilk o'spirinlik davrida turmush haqidagi tasavvurlar.
- ✚ Ilk o'spirinlik davri o'quv faoliyati borasidagi tadqiqotlar.

Ilk o'spirinlik davri xotira borasidagi tadqiqotlar.

Ilk o'spirinlik davrida diqqatni rivojlanishi.

Ilk o'spirin shaxsini shakllanishi.

YUdori sinf o'quvchilarini intellektual rivojlanishi.

“Klaster” grafigi asosida o'quvchining talabalik davri bilimlarini tizimlashtirish


1-ilova.
mavzusiga doir

Ўқув фаолияти


Талаба

Илк ўспирин


1-topshiriq



2-topshiriq





3-topshiriq.




4-topshiriq.

Талабалар ўқув фаолияти





5-topshiriq



«BIRGALIKDA O‘QIYMIZ» TEXNIKASI

Birgalikda o‘qish: o‘quv guruhi kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir kichik guruh o‘rganilayotgan mavzuning ma’lum bir sohasida ekspert bo‘ladi va boshqalarni o‘rgatadi.

Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to‘la hajmda egallab olishdan iborat.

«Birgalikda o‘qiyimiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo‘lgan har xil turdagi guruhlar tuziladi.



2. Har bir guruhga *bitta* topshiriq beriladi –umumiy mavzuning bir *qismi*, uning ustida butun o‘quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – **ekspert varaqlari** – taqdim etiladi.



3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.



4. Hamma *yakka tartibdagi topshiriqni* bajaradi.



5. Barcha guruh a’zolarining mini-ma’ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varag‘i bo‘yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.



6. Spiker yoki guruh barcha a’zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

2-ilova

Guruhlarda ishlash qoidasi

Шеригингизни диққат билан тингланг.

Гуруҳ ишларида ўзаро фаол иштирок этинг, берилган топшириқларга масъулият билан ёндашинг.

Агар ёрдам керак бўлса, албатта мурожаат қилинг.

Агар сиздан ёрдам сўрашса, албатта ёрдам беринг.

3-ilova

Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari

Mezonlar	Maks. ball	Guruh natijalarini baholash				
		1	2	3	4	5
Axborotning to‘liqligi	3 b.					
Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi	1 b.					
Guruhning faolligi	1 b.					
Ballarning maksimal summasi, jami	5 b.					

4-ilova


- Talabalik davri psixologik xususiyalari.
- Talabalik davriga doir tadqiqotlar.
- Talabalik davriga doir B.G.Ananov tadqiqotlari.
- Talabalar o'quv faoliyati xususiyatlari.
- Talabalarning o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklar.
- Talabalar o'quv faoliyatlariga doir tadqiqotlar.
- Talabalar o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish.
- O'qituvchi va talaba xamkorligi borasida Lomov tadqiqotlari.
- V.YA.Lyadusning talaba va o'qituvchi xamkorligiga doir tadqiqotlari.
- Psixologiyada xamkorlik shakllari.
- Talabalarning ilmiy faoliyati.
- Talabalarning jamoatchilik faoliyatining xususiyatlari

9 mavzu: Ta'lim jarayonini boshqarish

1-ilova.


“Klaster” grafigi asosida o'quvchining ta'lim psixologiyasi mavzusiga doir bilimlarini tizimlashtirish

1-topshiriq




2-topshiriq.







3-topshiriq.



4-topshiriq.



5-topshiriq





«BIRGALIKDA O‘QIYMIZ» TEXNIKASI

Birgalikda o‘qish: o‘quv guruhi kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir kichik guruh o‘rganilayotgan mavzuning ma‘lum bir sohasida ekspert bo‘ladi va boshqalarni o‘rgatadi.

Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to‘la hajmda egallab olishdan iborat.

«Birgalikda o‘qiymiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo‘lgan har xil turdagi guruhlar tuziladi.



2. Har bir guruhga *bitta* topshiriq beriladi –umumiy mavzuning bir *qismi*, uning ustida butun o‘quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – **ekspert varaqlari** – taqdim etiladi.



3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.



4. Hamma *yakka tartibdagi topshiriqni* bajaradi.



5. Barcha guruh a‘zolarining mini-ma‘ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varag‘i bo‘yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.



6. Spiker yoki guruh barcha a‘zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

2-ilova

Гуруҳларда ишлаш қондаси

Шеригингизни диққат билан тингланг.

Гуруҳ ишларида ўзаро фаол иштирок этинг, берилган топшириқларга масъулият билан ёндашинг.

Агар ёрдам керак бўлса, албатта мурожаат қилинг.

3-ilova

Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari

Mezonlar	Maks. ball	Guruh natijalarini baholash				
		1	2	3	4	5
Axborotning to'liqligi	3 b.					
Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi	1 b.					
Guruhning faolligi	1 b.					
Ballarning maksimal summasi, jami	5 b.					


4-ilova


- ✚ Talim psixologiyasining mohiyati.
- ✚ O'qishning mohiyati va qonuniyatlari.
- ✚ N.D.Levitov bo'yicha o'zlashtirishning psixologik komponentlari.
- ✚ Talim jarayonini boshqarish muammosi.
Dasturlashtirilgan talim.
- ✚ O'qish va aqliy rivojlanish.
- ✚ Talim intensivlashtirish.
Talimni individualashtirish.

10 Mavzu: O'qituvchi psixologiyasi. Tarbiya psixologiyasi


1-ilova.

“Klaster” grafigi asosida o'quvchining tarbiya psixologiyasi mavzusiga doir bilimlarini tizimlashtirish






2-topshiriq.




3-topshiriq.



4-topshiriq.





«BIRGALIKDA O‘QIYMIZ» TEXNIKASI

Birgalikda o‘qish: o‘quv guruhi kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir kichik guruh o‘rganilayotgan mavzuning ma’lum bir sohasida ekspert bo‘ladi va boshqalarni o‘rgatadi.

Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to‘la hajmda egallab olishdan iborat.

«Birgalikda o‘qiyamiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo‘lgan har xil turdagi guruhlar tuziladi.



2. Har bir guruhga *bitta* topshiriq beriladi – umumiy mavzuning bir *qismi*, uning ustida butun o‘quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – **ekspert varaqlari** – taqdim etiladi.



3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.



4. Hamma *yakka tartibdagi topshiriqni* bajaradi.



5. Barcha guruh a'zolarining mini-ma'ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varag'i bo'yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.



6. Spiker yoki guruh barcha a'zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

2-ilova

Гуруҳларда ишлаш қондаси

Шеригингизни диққат билан тингланг.

Гуруҳ ишларида ўзаро фаол иштирок этинг, берилган топшириқларга масъулият билан ёндашинг.

Агар ёрдам керак бўлса, албатта мурожаат қилинг.

Агар сиздан ёрдам сўрашса, албатта ёрдам беринг.

3-ilova

Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari

Mezonlar	Maks. ball	Guruh natijalarini baholash				
		1	2	3	4	5
Axborotning to'liqligi	3 b.					
Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi	1 b.					
Guruhning faolligi	1 b.					
Ballarning maksimal summasi, jami	5 b.					

4-ilova


 Tarbiyaviy ish metodlari va shakllari.

 Jamoa va uning tarbiyaviy tasiri.

1-ilova.

“Klaster” grafigi asosida o‘quvchining o‘qituvchi psixologiyasi mavzusiga doir bilimlarini tizimlashtirish


1-



2-topshiriq.



3-topshiriq.





«BIRGALIKDA O‘QIYMIZ» TEXNIKASI

Birgalikda o‘qish: o‘quv guruhi kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir kichik guruh o‘rganilayotgan mavzuning ma’lum bir sohasida ekspert bo‘ladi va boshqalarni o‘rgatadi.

Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to‘la hajmda egallab olishdan iborat.

«Birgalikda o‘qiymiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo‘lgan har xil turdagi guruhlar tuziladi.



2. Har bir guruhga *bitta* topshiriq beriladi –umumiy mavzuning bir *qismi*, uning ustida butun o‘quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – **ekspert varaqlari** – taqdim etiladi.



3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.



4. Hamma *yakka tartibdagi topshiriqni* bajaradi.



5. Barcha guruh a’zolarining mini-ma’ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varag‘i bo‘yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.



6. Spiker yoki guruh barcha a'zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

2-ilova

Гуруҳларда ишлаш қондаси

Шеригингизни диққат билан тингланг.

Гуруҳ ишларида ўзаро фаол иштирок этинг, берилган топшириқларга масъулият билан ёндашинг. **3-ilova**

Агар ёрдам керак бўлса, албатта мурожаат қилинг.

Агар сиздан ёрдам сўрашса, албатта ёрдам беринг.

Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari

Mezonlar	Maks. ball	Guruh natijalarini baholash				
		1	2	3	4	5
Axborotning to'liqligi	3 b.					
Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi	1 b.					
Guruhning faolligi	1 b.					
Ballarning maksimal summasi, jami	5 b.					

4-ilova

- ✚ Hozirgi zamon o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar.
- ✚ SHarq mutafakkirlarini o'qituvchi kasbi to'g'risida.
- ✚ O'qituvchi kasbiga xos xislatlar.
- ✚ Pedagogik qobiliyatlar.
- ✚ Didaktik qobiliyatlar.
- ✚ Akademik qobiliyatlar.
- ✚ Perseptiv qobiliyatlar.
- ✚ Nutq qobiliyati.
- ✚ Tashkilotchilik qobiliyati.
- ✚ Avtoretart qobiliyat.
- ✚ Pedagogik hayol.
- ✚ Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati

Keyslar banki

Keys: Pedagogik nizo va uni hal etish yo'llari

Ma'lum muddat tibbiy davolanishda bo'lib, yangi o'quv yilidan yana qaytadan ishga qaytgan "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi I.Allabergenov pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi 103 guruhida pedagogika nazariyasi fanidan seminar mashg'ulotini o'tkazayotgan edi. Seminar mashg'ulotida talabalarni kichik guruhlarda ishlashlarini tashkillashtirdi. Talabalar kichik guruhlarda ishlarni davom ettirayotgan bir paytda, mashg'ulot boshlanganiga o'ttiz daqiqa bo'lganida mazkur guruh talabasi A.Petrova eshigini ochib, auditoriyaga kirishga ruxsat so'radi. O'qituvchi esa mashg'ulot boshlanganiga ancha vaqt bo'lganini, u bir necha marotabadan bo'yon kechikib kelayotganini aytib, mashg'ulot vaqtida kechga qolgan talaba A.Petrovaning auditoriyaga kirishiga ruxsat bermadi. Talaba esa, auditoriyadan chiqib ketishni xohlamadi. O'qituvchi undan auditoriyadan chiqib ketishni talab etdi va oxir-oqibat xonadan chiqarib yubordi. Ertasi kuni auditoriyaga kiritilmagan qizning onasi nomidan fakultet dekanatiga shikoyat xati kelib tushdi. SHikoyat xatida talaba-qizning onasi homilador ekanligiga qaramasdan va har qanday holatda ham o'qituvchi talabani mashg'ulotga kiritmasdan, uni turtib auditoriyadan chiqarib yuborgani pedagogik etika zid ish ekanligi, o'qituvchining kompetentligini aniqlash uchun Davlat test markazidan xolis ekspertlar chaqirib, sinovdan o'tkazish va shikoyatga yozma javob qaytarish, agar kerakli chora ko'rilmasa, yuqori tashkilotlarga murojaat qilishi haqidagi talabni qo'ygan edi. Ertasi kuni fakultet dekani va o'rinbosari I.Allabergenovni bu haqida ogohlantirdi. O'qituvchi esa dekanga u hech qanday ortiqcha harakat qilmagani, talaba qiz hamma vaqt darsga kechikib kelishini aytib qo'pol munosabatda bo'ldi. Bir hafta muddat o'tib, dekan kafedra mudiridan mazkur masalani yig'ilishda muhokama qilib, qaror chiqarib berishni so'radi.

Kafedra majlisida mazkur masala muhokama etildi. Kafedra professor-o'qituvchilari har qanday vaziyatda ham I.Allabergenovni qo'llab-quvvatlashlarini bildirdi. Biroq talaba-qizning homilador ekanligini hisobga olib, undan uzr so'rash haqidagi taklifni kiritishdi. I.Allabergenovga so'z berilganda esa, u pedagogik odobiga zid hech qanday xatti-harakat sodir etmaganligini, talaba-qizdan uzr so'ramasligini bildirdi. Oradan bir hafta muddat o'tib, I.Allabergenov kafedra mudirining ishdan bo'shasligi haqidagi iltimosiga karamasdan, o'z arizasiga ko'ra vazifasidan ozod etildi.

YUqorida keltirib o'tilgan vaziyatni tahlil eting. Siz I.Allabergenovning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz? I.Allabergenovning ishdan bo'shab ketishi to'g'ri bo'ldimi?

Aniq vaziyatlarni bosqichma-bosqich tahlil etish va hal etish bo'yicha tinglovchilarga uslubiy ko'rsatmalar

Ish bosqichlari va vaqti	Maslahat va tavsiyanomalar
--------------------------	----------------------------

1. Keys bilan tanishish (individual) – 3 daqiqa	Taqdim etilgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e'tibor qaratib. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag'ishlanganligini aniqlang.
2. Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlash (individual va kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlang. O'z fikringizni guruh bilan o'rtoqlashing. Muammoni belgilashda isbot va dalillarga tayaning. Keys matnidagi hech bir fikrni e'tibordan chetda qoldirmang.
3. Muammo echimini topish va erishiladigan natijani aniqlash – 7 daqiqa	Guruh bilan birgalikda muammo echimini toping. Muammoga doir echim bir necha variantda bo'lishi ham mumkin. SHu bilan birga siz topgan echim qanday natijaga olib kelishi mumkinligini ham aniqlang.
4. Keys echimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti (kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Guruh bilan birgalikda keys echimiga doir taqdimotni tayyorlang. Taqdimotni tayyorlashda sizga taqdim etilgan javdalga asoslaning. Taqdimotni tayyorlash jarayonida aniqlik, fikrning ixcham bo'lishi tamoyillariga rioya qiling.

Keys echimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Echim	Natija

KEYS: ZAMONAVIY PEDAGOGIK ATAMALAR

2011 yilning mart oyida “Pedagogika” kafedrasida “Zamonaviy pedagogik atamalar” mavzusiga bag'ishlangan seminar-trening o'tkazildi. Seminar-treningda hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan “metodika”, “texnologiya”, “interfaol metod”, “strategiya”, “grafik organayzerlar” kabi atamalar tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Seminar-treningda pedagogik texnologiyalar sohasiga doir qator izlanishlar olib borgan mutaxassis olimlar taklif etildi.

Moderator birinchi bo'lib so'z navbatini “metodika” va “texnologiya” ushunchalari mohiyatini aniqlashtirib berish uchun pedagogika fanlari doktori, professor I.Jo'raevga berdi. Olim o'z nutqida “Metodika – qat'iy ketma-ketlikka algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish

bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi”ni, “texnologiya – bu rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi”ni ifoda etadi, degan umumiy fikrni berdi. SHundan so‘ng, “Pedagogika” kafedrasida katta o‘qituvchisi M.Alieva I.Jo‘raevga shunday savol bilan murojaat etdi: “Domla, kechirasiz, sizningcha, metodika va texnologiyaning bir-biridan farqi nimada?”. I.Jo‘raev qisqa qilib “Metodika o‘rgatadi, texnologiya o‘ynatadi” degan javobni berdi. M.Alieva javobni tushunmasdan hayron bo‘lib, indamay qo‘ydi. Olim unga “Nega siz javobdan qoniqmadingizmi?” savol nazari bilan qaradi, M.Alieva esa indamadi. Kafedra o‘qituvchisi G.Qo‘ldosheva M.Alievaga “Nimaga tushunmaysiz, domla aytmoqchilarki, o‘qitish metodikasi talabalarni faollashtira olmaydi, texnologiya esa ta‘lim oluvchini faollashtirib, o‘yin asosida mashg‘ulotlarni qiziqarli o‘tishini ta‘minlaydi” deb tushuntirgan bo‘ldi.

I.Jo‘raev o‘z chiqishini yakunlagach, moderator so‘zni pedagogika fanlari doktori, professor D.Abdullaevaga berdi va “zamonaviy pedagogik texnologiyalar” haqida ma‘lumot berishni so‘radi. D.Abdullaeva bugungi kunda ko‘plab zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjudligi, ularga Aqliy hujum, B-B-B, kaskad, pinbord, klaster, zigzag, tarmoqlar, o‘yinli texnologiyalar kabilar borligini aytib, ularga qisqa-qisqa izoh berdi. D.Abdullaeva so‘zini yakunlagach, dotsent A.Ikromov unga quyidagi savol bilan murojaat etdi: “Ustoz, meni bir savol ko‘p vaqtdan beri qiziqtiradi: “Texnologiya bilan interaktiv metod” tushunchasi bir narsami? Har doim ularni aralashtirib qo‘llayveramiz, shu to‘g‘rimi?”. D.Abdullaeva savolga quyidagicha javob berdi: “Siz manimcha, savolni man yuqorida bir nechta texnologiyani sanab o‘tganimdan kelib chiqib beryapsiz. Ularni “texnologiya” deb aytish ham, “interfaol metodlar” deb nomlash ham mumkin” degan javobni berdi. Javobni eshitgach, A.Ikromov “unda birini qo‘llayversak bo‘lmaydimi?” degan savol nazari bilan qaradi. Unga javoban olim “Istaganigizni ishlatavering” deb javob berdi. SHu bilan D.Abdullaeva ham chiqishini yakunladi.

Uchinchi bo‘lib so‘z navbati L.Vasiljonovaga berildi. U “Nutq so‘zlashdan avval men sizlarni qiziqtirgan savollarni eshitmoqchiman” degan fikr bildirdi. SHunda qolganlar indamasdan turganda, A.Ikromov “man savol bersam, maylimi?” deb ruxsat so‘radi. Bering, degan ishora qilingach, u “Men hali professor D.Abdullaevaga ham shunga o‘xshash savolni bergandim, sizning ham fikringizni bilmog‘chiman: Metod bilan texnologiyani bir-biridan nima farqi bor? Sizni pedagogik texnologiyaga doir kitobingizda keys-stadi, o‘quv loyihasi haqida ma‘lumot berilganda, ularga nisbatan ham metod, ham texnologiya so‘zlari qo‘llanilavergan. O‘zi bu tushunchalarni qanday qo‘llash o‘rinli bo‘ladi?”. L.Vasiljonova: “Menimcha, siz D.Abdullaevaning fikrlariga yaxshi e‘tibor qaratmabsiz, ular bu tushunchalarning ikalasini ham qo‘llayverish mumkin, deb aytdilar. Men sizga osonroq tushuntirib beraman. Mana e‘tibor qarating: men ishxonada Vasiljonova Latofat Abdurashidovnaman, farzandim uchun onaman, turmush o‘rtog‘im uchun ayoliman, baribir o‘sha Latofatman” degan javobni berdi. Hamma miyig‘ida kulib, bir-biriga qarab qo‘ydi.

A.Ikromov yana savol berishga ruxsat so‘radi. Uzr so‘ragan holda, L.Vasiljonovaga “Siz kitobingizda grafik organayzerlarni “ta’lim vositalari” deb bergansiz. Men bu fikrga qo‘shilmadim. Chunki biz didaktik vositalar deganda kitob, chizma, rasm, jadval, nutq, laboratoriya jihozlari, o‘quv qurollarini tushunamiz. Grafik organayzerlarni vosita deb aytish to‘g‘rimi?” L.Vasiljonova savolga quyidagicha javob berdi: “Grafik organayzerlar tuzilishiga ko‘ra chizma, jadval ko‘rinishiga ega bo‘lganligi uchun ularni “vosita” deb talqin qilganmiz”. So‘ng A.Ikromovga savol bilan murojaat qildi: “Siz grafik organayzerlarni qanday xarakterga ega deb hisoblaysiz?” A.Ikromov “Grafik organayzerlarni vosita emas, metod deb qo‘llash o‘rinli bo‘ladi” degan javobni berdi. Unga javoban L.Vasiljonova “Siz istasangiz shunday qo‘llashingiz mumkin” deb aytdi.

L.Vasiljonova chiqishini tugallaganidan so‘ng, moderator umumiy tarzda seminar-treningga yakun yasadi. Kafedra-o‘qituvchilarining ko‘pchiligi seminar-trening davomida zamonaviy sharoitda keng qo‘llanilayotgan tushunchalar haqida aniq ma’lumot olishmaganini o‘zaro bir-birlariga sekin-sekin shivirlab qo‘yishdi...

Siz nima deb o‘ylaysiz, seminar-trening oldiga qo‘yilgan maqsad to‘liq amalga oshirdimi? Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq holda qo‘llanilayotgan tushunchalarning mohiyati etarlicha aniqlashtirildimi? Siz mazkur tushunchalarni qanday izohlagan bo‘lar edingiz? Seminar-treningda qaysi tushuncha mohiyatiga umuman e’tibor qaratilmadi? “Metodika” va “texnologiya” tushunchalarini farqlashga doir I.Jo‘raev tomonidan berilgan javobga siz qanday munosabat bildirasiz? D.Abdullaevaning o‘z nutqida Aqliy hujum, B-B-B, kaskad, pinbord kabilarni texnologiya deb ishlatishi to‘g‘rimi? L.Vasiljonovaning “metod” va “texnologiya” tushunchalariga nisbatan aytan fikrini qanday baholaysiz? Grafik organayzerlarni “ta’lim vositasi”mi yoki “metod” sifatida talqin etish maqsadga muvofiqmi?

KEYS-STADI: OLIY TA’LIMDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Hay’ati tomonidan 2010 yilning 17 aprelida “Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni oliy ta’lim ta’lim muassasalarida joriy etishni tashkil etish” to‘g‘risidagi 3/1 sonli qarori qabul qilindi. Barcha oliy ta’lim muassasalari kabi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ham mazkur qaror ijrosini ta’minlashga doir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Dastlab Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida universitetning 10 nafar o‘qituvchisi (uch nafar pedagog, bir nafar psixolog, ikki nafar matematik, bir nafar kasb ta’limi o‘qituvchisi, bir nafar tarixchi, bir nafar rassom, bir nafar biolog) to‘rt kunlik trening-ceminarda ishtirok etib kelishdi. Keyin malaka oshirib kelgan o‘qituvchilardan guruhlar tashkil etilib, har bir fakultetda to‘rt kunlik dastur bo‘yicha o‘qish tashkil etildi. So‘ngra o‘qituvchilarga

barcha fanlar bo'yicha ikki oy ichida ta'lim texnologiyalarini yaratish vazifasi yuklatildi. Kafedralarda o'qishlar tashkil etilib, o'qituvchilarga ta'lim texnologiyasini yaratish o'rgatildi. Qaysidir kafedralarda o'qitish tizimli tashkil etilgan bo'lsa, ba'zi kafedralarda bir-ikki marotaba trening o'tkazish bilan ish yakunlab qo'yildi. So'ng kafedrada o'qitiladigan fanlar o'qituvchilarga taqsimlanib, universitet o'quv bo'limi tomonidan ko'rsatib berilgan vaqt davomida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan ta'lim texnologiyasini yaratish shart ekanligi haqida ko'rsatma berildi. Kimdir vazifani o'zi xohlagan holda, kimdir o'zi tushunmay turib majburan ishga kirishishdi. Belgilangan vaqt o'tib bo'lgandan so'ng, kafedra mudirlari o'qituvchilardan ta'lim texnologiyalarini olib kelib topshirishni talab qilisha boshlashdi. Biroq o'qituvchilar belgilangan vaqt tugab

<p>O'quv mashg'ulotining tuzilishi</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish. 2. Avval egallangan bilimlarni mustahkamlash. 3. Ma'ruza matnini tarqatish. 4. Taqdimot texnologiyasi asosida ma'ruzani taqdim etish. 5. Mavzuning asosiy tushunchalarini aniqlashtirish. 6. Mavzuni yakunlash.
---	---

bo'lgan bo'lsa ham ta'lim texnologiyasini tugallay olishmadi. Ayrim fan o'qituvchilari yarim-yorti tarzda yaratishgan bo'lsa, ayrimlari umuman topshiriqni bajarishmagan edi. Kafedra mudirlari o'qituvchilardan bajarishni qattiq talab qila boshlashdi. Kafedra mudirlari o'qituvchilar uchun har majlisda gap eshitib yurmasligini, kimki o'z vaqtida bajarmasa, o'sha o'qituvchini biriktirilgan fondan dars berishdan mahrum qilishlarini aytib, ularga bosim o'tkaza boshlashdi. Turli ta'na-dashnomlar ostida o'qituvchilarning ko'pchiligi ta'lim texnologiyasini yaratishni jadallashtirdi, ayrimlar esa fondan dars o'tmaslikka ham rozi bo'ldilar. Bu orada o'quv-metodik boshqarmadan ta'lim texnologiyalarini to'plashga mutaxassisligi fizik-matematik bo'lgan mas'ul tayinlandi. Mas'ul rahbar yaratilgan texnologik ishlanmalarni olib kelib topshirishni talab qila boshlashdi. Avvaliga ta'lim texnologiyalarini elektron va qog'oz variantda kafedra mudirlarining o'zlari o'quv-metodik boshqarmaga olib borishdi. Xato bajarilgan deb qabul qilib boshlangandan so'ng, har bir fan o'qituvchisi o'zi ishni topshirishga harakat qila boshlashdi. O'qituvchilar ta'lim texnologiyalarini qabul qilishda universitet bo'yicha mas'ulning oldiga borganlarida topshira olmasdan qayta boshladilar. Ularning deyarli barchasiga "Ta'lim texnologiyasi modeli"ning uchinchi bandi - "o'quv mashg'ulotining tuzilishi" (1-rasm)ni noto'g'ri bajargansiz degan ayb qo'yildi. O'qituvchilar mas'ulga ularga berilgan namunada shunday yozilganligini aytishganda, "yo'q, u bandda mashg'ulot rejasini kiritasizlar" (2-rasm) degan talab qo'yildi.

1-rasm. O‘qituvchilar tomonidan bayon qilingan o‘quv mashg‘ulotining tuzilishiga doir ko‘rsatma

2-rasm. Ta’lim texnologiyasini qabul qilishga doir mas’ul tomonidan taklif etilgan variant

O‘qituvchilarning hammasi shu tariqa qaytadan ta’lim texnologiyasini ishlashga kirishishdi. SHu bilan barobar ular trening mashg‘ulotlarini o‘tkazgan o‘qituvchilarga mas’ul tomonidan ko‘rsatilgan kamchilik yuzasidan arz qilib, “Siz bizga bunaqa deb tushuntirmagan ediz-ku?!” degan savolni ham berib ulgurishdi. Xullas, hamma mashg‘ulotning tuzilishini o‘rniga mavzu rejasini qo‘yib chiqishdi.

O‘qituvchilarga mas’ul tomonidan ko‘rsatilgan ikkinchi kamchilik mashg‘ulot rejasi nechta bo‘lsa, pedagogik vazifalar va kutiladigan natijalar ham shuncha miqdorda (mashg‘ulot rejasida to‘rtta masala mavjud bo‘lsa, pedagogik vazifalar miqdori to‘rtta bo‘lishi) yozilishi haqida bo‘ldi (3-4 rasmlar).

Mashg‘ulotning rejasi	<ol style="list-style-type: none">1. Pedagogika fanining ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalari.2. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.3. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
------------------------------	---

3-rasm. Kirish ma'ruzasi bo'yicha mas'ul tomonidan taklif etilgan pedagogik vazifalar va o'quv faoliyati natijalari

<p>Mashg'ulotning rejasi</p>	<p>5. Pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari. 6. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. 7. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. 8. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.</p>
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <p>1) pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini aniqlashtirish; 2) pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini ajratib ko'rsatish; 3) pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini bayon etish; 4) pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini ajratib ko'rsatish.</p>	<p>O'quv faoliyati natijalari:</p> <p>1) pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini bilib oladilar; 2) pedagogika fanining asosiy kategoriyalarini o'zlashtiradilar; 3) pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini taqqoslaydilar; 4) pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlariga doir tasavvurlarga ega bo'ladilar.</p>
<p>O'quv mashg'ulotining tuzilishi</p>	<p>1. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish. 2. Avval egallangan bilimlarni mustahkamlash. 3. Ma'ruza matnini tarqatish. 4. taqdimot texnologiyasi asosida ma'ruzani taqdim etish. 5. Mavzuning asosiy tushunchalarini aniqlashtirish. 6. Mavzuni yakunlash.</p>
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <p>5) fanning tuzilishini sharhlash; 6) fan miqyosidagi metodik va tashkiliy ishlarning xususiyatlari, muddati va baholash mezonlari bilan tanishtirish;</p>	<p>O'quv faoliyati natijalari:</p> <p>5) fanga ajratilgan umumiy soatlar, ularning auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtda taqsimlanishi, fanning modul-bloklari haqida tushunchaga ega bo'linadi; 6) fan bo'yicha mashg'ulotlarning borishi, BKMLarni nazorat qilish turlari, shakl, metod va vositalari, nazoratlarni o'tkazish vaqti va baholash mezonlari haqida aniq tasavvurlar shakllantiriladi;</p>

7) fanning ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini aniqlashtirish;	7) fanning ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini bilib oladilar;
8) fanning asosiy kategoriyalarini ajratib ko'rsatish;	8) fanning asosiy kategoriyalarini o'zlashtiradilar;
9) fanning metodologik asoslarini ochib berish;	9) fanning metodologik asoslariga doir tasavvurlar hosil qilinadi;
6) fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligini bayon etish;	10) fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligini taqqoslaydilar.

4-rasm. Kirish ma'ruzasi bo'yicha o'qituvchilar tomonidan loyihalangan pedagogik vazifalar va o'quv faoliyati natijalari

Mas'ul tomonidan berilgan keyingi kamchilik ma'ruza matnini ta'lim vositasi bo'la olmasligi bilan bog'liq bo'ldi. O'qituvchilar texnologik model va kartadan so'ng mavzuga doir tayanch konspektni berishgan edi. Ana shu sababli vosita sifatida "ma'ruza matni"ni ko'rsatishgan edi. Mas'ulga esa buni hech qanasiga tushuntira olishmadi. Hatto tayanch konspektli ma'ruzani ilovadan olib tashlab, slaydlarni berish taklif etildi. O'qituvchilar endi bu topshiriqni ham bajara boshlashdi.

Mas'ul tomonidan berilgan navbatdagi taklif o'qituvchilarni butunlay hayron qoldirdi. Ma'ruza mashg'ulotlari ishlanmalarida talabalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish shart deb aytili. O'qituvchilar ma'ruza mashg'ulotlarida talabalar baholanmasligini aytishganda, pedagogik texnologiya asosida dars o'tilsa, baholanishi kerak degan javobni eshitdilar. Kimdir bu fikrni inobatga olib, texnologik ishlanmalarda ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarni baholash mezonlarini ishlab chiqdi, ayrim o'qituvchilar esa, bunday qilmaslikni lozim deb topishdi.

Mas'ul tomonidan har safar kamchilik ko'rsatilavergandan so'ng, o'qituvchilar undan bitta u "ideal" deb bilgan namunani olishdi va shunga o'zlarining ishlanmalarini moslashtirishga harakat qilishdi. Endi hamma ma'ruza mashg'ulotlari ishlanmalarida "vizual ma'ruza" so'zini, "Qanday" diagrammassi, "Baliq skeleti" chizmalarini qo'llanilishi odatiy holga aylandi. Eng asosiysi, ko'pchilik o'qituvchilar "vizual ma'ruza" o'zi nima ekanligini, "Qanday" diagrammassi, "Baliq skeleti" chizmalari qanday qo'llanilishini bilmagan holda, ta'lim texnologiyalarini yaratishdi. Maqsad: qanday qilib bo'lsa ham ta'lim texnologiyasini topshirib, vazifadan ozod bo'lish edi.

Ta'lim texnologiyalarini yaratish bunday yo'l bilan ham oxiriga etmadi. Hozir ham ularni yaratish va qabul qilish davom etmoqda...

Siz nima deb o‘ylaysiz, yuqorida bayon etilgan holatda yaratilgan ta’lim texnologiyalarini amaliyotda qo‘llab samaradorlikka erishish mumkinmi? Ta’lim texnologiyalarini yaratishda o‘qituvchida qanday kasbiy kompetentlik shakllangan bo‘lishi lozim? Ta’limni texnologizatsiyalashda asosiy e’tibor nimaga qaratilishi zarur? Pedagogik vazifalar va kutiladigan natijalarni aniqlashtirish qanday yo‘l bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq?

Pedagog faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar bilan bog‘liq vaziyatlar 1-Keys

Pedagogika va psixologiya fakultetining o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari professor-o‘qituvchilarni bir marotaba mashg‘ulotga kelmagan talabani oraliq nazorat kiritmaslik haqida ogohlantirdi. Professor-o‘qituvchilardan ayrimlari dekan o‘rinbosarining ko‘rsatmasiga asosan, bir marotaba mashg‘ulotga kelmagan talabalarni ham oraliq nazoratga kiritmadi. Ayrim o‘qituvchilar uch-to‘rt marotaba mashg‘ulotga kelmagan talabalarning ham oraliq nazoratni yozishlariga ruxsat berdi.

Noyabr oyida bo‘lib o‘tgan “Pedagogika” kafedra majlisida ham talabalarning davomat masalasi muhokama qilinib, qoldirilgan mashg‘ulotlarni o‘zlashtirish uchun qayta topshirish qanday amalga oshirilayotganligi muhokama etildi. Professor-o‘qituvchilardan biri qoldirilgan mashg‘ulotlar uchun qayta topshirishni olmasligi, talaba qancha mashg‘ulotga qatnashmaganligidan qat’iy nazar, oraliq nazoratga kirishi mumkinligi va mashg‘ulotlarni qoldirganligi uchun oraliq nazoratga kirishga ruxsat berilmasligi “Reyting to‘g‘risida”gi Nizomda ko‘rsatilmaganligini bayon etdi.

Yuqorida keltirilgan vaziyatga aniqlik kiriting. Aniq vaziyatda aks etgan asosiy muammo va kichik muammolarga oydinlik kiriting.

2- Keys

Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 102-guruhi talabalaridan 8 nafari hamma fanlardan besh bahoga sessiyani yopayotganligini, faqat pedagogika nazariyasi fanidan ularning uch nafariga uch baho, to‘rt nafariga to‘rt baho qo‘yilayotganligini aytishdi. O‘qituvchidan esa, ularga besh baho qo‘yib berishni so‘radi. O‘qituvchi esa, bu holatni o‘rganib chiqishni zarur, deb topdi. Xuddi shu guruhga darsga kiradigan ikkita o‘qituvchidan “besh” baho so‘rab kelgan talabalar haqida so‘rab ko‘rdi. O‘qituvchilar mazkur talabalar boshqa fanlarning hammasidan besh olganmiz, deb ulardan baho qo‘ydirib olganligini aytishdi.

Mazkur vaziyatni aniqlik kiriting. O‘qituvchi mazkur vaziyatda qanday yo‘l tutishi lozim. Aniqroq qilib aytganda, o‘qituvchi qat’iy ravishda o‘z nuqtai nazarini saqlab qolishi kerakmi, yoki tolerant yondashuv asosida ularga so‘ragan bahosini qo‘yib berishi lozimmi?

1-masala. Dars jarayonida o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatilmadi. O‘quvchilar o‘zining o‘qituvchiga nisbatan hurmatsizligi dars davomida yaqqol ko‘zga tashlandi. Ana shunday jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqotni qay tarzda tiklashi mumkin?

2-masala. Guruhingizda xulqi og‘ir sinfdoshingiz bor, uning hatti – harakatlari darsning bo‘lishiga yoki ko‘proq o‘qituvchilarning nasihatlarini bilan dars yakun topadi. Bu kimlar uchundir quvonchlidir, yana kimlar uchundir qayg‘ulidir. Ushbu sinfdoshingizning hatti – harakatlarini qay tarzda to‘g‘rilash mumkin?

3-masala. Bitiruv kechasi chiroyli bo‘lishi uchun o‘quvchilarning ota-onalari va o‘qituvchilar bilan kelishilgan holda ma‘lum miqdorda pul yig‘iladigan bo‘lishdilar. Lekin ushbu pul miqdori nafaqat sizni balki ba‘zi o‘quvchilarning ota-onalari ham sharoiti ko‘tarmasligi tufayli majlisda ikkiga bo‘linish yuzaga keldi va bir qarorga kelisha olmadilar.

Ushbu jarayonda o‘qituvchi qanday yo‘l tutishi lozim? **4-masala.** 5-sinf o‘quvchisi Akbar otasi vafot etgani sababli darsdan so‘ng onasiga yordamlashib, ukalariga qarar edi. SHu sababli u hamma darslari to‘liq bajara olmas edi. Tarix fanidan yangi kelgan o‘qituvchi Akbarni doskaga chiqardi. U dars tayyorlay olmaganini aytdi. O‘qituvchi: “SHu oddiy vazifani bajara olmadingmi? Bunchalar ham ma’sulyatsiz bo‘lasanmi? Bu ketishingda sendan farrosh ham chiqmaydi” – dedi. Bu voqeadan so‘ng Akbar bu darsga qatnamay qo‘ydi. Baho esa uni umuman qiziqitirmas edi. Akbarni bu vaziyatga tushib qolishiga kim sababchi?

5-masala. Bitiruvchi sinf o‘quvchilari Dilnoza Dildora doimo birga yurishar va inoq do‘st edilar. Dilnoza badavlat oila farzandi bo‘lib hamma bilan ham gaplashavermas edi. Dildoraning esa do‘stlari ko‘p bo‘lib hatto boshqa sinflarda ham bor edi. Dilnoza dugonasining bu hislatini (muomalaga kirishib keta olish) ko‘ra olmas edi. SHunday kunlarning birida u dugonasi to‘g‘risida to‘qigan yolg‘onini sinf rahbariga juda ishonchli tarzda aytdi. Sinf rahbari Dildora bilan gaplashmay qo‘ydi. Unga nisbatan yashirin nafrati kundan-kunga ortdi. YAkuniy imtihonlarda ijobiy natijalarga erishsa ham, sinf rahbari unga past baho qo‘ydi. Dildora bu voqeani asl sababini tushunmay aybni o‘zidan ahtara boshlaydi. SHuning natijasida kelajakda Dildora o‘ziga ishonchini yoqotadi.

6-masala. 8-sinf o‘quvchisi Nodir kam ta‘minlangan oila farzandi bo‘lganligi uchun sinfdagi tashkiliy ishlarga har doim ham qo‘shila vermas edi. Kino, teatr va muzeylarga deyarli bormas, sinf to‘lovlarini ham vaqtida to‘lay olmas edi. SHunday kunlarning birida sinfni ta‘mirlash uchun pul yig‘ilayotganida Nodir vaqtida pulni olib kela olmadi. SHunda o‘qituvchi “Seni pullaringsiz ham sinf ta‘miri bitadi. O‘zi bu sinf uchun nima ish qilgansan. Aslida foydangdan ko‘ra zararing ko‘proq. O‘tir joyingga” – deb hammaning oldida izza qildi. Nodir shunday oilada tug‘ilganidan, shu sababli o‘qituvchisi hammaning oldida izza qilganidan qattiq ranjidi. Natijada Nodir hammaga nafrat ko‘zi bilan qaray boshladi. Uni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish uchun kimlar bu ish bilan shug‘ullanishilari kerak.

7-masala. Bobur boshlang‘ich sniflarda a‘lo baxoga o‘qigan lekin kiyinchalik uning o‘zlashtirishi pasayib ketadi snif raxbari bu vaziyatni uning ota-onasidan so‘rashtirganda bir galgi dars tekshirishdan keyin arzimagan xato tufayli otasi qttiq

jazolaganini aytadi Bobur ulardan o'ch olish maqsadida shu yo'lni tanlagan. Snif raxbariga maslaxatingiz.

8-masala. Zarif sportga juda qiziqganligi uchun darsda befarq sinf raxbari uning otasidan bu masala bo'yicha chora ko'rishini talab qiladi otasi esa uni jazolab darsda yaxshi qatnashib a'loga o'qishini talab qiladi. Zarif darsga yuzaki qarab faqat yaxshi baxo olish uchungina o'qiydi. Bu masalada otasi va ustozlari to'g'ri yo'l tutdimi.

9-masala. Ilgari qalin do'st bo'lgan ikki o'rtoq urishib qolishadi va buning natijasida sinfda bir-biriga qarshi bo'lgan o'g'il bolalar guruxi paydo bo'ladi. Bu vaziyatda sinf raxbariga maslaxatingiz. Guruhda o'zlashtirishi past va biroz tarbiyasiz o'quvchi bor. U bilan gaplashish befovdaligini bilib ota-onasini chaqirdingiz lekin ular ham kelmadi. Bu o'quvchi bilan jiddiy shug'ullanmasa bo'lmaydi. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutasiz?

10-masala. Dars paytida, ikkita o'rtoq arzimagan narsaning ustidan urush boshlashdi. Ular janjallariga o'qituvchilar va ota-onalar aralashdi. Bu janjalni bartaraf qilib, bolalarni yarashtirish uchun qanday chora tutish lozim? Darsda ikkita o'quvchi janjallashsa siz o'qituvchisiz, qanday yo'l tutasiz?

11-masala. Guruhingizda darsda ko'p qatnashmaydigan talaba bor. U bilan suhbat qilganingizda oilasi nochor holda yashganligi uchun u ishlashga majbur ekanligini, o'qishga qatnashishi iloji yo'qlini aytdi. SHunda siz qanday yo'l tutasiz?

12-masala. Bir sinfda o'qiydiga ikki o'rtoqlar bor edi. Ulaning biri yaxshi o'qir va barcha uy vazifalarini o'z vaqtida bajarib borardi. Uning o'rtog'i esa o'zlashtirishi past bo'lib doimo o'rtog'idan ko'chirishga urinardi. O'qituvchisi buni sezib a'lochi o'quvchisining o'rtog'iga ko'chirtirmasligini tayinlaydi. SHunda uning boshi qotti. Ko'chirishga bermasa o'rtog'i bilan xafalashib qoladi, agar bersa o'qituvchi uni ham jazolaydi. U nima qilishi kerak? O'qituvchi-chi?

13-masala. Kasb hunar kollejarining biridagi o'quvchilar yangi yil bayramini nishonlash uchun bazm tashkil qilmoqchi bo'ldilar va bo'ladigan harajatlarga pul pul yig'a boshladilar. SHu guruhda o'qiydigan bir o'quvchi bu pulni berishga qurbi etmasligini aytib bazmga qatnashishdan bosh tortdi. Guruhdagilar esa uni ham qo'shilishga majbur qilishdi. Bu guruhimiz bayrami unda hamma qatnashishi kerak deyishdi. U esa oila a'zolarining pul topib berishga majbur ekanligini aytdi. Uning ota-onasi esa bunda kollej rahbarlarini ayblab ularga sizlar aytgansizlar deb aytganlar. Vaziyatdan behabar rahbarlar buni eshitib bazmni qoldirdilar va o'tkazishni taqiqladilar. Guruhdagilar esa bo'lib o'tgan ishlarda o'sha o'quvchini ayblab, uni yog'izlatib qo'yishdi. Bunday vaziyatda ayibdor kim va u qanday hal etiladi?

14-masala. Zolimligi bilan nom chiqargan Hajjoji zolim aqlli bir xotinning erini, o'g'lini va akasini bandi qiladi. Ayol yig'lab, faryod qilib Hajjojning oldiga keldi.

Hajjoj:

- Bu uch kishidan birini avf etaman. YAxshilab o‘ylab ko‘r. Qaysi birining ozod bo‘lishini xohlaysan? Eringnimi, o‘g‘lingnimi, akangnimi?- dedi. Ayolning qanday oqilona javobi va to‘g‘ri so‘zligi Hajjojga qattiq ta’sir qildi. va:
- Hammasini kechirdim, sen ulardan birini kechirishimni so‘rab to‘g‘ri so‘zlading. Sening aqlli va to‘g‘ri so‘zliging menga yoqdi, - dedi. Va ularning hammasini birdan ozod etdi.

15-masala. YUqori sinf o‘quvchisi Zarina o‘qishi davomida do‘q – po‘psalarga va haqoratlarga to‘la anonim xatlar ola boshlaydi. Bu xatlarni u yig‘i aralash o‘qituvchilariga va dugonalariga ko‘rsatadi, ulardan yordam berishlarini va himoya qilishlarini iltimos qiladi. Tekshirishlar tezda shuni ko‘rsatadiki, bu xatlarni Zarining o‘zi o‘ziga yuborarkan. Zarining bunday vaziyatlarni yaratishiga nimalar sabab bo‘lgan?

16-masala. Injener Zafarning oilasida ikkinchi farzand, o‘g‘il bola, uning opasi 12 yoshga kirganda tug‘ilgan. Qizcha ota – onasiga so‘zsiz bo‘ysungan holda tarbiyalandi, hech qachon biron narsada qarshi turishga urinib ko‘rmadi. Aftidan, bunga biron – bir sabab yo‘qday edi – ota – onalarining talablari mutlaqo bama’ni edi. Biroq bu talablarni bola oldiga qo‘yilishida ular shafqatsizligi hiyol e’tirozlarga murosasizligi bilan ajralib turardi. Ota – onalar o‘g‘ilni tarbiyalashga ham huddi ana shu muomala uslubini tanlab olishdi. Lekin ko‘p o‘tmay, qizchada itoatkorlikka undagan narsa o‘g‘ilda indamasdan, lekin shiddatli qarshilik bilan kutib olindi. Buning qachon boshlanganini aytish qiyin, lekin ota–onalarining o‘zlari buni bola buvisinikida mehmon bo‘lgan davr bilan bog‘lashadi. Ammo bunday holatlar maktabning birinchi sinfidayoq boshlangan edi. Bola odamovi, qo‘pol va shubha bilan qaraydigan bo‘lib qoldi. Oltinchi sinfda birinchi marta uydan qochib ketadi. Sakkizinchi sinfda yana shu holat takrorlanadi va bu gal uyga umuman qaytib kelmaydi. Psixolog bolaning ota – onasi bilan suhbatda ular shunday fikrni ta’kidlashardi. Biz bolalarimizni bir hil tarbiyaladik qizim bizni baxtli qildi, nevaralarim bor. O‘g‘lim esa bizni sharmanda qildi degan fikrni aytishdi. Bolaning uyidan qochib ketishiga sabab nimada deb o‘ylaysiz?

17-masala. –Qizim, sen, menga o‘xshab kelesakda o‘qituvchi bo‘lishingni orzu qilaman.

- Oyijon men bu sohadan borishni xohlamayman.
 - Nima uchun?
 - Yosh jonimga nima keragi bor o‘qituvchi bo‘lib.
 - Seni o‘zi hayotda bir maqsading bormi?
 - Maqsad! Maqsad nima o‘zi?
 - Ax, qizim-a. Ba’zida o‘ylab qolaman, shu qiz meni vujudimdan yaralganmikan deb.
 - Oyi, menga qaerdagi safsataboz gaplarni aytib boshimni qotirasiz-a.
 - O‘zingdan chiqqan baloga qayga boray davoga?
- Ziyoli insonning farzandi shunday badaxloq bo‘lishiga kim sababchi?

18-masala. – Ustoz nega meni baholarimni past qo‘ydingiz, yaxshi o‘qisam, Umirov mendan past o‘qisa-da, unga 5 baho qo‘ydingiz.

Bu vaziyatni tahlil qiling. Bunday paytlarda mahoratli pedagoglar qanday yo‘l tutishlari kerak?

19-masala. Dars jarayonida o‘qituvchi hammaga uyga vazifani tekshirishini aytdi. Sardor ismli o‘quvchi darsda jim o‘tirmay, sho‘xlik qildi. O‘qituvchi unga ko‘p marotaba tanbeh berdi. U ogohlantirishlarga qaramay, jim o‘tirmadi. O‘qituvchi uning yoniga kelib;

- Qani daftaringni och. Nega uyga vazifani bajarmading?
- YOzgim kelmadi, yozmadim.
O‘qituvchining jahli chiqib, uni darsdan chiqarib yubordi.
Bu vaziyatda o‘qituvchining tutgan yo‘li to‘g‘rimi?

20-masala. - Bugungi darsimiz takrorlash hisoblanadi. Qani kim javob beradi? Sitora, nega sen telefon o‘ynab o‘tiribsan? Yig‘ishtirib qo‘y.

- Nima ishingiz bor, telefon menikimi yoki siznikimi? Menga hech kim xo‘jayin emas.

Vaziyatni tahlil qiling.

21-masala. O‘qituvchining kiyinishi juda oddiy. Hozirgi zamonaviy talaba o‘quvchilar bunday o‘qituvchilarni mensimasligi, gapiga kirmasligiga qanday qaraysiz.

22-masala. Kursda guruhlar paydo bo‘la boshlasa. Siz bu vaziyatga qanday qaraysiz?

23-masala. Bir talaba qizni Yosh o‘qituvchi yoqtirib qoldi. Bu juda tez hammaga ovoza bo‘lgani sababli, qiz darslarga kelishga tortinib, tengqurlaridan ajralib qoldi. Bu vaziyatni qanday tahlil qilgan bo‘lardingiz?

24-masala. Agar o‘qituvchi ota-onalar majlisiga kech qolib kelsa – bu JINOYAT. Agar ota-onalar yig‘ilishga kech qolishsa bu – SABAB.

Quyidagi fikrga qanday qaraysiz?

25-masala. Maktabda bo‘yanib yuradigan qizlar va chekib yuradigan o‘gil bolalar bilan qanday shug‘ullanish mumkin?

26-masala. O‘qituvchi bir o‘quvchi gap qaytargani uchun qo‘l ko‘tardi. Ma‘lum vaqtdan keyin o‘sha o‘qituvchini ishdan bo‘shatildi.

Vaziyatni tahlil qiling.

27-masala. Farhod o‘qishdan kelib choy taxlashga o‘rindi. U endigina 9 yoshga to‘lgan edi. Farhodning otasi ishdan kech qaytardi. Uning onasi Fotima opa uy-ishlaridan kechgacha ortmas, bu orada opa 2 yashar qizi Zaxroga ham qarab charchab ketar edi.

CHunki Zaxro juda injiq va nimjon bo‘lgani uchun ko‘p kasal bo‘lar edi. Ota-onasining barcha e‘tibori kichik Zaxro tomon qaratilgani Farhodning jahlini chiqarar va rashkini keltirar edi. Bir tomondan buvisining Farhodga qiladigan nasihatlarini, o‘gitlari uni uylashga, mulohaza qilib, senglisi Yosh bo‘lgani uchun unga ko‘p e‘tibor kerak degan xulosaga kelardi. Ammo buvisi onasiga ko‘p tanbeh berishi Farhodni bezota qilib qo‘yar edi. Farhodning uyidagi bu holat uning o‘qishiga ta’sir qilmay qolmadi. Oldingi quvnoq, jim deganga quloq solmaydigan o‘yinqaroq bola, endi har narsaga harxasha qilar edi. Oilaning bunday holatga kelib qolishiga sabab nimada deb o‘ylaysiz?

28-masala. Dilfuza uyiga yig'lab keldi. Ota-onasining yolg'izi, oq-u qorasi bo'lgan, Dilfuzani ota-onasi avaylab-asrashar edi. Dilfuzani onasi Nazira opa undan qancha so'rab-so'rishtirmasin, u hech narsa aytmedi. Bu holat Nazira opaga tinchlik bermadi. Dilfuzani maktabda Lobar degan sinfdoshini o'ziga yaqin olishini bilardi. SHuning uchun Lobardan bo'lib, o'tgan voqeani so'rab-so'rishtirdi. Kimyo darsida o'tkazilayotgan laboratoriyada qo'shmaslik lozim bo'lgan suyuqlikni qo'shib yuborgani uchun uni o'qituvchisi qattiq o'rishgani va bunga qo'shimcha bo'lgan sinf rahbarini tarbiyaviy soatda bergan tanbehiga chiday olmasdan gap qaytarib, yomon so'zlar bilan haqoratlab eshikni yopib chiqib ketganini aytdi. Nazira opa yolg'iz oq-u qorasi bo'lgan Dilfuzani hech kimga xafa qildirib qo'ymayman deb jahl ustida o'qituvchilarga nimalar deganini bilmay qoldi. Dilfuza bo'lib o'tganlarini eshitib o'zida ham xato o'tganini, onasini qilgan ishini tushunishga harakat qildi. Ammo endi maktabga qanday borishi, o'qituvchilari va o'quvchilarining oldida kim degan odam bo'lganini o'ylab siqilar edi. Dilfuza bu vaziyatda qanday yo'l tutishi to'g'ri bo'ladi?

29-masala. Oilasida kam ta'minlangan bolalar mavjud sinfda rahbarsiz. Siz uning oilaviy sharoitidan behabar tarzda uni butun o'quvchilar oldida pul olib kelishi haqida gapirib uyaltiringiz. Bunday hal bo'lganidan keyin o'quvchi darsga kelmay qoladi. Uyiga borib uzr so'rab maktabga borishini aytsangiz ham darsga kelmay qoldi. Bunday holda qnday munosabat bildirasiz?

Mustaqil ta'lim mavzulari

Mustaqil ish bo'yicha ko'rsatmalar

1.Maktab o'quvchisiga psixologik xarakteristika tuzishga doir uslubiy tavsiyalar

Talabalarning pedagogik amaliyoti «Talim to'g'risida» qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talabalari asosida tashkil etiladi va oliy pedagogik ta'lim tizimida muhim o'rin egallaydi. Pedagogik amaliyot davrida talabalarning nazariy bilimlari chuqurlashuvi va mustahkamlanishidan tashqari.Ular pedagogika mehnat ko'nikma va malakalarini ham xosil qiladilar.Amaliyotchi talabalar ta'lim tarbiya jarayonini kuzatadi.Uning mohiyati va mazmunini chuqurroq anglab oladi, uni amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi,eng muhimi o'quvchilar bilan pedagog sifatida munosabatda bo'ladi, sinf jamoasini, jamodagi o'quvchilarshaxsini o'rganadi.

Pedagogik amaliyot davrida amaliyotchi talabadan o'quvchi shaxsiga va sinf o'quvchilar jamoasiga psixologik-pedagogik xarakteritsika tuzish talab qilinadi. Maktab o'quvchisiga psixologik xarakteritsika tuzish ilmiy tadqiqot xarakterida bo'ladi. SHu boisdan amaliyotchi bu ishda bir qancha tadqiqot metodlaridan uslubiyatlaridan foydalanadi.

Psixologik tadqiqot metodlaridan kuzatishdir. Kuzatish muayyan soxaga tegishli ruhiy xodisani tizimli ravishda imtiyoziy idrok qilishdir. Kuzatuvchanlik qobiliyati, esa tegishli ob'ektni kuzatishga layoqatli bo'lish, uni aniq maqsadga muvofiq rejali qilishdan iborat.

Amaliyotchilar o'quvchilar shaxsini ta'lim-tarbiya jarayonining turli sharoitlarida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, sinf va maktab o'quvchilari jamoasi faoliyatida, jamoat ishlarida, oilada va hokoza). Kuzatish va ma'lumotlar to'plashi mumkin. Kuzatish jarayonida o'quvchilar psixik taraqqiyotining muhim jihatlari uning ehtiyoj va intilishlari, qiziqishlari va his-tuyg'u (emotsional) xususiyatlari irodaviy, aktivligi, mutsaqilligi, tashabbuskorligi, o'zini anglashi puxta bilishi, fikr yuritishi va nutq xususiyatlari, xarakter xislatlari, qobiliyati, temperamenti va boshqa individual-psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar tuplaydi. Kuzatish ob'ektiv sharoitda olib boriladi.

Tadqiqot metodlaridan yana biri suxbatdir. O'quvchi shaxsini o'rganish uchun kuzatish materiallarining o'zi kifoya qilmaydi. Shu sababli amaliyotchi-talaba o'quvchining o'zi va jamoa faoliyati tug'risidagi fikr mulohazalaridan ham foydalanishi mumkin.

Psixologik xarakteritsika tuzishda faoliyat-samaralarining ahamiyati katta. O'quvchi faoliyatining natijalari (yozma ishlari, yasagan buyumlari va hokoza). Muhim ma'lumot beradi, bu ma'lumotlar kuzatish materiallarini to'ldiradi va boyitadi.

